

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K 902.2(575.171)

ALLABERGANOV OLLABERGAN ARSLANBEKOVICH

5A120302 – Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Mavzu: Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rayonlashtirish
va kartografiya muammolari.**

Ilmiy rahbar:

t.f.n. dots. Abdullayev O’.

Urganch – 2019

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I – BOB. XORAZM VOHASI VA UNGA ULANIB KETGAN SARIQAMISHBO`YI, UZBOY HUDUDLARIDA TABIIY – IQTISODIY MASSIVLARNING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING JOYLASHISH XUSUSIYATLARI.	
1.1. Xorazm vohasi tosh asrida tabiiy – iqtisodiy makonlar va ularning joylashish geografiyasi.....	9
1.2. Tosh asri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar natijalari.....	20
1.3. Tosh asri yodgorliklarining hududlar bo`yicha joylashish kartografiyasi.....	26
II – BOB. BRONZA VA TEMIR DAVRI TABIIY – IQTISODIY MAKONLARI VA ULARNING JOYLASHISHI MASALASI.	
2.1. Bronza va temir davri aholi turar – joylarida arxeologik izlanishlar.....	39
2.2. Bronza va temir davri massivlari va madaniy – xo`jalik markazlarining joylashishi va kartografiyasi masalalari.....	50
III – BOB. ANTIK DAVR MADANIY – XO`JALIK MARKAZLARINING JOYLASHISHI VA KARTOGRAFIYASI.	
3.1. Antik davr madaniy – xo`jalik markazlarining joylashishi xususiyatlari.....	61
3.2. Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotchilari asarlarida antik davr yodgorliklarning kartografiyasi ishlanmalari tahlili.....	71
XULOSA.....	88
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	90
ILOVALAR.	

KIRISH

Magistrlik dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Istiqlol yillarida O'zbekiston tarixini xolis yaratish, dolzarb tarixiy muammolarni yangicha yondoshuvlar va ilmiy qarashlar asosida haqqoniy yoritish muhim vazifaga aylandi. Yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning tarixida boy madaniyat va bunyodkorlik an'analarini o'rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega¹.

Dissertatsiya mavzusi xronologik jihatdan O'rta Osiyo tarixining tosh asridan antik davrgacha bo'lgan davrlariga to'g'ri keladi. Mazkur jarayondagi Xorazm vohasining tutgan o'rnini yangi asoslarda ko'rib chiqish va baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorazm vohasining katta davri, tosh asridan to antik davrgacha tarixi xronologik jihatdan bir-biri bilan bog'lanib, umumlashtirilgan mavzu sifatida alohida tadqiq etilmagan. Bu borada Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya muammolarini tahlil qilish hozirgi tarix fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

XX – XXI asr boshlari ilmiy adabiyotlarida Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiyasi masalalarining ilmiy muammolarini ko'rib chiqish va umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi. Bu muammo yechimi O'rta Osiyo tarixi fanini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitish, qadimgi Xorazmning mintaq sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasining hajmi, uning o'рни va ahamiyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Ushbu dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga hamda ilm – fan sohalarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan tegishli vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. –Б. 592.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qadimgi Xorazm tarixini yoritishda arxeologik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etgan. XX-XXI asr boshlarida Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya muammolariga bag'ishlangan maqolalar va monografiyalarning ko'pchiligi arxeologiya yo'nalishlariga ega bo'lgan, shuningdek, yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya qilishning ayrim masalalarigina o'rganilgan.

Qadimgi Xorazm yodgorliklarining dastlab o'rganilishi, yodgorliklarning rejalashtirilishi va kartografiya qilinishi Ya.G'.G'ulomov va S.P.Tolstovning ilmiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan. 1937- yilda S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tuzilib, Quyi Amudaryo hududlarida keng tadqiqotlar boshlab yuborildi.

XX asrda Xorazm vohasining tosh asridan antik davrigacha arxeologiyasi, yodgorliklarining rejalashtirilishi va kartografiya qilinishi masalalariga katta hissa qo'shgan bir qator olimlar – M.A.Itina, B.V.Andrianov, B.I.Vaynberg, M.G.Vorobeva, O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, D.Durdiyev, X.Yusupov, M.M.Mambetullaev, L.T.Yablonskiy, G'.Xodjaniyazovlar tadqiqotlari e'tiborga sazovordir².

Xorazmning tosh va bronza asrlari yodgorliklarida amalga oshirilgan tadqiqotlarning dastlabki natijalari va bizning mavzumizga oid ilk ma'lumotlar

² Толстов С.П. Городища с жилыми стенами // КСИИМК. – М., 1947. Вып. XVII. – С. 3–8; ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Востлит, 1962. – С. 9–101; Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 70–80; Дингильдже. Усадьба середины I тысячелетия до н.э. в Древнем Хорезме. – М.: Наука, 1973. – 220 с.; Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзелигыр // АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 532–533; Вайнберг Б.И. Новая культура раннего железного века в левобережном Хорезме // АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 530–532; ўша муаллиф. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1975. Вып. 3. – С. 42–48; Вайнберг Б.И., Дурдыев Д., Юсупов Х. Разведочные работы в Северной Туркмении // АО 1970. – М.: Наука, 1971; Дурдыев Д. Канга 2 – поселение эпохи поздней бронзы // Проблемы археологии Туркменистана. – Ашхабад: Илым, 1984. – С. 31–37; Юсупов Х. Новые археологические материалы с верхнего Узбоя // Каракумские древности. – Ашхабад, 1979. Вып. VIII. – С. 6–25; Яблонский Л.Т. Исследования могильника Сакарчага // АО 1981. – М.: Наука 1982. – С. 482–483; Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии РАН, 1996. – 185 с.; Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ. -М.,1997.№ 2 – С. 150–173; Рапопорт Ю.А. Краткий очерк истории Хорезма в древности // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ РАН, 1998; Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в.н.э. – М.: ИВЛ РАН, 1999. С. 356.Мамбетуллаев М., Ходжаниязов Г. Раскопки городища Большая Айбугиркала // АО 1977. – М.: Наука, 1978. – С. 529; Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр Южного Хорезма // Археология Приаралья. – Тошкент, 1984. Вып. II. – С.21–39 va boshqalar.

S.P.Tolstov nashrlarida³ va Ya.G'.G'ulomovning fundamental asarida o'z aksini topgan.⁴

Quyi Amudaryo hududlari pasttekisliklarida antropogen landshaftning shakllanishi va bu hududdagi yodgorliklarni arxeologik xaritaga tushirish ishiga A.S. Kes va T.A. Abramovalar katta hissa qo'shdilar⁵.

Ammo, haligacha qadimgi Xorazm vohasining tosh asri davri yodgorliklari nisbatan kam o'rganilganligi uchun (neolit davridan tashqari) bizning mavzuimizga oid masalalar ham, ya'ni, mazkur davr yodgorliklarini kartografiya qilish masalalari alohida mavzu sifatida deyarli o'rganilmagan.

Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlari yodgorliklarining rejalashtirilishi masalasini ochib berishda M.A.Itinaning ishlari katta ahamiyatga ega.⁶

Amirobod madaniyati yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar V.N.Yagodin tadqiqotlarida o'z aksini topgan.⁷

Ilk temir va antik davr yodgorliklarining rejalashtirilishi va qisman kartografiya masalalari M.G.Vorobeva, O.A.Vishnevskaya, M.M. Mambetullayev, V.N. Yagodin, S.B. Bolelov, Q.S. Sobirov, G'. Xodjaniyazov va mavzuga oid so'nggi ma'lumotlar S.R. Baratov tadqiqotlarida o'z aksini topgan.⁸

³ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948 – С. 66–68; ўша муаллиф. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М. – Л.: АН СССР, 1948. – С. 77–78.

⁴ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т., 1957. – С. 51–54.

⁵ Абрамова Т.А. Палеогеография Арало – Каспийского региона в позднем голоцене по новым палинологическим данным // Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. – М.: 1993. – С. 116 – 121; Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи // Культура и искусство древнего Хорезма –М.: Наука, 1981. – С.72–80.

⁶ Итина М.А. Новые стоянки тазабагыбской культуры // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 52–69; ўша муаллиф. Поселение Якке-Парсан 2 (раскопки 1958–1959 гг.) // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 107–129; о'sha muallif. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. –М.: Наука, 1977. Т. X. – 239 с.

⁷ Ягодин В.Н. Поселение амирабадской культуры Кават 2 // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 130–140.

⁸ Воробьева М.Г. Проблема Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии.- М.: Наука, 1979; Мамбетуллаев М.М. Археологические обоснования возраста Хивы // Хива-жемчужина мировой цивилизации. – Тошкент: Узбекистан, 1997. – С. 7–18; Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе // ОНУ, 1999. № 9–10. – С. 85–90; Баратов С., Матрасулов Ш, Мадаминов М. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане. 2002 г. – Т., 2003. Вып. 3 – С. 38–45; Ягодин В.Н. Генезис и ранние этапы развития древнехорезмийской государственности // Ўрта Осиё археологияси: Халқаро илмий конференция тезислари. – Т., 2002. – С. 128–129; Ходжаниязов Ф. Ўқимчи Хоразм мудофаа иншоотлари. – Т.: O'zbekiston, 2007. – Б.216.; Собиров Қ.Хоразмнинг қишлоқва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009.–Б.195.

N.A.Egamberdiyevaning nomzodlik dissertatsiyasida qadimgi

Xorazmning

mil. avv. VI–IV asrlar tarixiga oid yozma manbalar va tarixshunoslik masalalari ko'rib chiqildi.⁹

A.A.Asqarov tomonidan S.P.Tolstovning qadimgi Xorazm tarixiga doir ayrim nazariyalari va xulosalari tanqidiy tahlil qilinib, bu borada yangi fikr-mulohazalar bildirildi.¹⁰

Xorazm vohasining so'nggi bronza va ilk temir davri tarixshunosligi masalalari alohida maqolada tavsiflangan.¹¹

Afsuski so'nggi davr tadqiqotlarida ham bizning mavzuimizga oid masalalar deyarli o'z aksini topmagan. Mualliflarning jamoasi tomonidan tayyorlangan va chop etilgan “Xorazm O'zbekiston davlatchiligi tarixida” nomli monografiyada¹², shuningdek, hammualliflikda yozilgan monografiyada Xorazm tarixining deyarli barcha sahifalari tadqiq qilingani holda yodgorliklarning kartografiyasi masalasi ochiq qoldirilgan.¹³

Mazkur tadqiqotning asosiy qismida mavzumiz alohida davrlar va muammolar bo'yicha yoritilishi bois, ushbu dissertatsiyaning kirish qismida ularga qisqacha sharh va munosabat bildirildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch Davlat universitetining ilmiy –tadqiqot ishlari rejalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rayonlashtirish va kartografiya muammolari masalasini ochib berishdan iborat.

⁹ Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма: Автореф. дисс... канд. истор. наук. – Нукус: ККО АН РУз, 2001.

¹⁰ Асқаров А. Ёдимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Т., 2004. – Б. 76–84.

¹¹ Сагдуллаев А., Абдуллаев У. История Хорезма в свете исследований С.П.Толстова (эпоха поздней бронзы и раннего железа) // О'zbekiston tarixi, 2004. № 4. – С. 4–10.

¹² Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: «Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2013.- С. 284.

¹³ Қыдырғиязов М.Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М.М., Сагдуллаев А.С., Қыдырғиязов О.Ш. История цивилизации Хорезма. -Нукус: Qaraqalpakstan.2017. -С. 284 .

Tadqiqotning vazifalari:

- Bugunga qadar Xorazm vohasi eng qadimgi va antik davri bo'yicha arxeologik tadqiqotlar natijalarini ko'rib chiqish, mavjud ma'lumotlardan tarixiy manba sifatida foydalanish va tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish;

- arxeologik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish asosida Xorazm vohasi tarixiy geografiyasi muammolarini tadqiq etish;

- Xorazm vohasida qadimgi aholining hududiy joylashish chegaralari va xususiyatlarini o'rganish;

- Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya muammolarini yangi yondashuvlar va ilmiy qarashlar asosida umumlashtirish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida mavzuga oid arxeologik ma'lumotlar, yozma manbalar, ilmiy-tarixiy adabiyotlar va tarixshunoslik ma'lumotlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Xorazm vohasi tosh davridan antik davrgacha bo'lgan tarixi.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar ilgari suriladi:

- Xorazm vohasining miloddan avvalgi 40 – ming yillik – I ming yillik so'nggi choragiga oid keng xronologik doirasidagi tarixi yaxlit ilmiy muammo va umumlashgan tadqiqot mavzusi sifatida ilk bor tadqiq etildi va ilmiy muomalaga kiritildi;
- hozirga qadar yaratilgan, Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiyasi muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlardagi mavjud arxeologik ma'lumotlar tizimlashtirilib, tarixiy nuqtai nazaridan umumlashtirildi;
- barcha yangi arxeologik ma'lumotlarni qiyoslash asosida tarixiy geografiya muammolari, yodgorliklarni rejalashtirish va qadimgi aholining hududiy joylashish xususiyatlari masalalari ta'riflandi;
- Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya masalalari haqidagi yondashuvlar, fikr – mulohazalar ko'rib chiqilib, qiyosiy tahlil etildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari shu bilan belgilanadiki, dissertatsiyada yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya masalalari tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalar va dissertatsiyada umumlashgan ma'lumotlar O'zbekiston tarixini yangi asosda tadqiq etishda va o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati tarix, arxeologiya, manbashunoslik, tarixiy geografiya va ayniqsa tarixiy kartografiya sohalaridagi fanlararo yangicha yondashuvlar va ilmiy yo'nalishlarni yaratish vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, xolislik mezonlari, qiyosiy tahlil va umumlashtirish uslublarini takomillashtirishga imkon berishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalaridan va dissertatsiyada umumlashtirilgan ma'lumlardan O'zbekiston tarixini o'rganishda va yoritishda, oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, muzeylarda yangi ekspozitsiyalarni tashkil etishda hamda tarixiy – madaniy merosni targ'ib qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy nashrlarda 4 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 3ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va shartli qisqartmalar ro'yxatidan hamda ilovadan iborat. Ishning tadqiqot qismi 93 sahifadan iborat.

**I – BOB. XORAZM VOHASI VA UNGA ULANIB KETGAN
SARIQAMISHBO'YI, UZBOY HUDUDLARIDA TABIIY – IQTISODIY
MASSIVLARNING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING JOYLASHISH
XUSUSIYATLARI.**

**1.1. Xorazm vohasi tosh asrida tabiiy – iqtisodiy makonlar va ularning
joylashish geografiyasi.**

Janubiy Orolbo'yi geografik o'rni jihatdan, Quyi Amudaryo havzasining o'ng va so'l sohillari yerlarini o'z ichiga olgan. Xorazm vohasi Qoraqum va Qizilqum oralig'idagi Turon pasttekisligining o'rta qismida joylashgan. Voha hududlarida baland tog'lar mavjud emas. O'ng sohil Amudaryo yerlaridagi Sulton Uvays tog'larining eng yuqori balandligi 500 metrdan oshmaydi. Shu bois shimoldan sovuq, janubdan issiq havo oqimlarining kirib kelishiga tabiiy to'siqlar bo'lmagan.¹⁴

Xorazm vohasining tarixiy xususiyati shundan iboratki, u Volgabo'yi, Janubiy Ural va Shimoliy Qozog'iston dashtlarining janubiy chegaralarida joylashgan. Qadimdan dasht hududlarida yoyilgan qabilalar dastlab ovchilik, baliqchilik va undan keyingi davrlarda, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Quyi Amudaryoning o'zgaruvchanligi – daryoning migratsiyasi tufayli, uning uchta o'zani – deltasi: Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi va Orolbo'yi o'zanlari vujudga kelgan. Xususan ularning qirg'oqlarida madaniy landshaft shakllanib, ibtidoiy urug'chilik jamoalari dastlab o'zlashtiruvchi va bronza davridan boshlab ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar bilan mashg'ul bo'lganlar.¹⁵

Amudaryoning qadimiy Oqchadaryo deltasi hozirgi Sho'raxon tevaraklaridan boshlangan. Sulton Uvays tog'igacha yo'nalgan bu o'zan Janubiy Oqchadaryo va

¹⁴Абрамова Т.А. Палеогеография Арало – Каспийского региона в позднем голоцене по новым палинологическим данным // Палеогеография и геоморфология Каспийского региона в плейстоцене. – М.: 1993. – С. 116 – 121.

¹⁵Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи // Культура и искусство древнего Хорезма –М.: Наука, 1981. – С.72–80.

Qizilqumdan o'tib, Orol dengiziga quyilgan o'zan – Shimoliy Oqchadaryo deltasi deb ataladi.¹⁶

Amudaryoning so'l sohilidan g'arbiy tomonga yo'nalgan Dovdon va Daryolik o'zanlari uzunligi mos ravishda 300 – 250 km bo'lgan. Dovdon Xonqa va Urganch oralig'ida, Daryolik esa, Urganch shaxridan 18 km shimolda Amudaryodan ajralib chiqib, ular 20-30 km uzoqlikdagi maydonda Sariqamish ko'liga tengma-teng ravishda yo'nalgan. Amudaryo suv oqimi barqaror bo'lmaganligi bois, Dovdon va Daryoliq o'zanlarida suv oqimi goh-gohida ko'tarilishi bir necha tarmoqlarni hosil qilgan. Dovdonning pasttekislik orqali bir necha shohobchalaridan biri ilon izida Sariqamish ko'liga yo'nalgan, Daryoliq irmog'i yo'nalishda birmuncha farqlanish kuzatiladi, ya'ni u Amudaryodan so'l sohilidan g'arbiy tomon ajralib chiqqanidan boshlangan. Bu ikki o'zan Sariqamish pasttekisligida ko'lni hosil qilganlar. Sersuv ko'lining suvlari esa Uzboy o'zanidan 550 km uzunligida Qoraqumning shimoliy tevarak-atroflaridagi qumtepalliklarni yorib o'tib, Kaspiy dengizning Bolxon qo'ltig'iga quyilgan.¹⁷

Mil.avv. IV – III ming yilliklar mobaynida Uzboy o'zani suvga serob bo'lib, u doimiy oqimiga ega edi. Amudaryo bu paytlarda Kaspiy dengiziga toshib intilgan.

Mil.avv. III ming yilliklarda Uzboyda suv oqimi mavjud bo'lgan bo'lsa, II ming yillikda mazkur sarhadda suv faoliyati to'xtagan. Amudaryo suvi dinamikasiga bog'liq bo'lgan Dovdon shahobchalari va Daryoliqning suv oqimi goh ko'tarilishi va pasayishi natijasida uning tarkibidagi allyuvial yotqiziqlarning cho'kishi keng pasttekislikni shakllantirgan.¹⁸

¹⁶ Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып 3.–М., 1960. – С. 35.

¹⁷ Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып 3.–М., 1960. –С. 16–17.

¹⁸ Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. Вып 3.–М., 1960. –С. 16–17.

Amudaryoning Dovdon va Daryoliq o'zanlari faoliyati munosabati bilan rang-barang antropogen landshaft va geografik xususiyatli Sariqamishbo'yi havzasi pasttekisligi yakuniy shakllangan.¹⁹

Mil.avv. II ming yillikda, Janubiy Oqchadaryo irmog'ining suvga to'yinishi yuqori bo'lganligi uchun uning sohillari atrofida ko'psonli botqoqliklar, ko'l va suv havzalari hosil bo'lgan. Bronza davrida Amudaryo Oqchadaryo o'zani orqali, asosan, Orol dengiziga quyilgan. Biroq suv oqimi betayin bo'lishi, Amudaryo suv sathining ko'tarilishi va sohil ko'tarmasidan oshib chiqishi natijasida, suvning oshgan qismi ba'zan Sariqamish pasttekisligiga yo'nalgan.²⁰

Mil.avv. II ming yillikdan boshlab, Amudaryoning Dovdon va Daryoliq o'zanlari suvlari Sariqamish ko'lga past darajada kelib turishi Oqchadaryo o'zani suvi ta'minoti yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.²¹

Amudaryo Toshsaqadan chiqqanidan keyin Sulton Uvays tog'ining tarkibiy qismi bo'lgan Qoratog'gacha sharqiy va g'arbiy hududi tomon sari kengayib borgan.

Sirdaryo so'l sohilidan shimoli-g'arbiy tomonga Jonadaryo va Quvondaryo irmoqlari suvlari Orol dengiziga kelishi munosabati bilan Sharqiy Orolbo'yi havzasi tashkil topgan.²² Mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmi oxirida Amudaryodan Taxiatah yaqinidan ajralib chiqqan tarmoqlari shimolga tomon yo'nalishi natijasida shimoli-g'arbiy Orolbo'yi shakllangan. Hozirgi Nukus shahri yaqinidan boshlangan Oqdaryo, Ko'xnadaryo, Erkindaryo kabi shahobchalari shimol tomon yo'nalishi natijasida 50 km maydonni egallagan Orolbo'yi havzasi tarkib topgan. Mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida Orolbo'yi o'zani orqali Orol dengizining chegaralari shakllangan.²³

¹⁹ Толстов. С.П., Кесь А.С. История первобытных поселений на протоках древних дельт Амударьи и Сырдарьи // Сборник статей для XVIII международного географического конгресса. – М – Л, 1956. – С. 270–271.

²⁰ Кесь А.С. Аральское море в голоцене // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 19.

²¹ Кесь А.С. Аральское море в голоцене // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С. 20.

²² Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии//КСИЭ. Вып. XXX.–М.,1958. – С. 172.

²³ Баратов П.М. Маматкулов, А.Рафиков. Ўрта Осиё табиий географияси.–Т.: “Ўқитувчи”, 2002. –Б.119, 284.

Janubiy Orolbo'yi hududlarini o'zlashtirish masalasi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining tadqiqotlarida muhim o'rin tutgan. Natijada, Quyi Amudaryo yerlarining olis zamonlardayoq ibtidoiy jamoalar o'zlashtirishi jarayonlari boshlanishidan, turli tarixiy bosqichlardagi atrof-muhitda antropogen ta'sir izlari aniqlangan. Ular tabiiy-geografik sharoitning o'zgarib turishiga asos bo'lgan.

Eng qadimgi davrlarda Ustyurt, Orolbo'yi, Qizilqumning paleogeografiyasi va iqlimi zamonaviy geografik sharoitga mos kelmagan. Hozirda Orolbo'yidagi cho'lga aylangan tekisliklar, tosh davrining paleolit, mezolit va neolit bosqichlarida ichimlik suvi bilan yetarlicha ta'minlagan edi.²⁴ Mazkur hududlarda uzoq o'tmishda qurib ketgan ko'llar va daryo irmoqlarining izlari bundan dalolat beradi.

Asaka-Ovdon botig'idagi Shaxpaxta atrofidagi ibtidoiy manzilgohlar madaniy qatlamidan ham qadimgi tosh davriga oid mehnat qurollari olingan.²⁵

Shuningdek, Ustyurt chinki tizimidagi Jayronquduq, Aydobol quduqlari atroflarida mezolit va neolit davri yodgorliklari o'rganilgan.²⁶

Amudaryo so'l sohilidagi Burli 3 maskanida va o'ng sohil Sulton Uvays tog'i shimoliy va g'arbiy tizmasi tevaragida ham so'nggi paleolit va mezolit davrlariga xos mehnat qurollari topilgan.²⁷

Mil.avv. V– IV ming yilliklarga kelib, Oqchadaryo havzasi, Tuyamo'yin tizimidagi Kaparas vohasi va Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlari ko'p sonli suv havzalari va ko'llar tashkil topgan bo'lib, ularning sohili yoqalarida mavjud bo'lgan flora va fauna olami odamlar tomonidan o'zlashtirish imkoniyatini yaratgan. A.V. Vinogradov Oqchadaryo havzasida 30 dan ziyod neolit davriga mansub arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga olgan.²⁸

²⁴ Крахмаль К.А. Хроностратиграфия памятников археологии позднегоплейстоцена–раннего голоцена на территории Узбекистана. –Т.: Университет, 2015. – С. 137.

²⁵ Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте // Вестник ККО АН Уз, Вып №1.–Нукус, 1983. – С. 65–68; ўша муаллиф. Памятники каменного века впадины Шахпахты// Археология Приаралья.–Ташкент: Фан,Вып.1984. – С. 8–20.

²⁶ Бижанов Е.Б.Мезолитические и неолитические памятники северо–западного Устюрта// Археология Приаралья. Вып.№1.–Ташкент: Фан, 1982. – С. 14–37; ўша муаллиф. Новые данные о неолитеюго–западного Устюрта//Вестник ККО АН Уз, Вып №3.–Нукус, 1980 – С.70–75.

²⁷ Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге// Приаралье в древности и средневековье. –М.:Наука. 1998. – С.74–77.

²⁸ Виноградов А.В.Неолитические памятники Хорезма//МХЭ. Вып. № 8. 1968. – С.126–129.

Xorazm vohasida hayot va madaniyatning rivojlanishi yagona suv manbai Amudaryo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Amudaryo va uning irmoqlarining faoliyati natijasida tabiiy-geografik muhit va antropogen landshaftning shakllanishi Janubiy Orolbo'yi havzalari pasttekisligining geologik va geomorfologik holatini hosil qilgan. Amudaryoning tentirab oqishi va uning suv dinamikasiga bog'liq qadimiy irmoqlari suvi ko'tarilib va pasayib turishi natijasida uning tarkibidagi loy qatlamlarining cho'kishiga olib kelgan. Xilma-xil pasttekislik sarhadlarida neolit davridan o'rta asrlargacha bo'lgan tarixiy davr tabiiy-geografik muhit va antropogen landshaft rivojlanib, bosqichma-bosqich o'zgarib turgan.

Amudaryoning gidrografiya, uning qadimiy o'zanlarining yo'nalishlari va oqimi tarixi O'rta Osiyo paleogeografiyasining muhim masalalariga aylangan. Manbalarda Amudaryoning geografiya va gidrografiya al-Beruniy tomonidan hammadan ko'ra, to'g'ri yoritilishiga dastlab S.P.Tolstov e'tibor qaratgan. Qadimshunosning yozishicha, bu borada Beruniyning xulosalari, hayratga qoldiradigan holda, Amudaryo o'zanlarining zamonaviy geografik va arxeologik o'rganilishi natijalariga mos keladi.²⁹ Mazkur mavzu Ya. G'ulomovning maqolasida maxsus ko'rib chiqilgan.³⁰

Beruniyning yozishicha, eng qadimgi davrlarda Amudaryo g'arbga oqib, Kaspiy dengiziga quyilgan (Kalif Uzboyi o'zani), keyinchalik uning oqimi o'zgarib, daryo shimolga burilgan va Orol dengizi tomoniga oqib turgan, navbatdagi daryoning g'arbga burilishi Sariqamish va Uzboy o'zani orqali Kaspiy dengiziga oqib kirishi bilan bog'liq bo'lgan. Shimol-g'arbda Qoraqumni yorib o'tgan Uzboy o'zani tarixiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Amudaryo tarixiga oid ilk ma'lumotlar "Avesto" va yunon-rim tarixchilari asarlarida qayd qilingan.

Bundan ko'rinib turibdiki, deyarli barcha qadimgi mualliflar Amudaryoning Kaspiy dengizga quyilishi haqida yozgan. Abu Rayxon Beruniy "Jayhun bir vaqtlar Xazar dengiziga Balxan deb atalgan shahar yaqinidan o'tgan" deb, daryoning Orol dengiziga yo'nalishini ham qayd qilgan. IX-XI-asrlar arab

²⁹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарты. –М.: ИВЛ, 1962. – С.21–22.

³⁰ Гулямов Я. Беруни об исторической гидрогеографии Аму-Дарьи // Беруни – великий ученый средневековья. – Т.: 1950. – С. 85 – 92.

geograflari (Ibn Xurdadbex, Yoqubiy, Ma'sudiy, Ibn Rusta, Istaxriy) asarlarida ham Amudaryo tarixiga doir qimmatli ma'lumotlar o'rin olganligi e'tiborga loyiq. Mazkur ma'lumotlar, XIX asrning 70-yillaridan boshlab Amudaryo tarixini chuqur o'rganish uchun tadqiqotlarni olib borishiga turtki bo'lgan. Bir qator tadqiqotchilar bu mavzuga tegishli turli fikr – xulosalar bildirganlar.³¹ XX asrda Quyi Amudaryo havzasi, Sariqamish, Uzboy sarhadlari geologik tuzilishi, geografik sharoiti va ekologiyasi bo'yicha tadqiqotlar davom etdi.³²

Geografik muhit va antropogen landshaftning vujudga kelishi hamda rivojlanishi jarayonlarini o'rganish vazifasi dolzarb muammoga aylandi. Bu borada, 1950-1956 -yillarda XAEE tarkibidagi (S.P. Tolstov, A.S. Kes, M.A. Itina, B.V. Andrianov, N.N. Vakturskaya, M.G. Vorobeva, O.A. Vishnevskaya) Amudaryoning qadimiy o'zanlari tarixi va paleogeografiyasiga doir tadqiqotlar o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ya.G'. Gulomov o'zining fundamental monografiyasida sun'iy sug'orish ta'sirida Xorazm vohasida antropogen landshaftning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflagan.³³

Xorazm vohasida antropogen landshaftning shakllanishi va uning o'zgarib borishi jarayonlarini o'rganishda arxeologik ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Oqchadaryo janubiy va sharqiy sarhadlari suv havzalari sohillari etaklarida neolit davriga oid manzilgohlarining arxeologik jihatdan o'rganilishi haqida yuqorida qayd etib o'tilgan Janubiy Xorazmdagi Kaparas vohasi suv havzalari sohillarida ham neolit davriga oid mehnat qurollari topilgan. Oqchadaryo sarhadlarida neolit davri odamlar manzilgohlari keng tarzda yoyilganligi kuzatiladi.³⁴

³¹ Каульбарс А.В. Древнейшие русла Амударьи // Записки Русского географического общества по общей географии. Т. XVII. Вып. 4. – СПб. 1887; Иванин М.И. Хива и река Амударья. – СПб. 1973; Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовья Аму–Дарьи с древнейших времен до XVII в. // Известия Туркестанского РГО. I. IV. Научные результаты Аральской экспедиции. Вып. 2. – Ташкент, 1902; Берг Л.С. Опржежемв падении Аму–Дарьи в Каспийское море // Землеведение. Т. IX. Кн. 4. – СПб. 1902.

³² Кесь А.С. Палеогеография Аральского моря в позднем плейстоцене и голоцене // Палеогеография Каспийского и Аральского морей в кайназое. – М.: МГУ, 1983. Ч. II. – С. 97 – 105.

³³ Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959.

³⁴ Виноградова В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. Вып. №8. – М.: Наука, 1968. – С. 125–126; Итина М.А. Неолит и бронзовый век Южного Хорезма // Древности южного Хорезма. – М.: Наука, 1991. – С. 36–77. рис.–2

M.A.Itina mazkur jarayonni neolit davrida Amudaryo suvi Oqchadaryo irmog'i orqali Orolga yo'nalgan holati bilan izohlaydi.³⁵ Shimoliy Oqchadaryo havzasi neolit davrida kam miqdorda o'zlashtirilgan. Fikrimizcha, bu jarayonga ilk neolit davrida Oqchadaryo irmog'idan qo'shimcha tarmoq shimoli-g'arbiy tomonlarga ajralmagan bo'lsa kerak. Sirdaryoning Jonadaryo irmog'i Orol tomon kam suv olib kelganligi ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunday jarayonni Sariqamishbo'yi havzasi sarhadlari atroflarida kuzatish mumkin. Janubiy Oqchadaryo irmoqlari va ko'llar sohillarida bir-biriga zich joylashgan neolit davri manzilgohlari "Kaltaminor madaniyati" atamasida tarix fanida o'rin olgan.³⁶

Bronza davrida (Suvyorgan, Tozabog'yob, Amirobod madaniyatlari) Oqchadaryo havzasining o'zlashtirilishi jarayoni jadal davom etgan. Ya.G'. G'ulomov Oqchadaryo irmog'i atroflarida Suvyorgan madaniyatiga oid 12 ta yodgorliklarni topib tekshirgan.³⁷

Oqchadaryo sarhadida Tozabog'yob madaniyatiga oid 50 dan ortiq arxeologik yodgorliklar o'rganilgan. Ularnig hududiy joylashishi o'z xususiyatlariga ega bo'lib, makonlar kichik irmoqlar va ko'llar sohillarida joylashgan.³⁸

Janubiy Oqchadaryo havzasida so'nggi bronza davrida Amirobod madaniyati tarkib topgan. Mazkur madaniyat tarixini Yakkaparon 2 yodgorligidan olingan ashyolar yorqin tasvirlaydi. Manzilgohda yarim yerto'la uy-joy qoldiqlari va janubiy – g'arbiy tomonida sug'orish inshooti qoldiqlari o'rganilgan.³⁹

Arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, bronza davri Sariqamish havzasidagi manzilgohlar ozchilikni tashkil qilgan Dovdon irmog'i havzasi atroflarida mavsumiy makonlar o'rganilgan xolos. Mazkur holat Davdon va Daryoliq irmoqlarida suv sathi pasayib qolishi bilan bog'liqligi sabab qilib ko'rsatilgan. Mil.avv. IV–III ming yilliklarda Uzboy atroflarida o'ndan ortiq neolit

³⁵ Итина М.А.История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭ. –М.: Наука,1977. Т. X. – С.25–26.

³⁶ Толстов. С.П.Древности Верхнего Хорезма (Основные итоги работ Хорезмской экспедицииИИМК.1939г.) // ВДИ. № 1, 1941. – С. 155–160; ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта – М., 1962 – С. 27–74; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ.Т.XII. – М.: Наука,1981.

³⁷ Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи.–Тошкент: Фан, 1959. – Б. 51–54.

³⁸ ИтинаМ.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. Т.Х.–М.: Наука, 1977.

³⁹Толстов.С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта.–М.: ИВЛ. 1962.– С. 68.

davriga doir manzilgohlari arxeologik jihatdan o'rganilgan.⁴⁰ M.A. Itina Uzboy faoliyati barham topishini mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan izohlasa,⁴¹ B.I.Vaynberg esa bu voqea mil.avv. II ming yillik boshlarida namoyon bo'lgan deb, mil.avv. II – I ming yillik boshlarida Sariqamishbo'yi va Uzboy havzalari aholi tomonidan butunlay tashlab ketilganligini qayd qilgan. Mil.avv. VIII asrning oxirlariga kelib Davdon irmog'i suvi Sariqamish ko'liga jadal kirib kelishi natijasida, chorvachilik xo'jaligini rivojlantirgan Amirobod madaniyati vakillarining bir qismi Sariqamish bo'yi havzasidagi Tarimqiya va Quysisoyqir balandliklariga o'rnashib olib, chorvachilik xo'jaligini olib borganlar.

Ilk temir davriga oid Quysisoy 2 manzilgohini o'rganish natijasida fanga "Quysisoy madaniyati" tushunchasi kiritildi.⁴² Sariqamish Davdon o'zani sohillaridagi Sakarchaga qirlarida joylashgan ilk saklar mozar-qo'rg'onlarning o'rganilishi quyi Amudaryoning so'l sohil yerlarida chorvadorlar tarqalishidan dalolat beradi.⁴³ Mil.avv. VII – VI asrlar chegarasida so'l sohil hududlarida Xumbuztepa va Ko'zaliqir bunyod etilgan.

Yuqorida keltirilgan arxeologik kashfiyotlarning natijalari shundan dalolat beradiki, Janubiy Orolbo'yi hududlarining inson tomonidan keng o'zlashtirilishi jarayoni 6 – 7 ming yil avval boshlangan. Biroq mazkur davrda insonning tabiiy muhitga ta'siri chegaralangan tor xususiyatga ega bo'lgan. Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, Amudaryoning kichik irmoqlari va ko'llar bo'yida joylashgan.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Orolbo'yi sarhadlarini o'zlashtirish jarayoni, janubiy-sharqiy Ustyurt hududidan boshlangan. Bu yerda topilgan tosh qurollar o'rta paleolit davriga oid.⁴⁴ Tosh davrida Ustyurtda ko'llar va turli o'simliklarning mavjudligi tufayli, ularning sohillarida ibtidoiy termachilar va

⁴⁰ Толстов. С.П. Работы Хорезмской археолого–этнографической экспедиции АН СССР в 1949–1953 гг. // Тр. ХАЭЭ. Т. II. – М.: Наука, 1958. – С. 66–67.

⁴¹ Итина. М.А. История степных племен Южного Приаралья...

⁴² Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границе Хорезм. Тр. ХАЭЭ. Т. XI. – М.: Наука, 1979.

⁴³ Яблонский. Л.Т.К этногенезу населения Северной Туркмении (могильник сакского времени Сакар–чага). // СЭ. №5, 1986.

⁴⁴ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ. 1981. Т. XII. – С. 46–54.

ovchilar ko'chib yurganlar. So'nggi paleolit davrida, Amudaryoning zamonaviy Orolbo'yi o'zani hali vujudga kelmaganligi sababli, ibtidoiy odamlar Sulton Uvays tog'lari atroflariga kelib o'rinishganlar (taxminan 30–25 ming yil avval). Biroq Ustyurt hududlarida hamda Sulton Uvays tog'lari tevaragida doimiy ravishda yashash uchun moslangan makonlar topilmagan.

Mazkur holat Ustyurt hududlarida 10 – 9 ming yil avval – mezolit davrida vujudga kelgan. Bu davrga oid arxeologik yodgorliklar (Oydabol, Oqtoyloq, Churuk va boshqalar.) ilmiy adabiyotlarda asosiy mavsumiy makonlar, ov o'ljasini bo'lish joylari va qisqa muddat davomida foydalanilgan makonlarga taqsimlangan.⁴⁵

Mezolit davrida Orol–Sariqamish suv havzalari shakllanishi sababli, iqlim ancha nam bo'lgan. Ko'llar atrofidagi boy o'simlik va hayvonot olami mavjudligi tufayli Orolbo'yi g'arbiy qismiga tutash Ustyurt yerlari «ov maskani»ga aylangan.

So'nggi paleolit va mezolit davrida Xorazm vohasiga Ustyurt hududidan ovchilar guruhlarining kirib kelishi mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan. Vohada mazkur davrlarga oid uzoq vaqt mobaynida inson yashagan makonlar topilmagan. Neolit davrida antropogen landshaftning hududiy chegaralari o'zgaradi. Kaltaminor madaniyatini yaratgan ovchilar va baliqchilar turli hududlarni o'zlashtirish jarayonlarini boshlaydilar (Janubiy Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi, Uzboy). Alohida urug' a'zolariga tegishli makonlarda hamda yog'och ustun va sinchlar asosida qurilgan hamda usti qamish bilan yopilgan kulbalar paydo bo'ladi.

Bunday uy-joylar Qizilqum sarhadlaridagi Jonbos-4, "Tolstov makoni", Qavat-7, Lavlakon-26 kabi makonlaridan topib tekshirilgan.

Bu davrda antropogen landshaftning rivojlanishi o'zlashtiruvchi xo'jaliklar bilan shug'ullangan urug'dosh jamoalarining yashash joylarini o'zlashtirib yurishi sababli mavsumiy ko'chish jarayoni bilan bog'langan. Neolit davri yodgorliklarining Uzboy o'zani, Janubiy Orolbo'yi hududlaridan Qizilqum bo'ylab

⁴⁵Бижанов Е.Б. Проблемы культурогенеза мезолита Устюрта //Историко–культурное наследие Арало–Каспийского региона. Часть II. –Актау,2010.– С.5–6.

Buxoro vohasiga qadar keng yoyilishi⁴⁶ dasht yerlarda suv manbalarning serobligidan dalolat beradi. Ma'lumki, cho'l sharoitidagi inson hayoti birinchi galda toza ichimlik suvning mavjudligi bilan belgilangan, ikkinchidan, hududlarda yovvoyi hayvonlar uchun suvloqlar, baliq va qushlar suzib yurgan ko'llar, ya'ni qadimgi davrlarda insonning mumkin bo'lgan ov o'ljasi uchun qulay tabiiy sharoit bor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etgan.⁴⁷

Mil.avv. III-II ming yilliklar chegarasida Amudaryo suvi sathini ko'tarilishi munosabati bilan Oqchadaryo o'zaniga ko'p miqdorda suv kelib turgan. Natijada, qum tepaliklarning o'rtasidagi kengligi 2-3 km teng o'zan orqali Oqchadaryo shiddat bilan shimol tomonga oqib turgan. Amudaryoning o'ng sohil yerlaridagi ilgari mavjud bo'lgan ko'l-botqoqliklar landshafti asta-sekin tekislikka aylana borgan. Bu tekislik yerlarni Oqchadaryo irmoqlari kesib o'tgan.

Janubiy Orolbo'yi hududlaridagi bronza davrida qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarish miqdori ichki talablar, ya'ni urug'-qabila jamoalarining ehtiyojlarini qoniqtirish shuningdek, ortiqcha mahsulotni qo'lga kiritish bilan bog'langan.⁴⁸

Tadqiqotlar shundan darak beradiki, antik davrdan boshlab, Xorazm vohasi zich irrigatsiya tizimi (kanal, ariqlar) bilan qoplanadi, ishlov beriladigan dalalarning umumiy maydoni kengayib, sug'orish ishlari ko'p hajmdagi suv resurslaridan foydalanish talab etgan.⁴⁹

Antik davrida Quyi Amudaryoning o'ng sohil yerlarini, daryo va Sulton Uvays tog'lari orasidagi 160 ming gektar tashkil etgan dalalar bir-necha katta sug'orish inshootlar – kanallar yordamida sug'orilgan.⁵⁰ Ko'p vaqt mobaynida dehqonchilik maqsadida foydalanilgan yerlar sho'rlanib borgan. Aholi yashash joylarini o'zgartirib, yangi yerlarni o'zlashtirishga majbur bo'lgan. Shu bois

⁴⁶Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. 1968. Вып. 8; Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1966.

⁴⁷Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии //Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974. –С. 290-295.

⁴⁸ Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. –Тошкент, 2017. – Б. 117-118.

⁴⁹ Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. –М.; Наука, 1969.

⁵⁰ Андрианов Б. В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969. – С. 98.

sug'oriladigan dalalarning "ko'chish" jarayoni boshlangan, milodiy IV – V asrlarda aholi tark etgan keng dehqonchilik vohalar, xo'jalik va hayot uchun yaroqsiz bo'lib, inson tomonidan qayta tiklanmagan.⁵¹ Ko'p sonli uy – qo'rg'onlar va qal'alar xarobalarga aylangan. Antropogen omillar ta'sirida cho'lga aylangan yerlar haqida S.P. Tolstov shunday yozgan: "... Biz Tuproqqal'aning qo'pchigan sho'rxoklardan iborat g'amgin va hayot nishonasi bo'lmagan tekisligiga qadam qo'ydik. Qoramtir – kulrang tUSDagi g'adir – budir sho'rxok pardasi tuz yeb, ishdan chiqargan yumshoq tuproq qatlamini qoplab olgan ... Sirti sho'rxok pardasi bilan qoplangan va ustida qurib qolgan bir tutam butasi bo'lgan konus shaklidagi qum tepachalari qora sho'rxoklarning o'lik manzarasini yanada g'amginroq ko'rsatib turardi".⁵²

Xorazm vohasida mil.avv. IV-II asrlarda boshlangan shiddatli shaharsozlik – urbanizatsiya jarayonlari natijasida, uzunligi 40-50 km kanallar yordamida sug'orilgan yerlari ekin dalalar, bog'lar va uzumzorlar bilan qoplanib, keng qishloq xo'jalik – agrar landshaft rivojlanadi.⁵³

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, Janubiy Orolbo'yi hududlarida tosh davriga nisbatan bronza davrida chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi ijtimoiy – iqtisodiy aloqalar va ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotiga poydevor yaratdi. Natijada, tabiiy muhitdan farqli ravishda antropogen omillar ta'sirida turli xil landshaft bosqichma-bosqich rivojlangan. Uy – joylar, aholi punktlari, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish, sun'iy sug'orish va yo'llar tarmoqlari landshafti rivoj topgan. Insonning ko'p asrlar mobaynidagi xo'jalik faoliyati natijasida Orolbo'yida ekologik tizimning buzilishi, yerlarning cho'llanishi va sho'rланishi boshlanib dastlabki ekologik muammolar yuzaga kelgan. Qay darajada tabiat va atrof – muhitga zarar keltirganligidan qadimgi davr va o'rta asrlarda xarobaga aylangan uy-joylar, katta va kichik shaharlar hamda qishloqlar qoldiqlari, sug'orish qanallari va sirti sho'rxok bilan qoplangan qadimda ishlov berilgan dalalar izlari dalolat beradi.

⁵¹ Неразик Е. Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.) // Тр. ХАЭЭ. Т. IX. – М., 1976. – С. 13.

⁵² Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 176.

⁵³ Андрианов Б.В., Кесь А.С. Развитие гидрографической сети и ирригации на равнинах Средней Азии // Проблемы преобразования природы Средней Азии. – М.: Наука, 1967. – С. 24 – 39.

Bizningcha, bugungi kunga qadar Xorazm vohasi va O'rta Osiyo mintaqasi o'zga hududlar misolida, qadimiy aholining turmush tarzi, xo'jaligi va moddiy madaniyati taraqqiy topishiga ko'proq geografik sharoit va tabiiy muhitning ta'siri darajasi o'rganilgan. Hozirda Orolbo'yidagi ekologik sharoitni inobatga olgan holda, qadimgi va keyingi davrlarda antropogen omillar ta'sirida insonni o'rab olgan muhitda namoyon bo'lgan salbiy oqibatlarning sabablarini, ya'ni atrof – muhit tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

1.2. Tosh asri yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar natijalari.

Amudaryo yuqori oqimidan oqib kelgan suv tarkibidagi loyqalarning Surxondaryodan keyin 1257 km masofada cho'kishi natijasida Turonning janubi, Janubi-g'arbiy va Shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy rang-barang pasttekisligi shakllandi. Mazkur tekislik qadimgi tosh davridan boshlab ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirish jarayoni kechgan. S.P.Tolstov Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari va Qoraqolpog'iston Respublikasi olimlari tomonidan Quyi Amudaryo, Sariqamishbo'yi, Uzboy sarhadlarida olib borgan keng qamrovli arxeologik izlanishlar natijalari ibtidoiy odamlarning joylashish tarixini yoritish imkonini berdi. Xorazmda ibtidoiy jamoa davrining o'ziga xos xususiyatlari va ibtidoiy odamlar hayotidagi tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini faqat arxeologik qazishmalardan olingan materiallar orqali yoritish mumkin.

Janubiy Orolbo'yi mintaqasining ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirila boshlanishi tosh davrining o'rta va so'nggi bosqichlaridan boshlangan. Biroq mazkur davrga oid eng qadimgi manzilgohlar Amudaryo deltalaridan emas, asosan tog'lik cho'l zonalarida xususan, Ustyurt platosi, Sulton Uvays tog'i kabi suvsiz mintaqalarda qayd etilgan. Ustyurt platosidagi Borsakelmas botig'i yonidan topilgan Yesen 3 va Churuk 12 manzilgohi, xuddi shu botiqning eng chekka shimoliy qismidan topilgan Qoraquduq manzilgohlari guruhi, Asaka-Ovdon botig'idan 18-20 km shimolda joylashgan Shaxpaxta manzilgohlari so'nggi paleolit davriga tegishliligi aniqlangan. Bu manzilgohlar ushbu hudud so'nggi paleolit oxiri va mezolit davri boshlaridayoq insonlar tomonidan o'zlashtirila boshlanganini ko'rsatadi.

Mezolit va neolit davrlarida ham bu hududdan ko'plab yodgorliklar topilgan. Ustyurtning janubiy sharqidagi Jarinquduq sho'rxoki yaqinida joylashgan mil.avv.7-3 ming yilliklarga oid Aydobol manzilgohlari guruhi Markaziy Ustyurtdagi mil.av.6-2 ming yilliklarga oid Kartpayqum manzilgohlari guruhi (Qo'shbuloq 1-7, Oqchuqur, Oqtoyloq 1-3, Oqtepa 1-2, Qo'shxotin, Tanibergan), Sharqiy Ustyurt chinklaridagi Duvan, Oqtumshuq, Qo'rg'oncha, Ajiboy, Sudoche

Urga, Qaraumbet, Puljoy, Oybyir, Devkeskan va shimoliy Ustyurtdagi Churuk manzilgohlari guruhi (jami 80 ta manzilgoh) mezolit-neolit davriga, Barliboy havzasidan jami 7 ta manzilgoh (Kelliberdi, Isatoy 1,2,3, Markabay 1,2,3) , Borsakelmas botig'idan shimoliy g'arb tomondagi Alan manzilgohlari (Sumbetimer 1-7, Qiyshiqshingrov 1-2, Alan 1-3, Jiyos 1) va Ustyurtning sharqiy chinklaridagi Kaskajo'l mozor-qo'rg'onlari neolit davriga oid⁵⁴.

Umuman bugungi kunda Ustyurt va unga chegaradosh hududlardan mezolit va neolit davriga oid 100 dan ortiq manzilgoh ma'lum. Keyingi yillardagi tadqiqotlar Ustyurtdan birmuncha sharq tomondagi hududlar ham paleolit davridayoq insonlar tomonidan o'zlashtirila boshlanganini ko'rsatmoqda. Amudaryoning so'l tomonida joylashgan Sulton Uvays tizmasidan topilgan neolit davriga oid Burli 3 yodgorligi shu hududdan topilgan ibtidoiy yodgorliklarning eng qadimgisi deb hisoblanib kelinar edi. So'nggi yillarda Sulton Uvaysning shimoliy va g'arbiy tizmalaridan neolit davriga xos bo'lmagan o'nlab tosh qurollari topildi. Bu tosh qurollarining yasash texnikasi mezolit va so'nggi paleolit davri uchun xos ekanligi taxmin qilinmoqda⁵⁵.

Arxeologik va geomorfologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, muzlik davridan so'ng O'rta Osiyo, xususan Orolbo'yi hududlarida insonlar hayot kechirishi uchun birmuncha qulay tabiiy-iqlim sharoitlari tarkib topa boshlagan. Bundan 7 ming yil avval "O'rta Osiyo Misri" ning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi ayniqsa faollashgan. Bu davrda Quyi Amudaryo havzasining tabiiy sharoiti hozirgidan mutlaqo farq qilib, qamish va chakalak o'rmonlar o'sib yotgan, juda ko'p daryo imroqlari va ko'llari bo'lgan sernam, botqoqli bir o'lka edi. Qadimgi Xorazm tarixining mashhur tadqiqotchisi S.P.Tolstov bu vohaning ibtidoiy davrdan ilk davlatchilikka qadar bo'lgan uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini Kaltaminor, Suvyorgan, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlariga bo'lgan edi.

XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida quyi Amudaryo havzasida olib borilgan arxeologik qazishmalar, neolit davrida Amudaryoning o'ng qirg'oq

⁵⁴ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. С. 39.

⁵⁵ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. С.46.

Aqchadaryo o'zani havzasi, Qizilqum sahrosi va quyi Zarafshon havzasi Kaltaminor madaniyati qabilalari tomonidan keng o'zlashtirilganligi ko'rsatdi. 1937 -yildan o'z faoliyatini boshlagan Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari 1939- yil bahorida Aqchadaryo havzasidagi Jonbosqal'a yodgorligi atroflarini o'rganayotib birinchi marta neolit davriga oid manzilgohga duch kelgan edilar. Makon ilk bor Amudaryoning Aqchadaryo o'zanidan chiqqan Kaltaminor kanali etaklaridan topilganligi uchun shu tipdagi yodgorliklarga Kaltaminor madaniyati deb nom beriladi. Umuman, Xorazm neolit davri manzilgohlarining asosiy qismi Aqchadaryo havzasida to'plangan⁵⁶.

Neolit davrida ayniqsa Janubiy Aqchadaryo havzasi odamlar ancha zich joylashgan madaniy xo'jalik markazlaridan biriga aylanadi. Bu davrda Janubiy Aqchadaryoning G'arbiy va o'rta o'zani Qavat 5,7 , O'rta va Sharqiy Aqchadaryo o'zani oralig'idagi Jonbos tepaligi atroflarida Jonbos 4,5,11,12,14,18,31,32 va Tolstov manzilgohlari, Sharqiy Aqchadaryoning eng janubiy boshlang'ich qismida Dingilja 6, shu o'zanning Qizilqumga tutashib ketadigan o'ng tomonida Bayramqazigan 1,2,4,6, undan shimolga tomon yo'nalishda Ma'mur 1,2,3, 3 A, 3 B, 4, Kunyak 1, Jingeldi 6, Sharqiy Aqchadaryoning Aqchadaryo koridoriga yaqin joyida Qoundi 3,4, Janubiy Aqchadaryo deltasining shimoliy tomonida Qo'rg'oshin 1, Qo'rg'oshin A,G,D, J ulardan g'arbroqda Qirqqiz 1, Cho'qaloq botig'i va Janubiy Aqchadaryo deltasini Shimoliy Aqchadaryo bilan bog'laydigan tor Aqchadaryo koridori atroflaridan "Posik 60", "Posik 65", Tajiqazgan 2,3,5,6, 6 A, 8,10,13,14, Qurolli 1 manzilgohlari qayd qilingan⁵⁷.

Shimoliy Aqchadaryo deltasi ham neolit davrida insonlar tomonidan o'zlashtirila boshlangan. Lekin mazkur hududdan janubiy Aqchadaryo havzasidagiga nisbatan yodgorliklar juda kam topilgan. Bunday holatni bronza davri mutaxassisi M.A.Itina neolit davrida Amudaryo suvining asosiy qismi Sariqamishbo'yi deltasi orqali oqqanligi sababli Aqchadaryo shimolga tomon yorib o'tish darajasida suvga ega bo'lmaganligi bilan izohlaydi. Garchi bu hududlar

⁵⁶ Виноградов А.В, Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с Юго-восточного Устюрта.//АО.1977 г.-1978г. С.54.

⁵⁷ Кабиров А. Саъдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1990. -Б. 53.

janubiy Aqchadaryo deltasi kabi mukammal o'rganilmagan bo'lsada Shimoliy deltaning eng sharqiy qismida Baljon, undan shimolroqda Baroqtom 10 va Boychuvon, deltaning o'rta qismidagi Uchtog'on tepaliklari sharqiy etaklari yaqinida Uchtog'on 2, undan janubiy sharq tomonda Qamishli 1, Shimoliy Aqchadaryoning g'arbiy tarmoqlari havzasidagi Jumirbuloq va Kesakqal'a mavzeidan neolitik chaqmoqtosh ashyolari topilgan.

Aqchadaryo deltasidan topilgan o'nlab manzilgohlar ichida Jonbos 4 makoni mazkur madaniyatning eng yaxshi saqlangan va tipik yodgorligi hisoblanadi. Uning maydoni kuchli yong'indan keyin neolit davridayoq loyqa bosib qolganligi uchun nisbatan yaxshi saqlangan. Jonbos 4 maydoni 290 metr kv. bo'lib, bu yerda 100-125 kishi yashagan. S.P.Tolstovning fikricha Jonbos 4 chaylasi miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmiga oiddir⁵⁸.

Miloddan avvalgi IV-III ming yilliklar chegarasida Aqchadaryoning janubiy-g'arbiy tomonida Jonbos 5, Jonbos 6, Jonbos 11, Jonbos 12, Jonbos 14, janubiy qismida Ma'mur 3, janubi sharqiy chegarasida Ma'mur 2, Ma'mur 4, Aqchadaryo sohilining o'ng tomonidagi Dingilja qishlog'i, shimoli-sharqida Dingilja 2,3, shimoliy qismida Qurolli 1, Qirqqiz, Qo'rg'oshinjal'a vohasida Qo'rg'oshin A,G,D,J, Ko'kcha tog'ining sharqiy qismidagi suv havzasi sohilida Kaundi 3, janubiy Xorazmning Tuyamo'yin hududida va Kaparas vohasida hosil bo'lgan suv havzalari va ko'llar atroflarida Sulton Sanjar 1,2,5,37, Qo'shbuloq 2,3, Qarriqizil 1, 4 manzilgohlari qayd qilingan. Bular Quyi Amudaryo havzasidagi dastlabki madaniy-xo'jalik markazlari edi.

Kaltaminor jamoasining xo'jalik asosini baliqchilik tashkil etgan. Hayvon ovi va termachilik ahamiyati jihatidan keyingi o'rinda turgan. Hayvon suyaklari orasidan hali uy hayvonlariga tegishli suyak uchratilmagan. To'qimachilik va ovchilikka oid mikrolit tipidagi ashyolar ko'plab topilgan. Sopol idishlar kulolchilik charxisiz qo'lda tayyorlanib, turli xil geometrik shakl, keyinroq naqsh bilan bezatilgan. Dastlab bu sopol idishlar tuxumsimon tagi dumaloq qayiqsimon

⁵⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948. -С. 65.

ko'rinishida yasali, keyinchalik idishlar maydalashib, tagi silliq tuvaksimon ko'rinishni oladi.

Quy Amudaryo havzasida chorvachilikning paydo bo'lishi mavjud ma'lumotlarga qaraganda Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichlariga, taxminan miloddan avvalgi III ming yillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. A.A.Formozov tomonidan o'rganilgan shu davrga oid Saksaulskaya bekati yodgorligidan topilgan hayvon suyaklarining 80 % ni uy hayvonlari (sigir, qo'y) qolganlarini yovvoyi ot suyaklari tashkil etgan.

Kaltaminor madaniyati sohiblarining azaldan shu yerda yashaganliklari yoki, boshqa xududlardan ko'chib kelganliklari masalasi fanda hali to'liq o'z yechimini topmagan. Jonbos 4 ni qazish paytida va Xorazm neolitining boshqa makonlari (Jonbos 5 va boshqalar) dan to'plangan materiallar eng qadimiy Xorazm aholisi madaniy va etnik aloqalarining ba'zi yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. S.P.Tolstovning ta'kidlashicha bu aloqalar O'rta Osiyo qadimgi tarixining etnik tomoni to'g'risidagi an'anaviy tasavvurlarga qarama-qarshi o'laroq, janubga emas, balki shimolga-Qozog'iston, Sibir va shimoli-sharqiy Yevropaga borib taqaladi. (Kaltaminor madaniyatiga o'xshash madaniyatni A.Steyn ekspeditsiyasi Janubiy Sintszyanda, A.A.Formozov G'arbiy Qozog'istonda, I.V.Sinitsin Quy Volgabo'yida ochib o'rganganlar)⁵⁹.

Geografik jihatdan Kaltaminorliklarning eng yaqin qo'shnilari janubdagi xo'jalik jihatidan bir muncha taraqqiy etgan chorvador va ziroatchi qabilalar bo'lgan. Garchi yaqqol sezilib turmasa-da, Janubiy Turkmaniston va Eron bilan kaltaminorliklar aloqa qilib turganligi shubhasizdir. Idishlarning doimiy suratda qizil rangga bo'yalishi Janubiy Turkmaniston (Anov) va Eron yassitog'liklarining (g'arbiy va janubiy chekkalari bilan birga) ta'siridan dalolat beradi. Kaltaminor bezaklari kompozitsiyasi jihatidan ham "bo'yama keramika madaniyati" deb ataladigan madaniyat bilan ko'p umumiylikka ega. Kaltaminorning chaqmoqtoshdan yasalgan asbob-uskunalar ham Persepol yaqinidagi eneolit

⁵⁹ Виноградов А.В, Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с Юго-восточного Устюрта.//АО.1977 г.-1978. -С. 145.

davriga mansub qo'rg'ondan topilgan buyumlar hamda Shimoliy Hindistondagi neolit makonidan topilgan mikrolitoid qurollariga ko'p jihatdan o'xshashdir. Bu aloqalarning hammasi Xorazm yangi eradan avvalgi IV-III ming yilliklardayoq O'rta Sharqning qadimgi sivilizatsiyalari olami bilan uzoq sovuq Shimoliy bevosita bog'lovchi xalqa rolini o'tagan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Miloddan avvalgi V ming yillik oxiridan II ming yillikning boshlarigacha so'l sohildagi Sariqamish deltasi, Ustyurt, Uzbo'y va Amudaryoga yaqin joylashgan allyuvial tekisliklarida ham neolit qabilalari keng yoyilib ular birgalikda yagona Kaltaminor etnomadaniy hududini hosil qilganlar. Eneolit va bronza davrida Amudaryoning Sariqamish va Uzbuy tomonga oqimi kamayib ketishi natijasida Aqchadaryo o'zani faollashadi. Aqchadaryo havzasidagi suv havzalari va ko'llar sohillariga aholining keng yoyilishi oqibatida eneolit va bronza davrida Aqchadaryo havzasi aholi zich joylashgan vohaga aylandi.

1.3. Tosh asri yodgorliklarining hududlar bo'yicha joylashish kartografiyasi.

Ma'lumki, har bir tarixiy davrda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar darajasi jamiyatning qanday darajada rivojlanishi jihatidan o'ziga xos o'zgarishlariga ega bo'lganligini izohlaydi. Jamiyatning turli sohalarini rivojlantirish, uni miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishlarga olib kelish xar xil etnik guruhlarning birdamligi va hamkorligiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, Sho'ro davri tadqiqotchilari asarlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarning mazmun va mohiyatiga Sho'ro davridagi totalitar boshqaruv tizimi va "Kommunistik mafkura" bilan bog'liq bo'lgan metadologiya asosida Neolit davrida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar faqat moddiy ashyolar asosida tarixshunoslik fani vujudga kelgan edi.

O'zbek xalqi asrlar davomida orzu qilib kelgan Milliy mustaqillik ajdodlarimizning bosib o'tgan yo'li jarayonida jamiyatning barcha saholarida erishgan zafarlarini real ma'lumotlarga tayangan holda yoritish yosh davlatimizning ichki siyosatlaridan biriga aylangan. Sho'ro davri yillarida markaz tashabbusi bilan tashkil qilingan S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya (urush tamom bo'lgandan keyin etnografiya ekspeditsiyasi nomini olgan ekspeditsiya a'zolari 1937-1980 -yillar mobaynida Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy hududlarida keng qamrovli tarzda olib borgan arxeologik qidiruv ishlari va ro'yxatga olinib, qazish ishlarini olib borish uchun nazarga olingan yodgorliklarda bosqichma-bosqich arxeologik tadqiqotlarini olib borganlar. Mazkur jarayonda vohaning ibtidoiy jamiyat tarixini yoritishga imkon beradigan aholi manzilgohlarida olib borgan qazish ishlari natijalariga bag'ishlangan turli nomga ega bo'lgan nashrlar e'lon qilingan.

Mustaqillik yillarida mahalliy ijtimoiy fan namoyandalari oldida Sho'ro davrida Xorazm vohasida yashagan ajdodlarimiz tarixiga oid tadqiqotchilar asarlaridagi ma'lumotlarni nazariy-qiyosiy taxlil qilish va shu asosda zamon ruxiga

javob beradigan tadqiqotlarni yaratish mahalliy tarixchi, arxeolog olimlar zimmasida bo'lishi davr talabi. Ta'kidlash kerak, S.P.Tolstov ekspeditsiyasi faoliyati natijasida Qoraqum va Qizilqum oralig'ida qolib, eng qadimgi davrdan umrguzaronlik qilgan aholining og'ir vaziyatga ko'nikib, urug' jamoalari, qabilalar hamkorligini ta'minlab, davlatchilik asoslarini yaratib, uni yuksak darajada rivojlangan markazlashgan davlat tuzib O'rta Osiyo, Turonda shaharsozlik va davlatchilik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Xorazmni jahon sivilizatsiyasi tarixi sahifasiga olib chiqqanligi haq gap. Ammo, ajdodlarimizning so'nggi toshdan tortib bronza oxirigacha bo'lgan tarixiy jarayonni qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik munosabatlar o'zining ilmiy yechimini topgan emas. Ayniqsa, ibtidoiy jamiyat tarixida eng muhim masala tabiiy-iqtisodiy makonlar, ularning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi, ma'lum hududlarda odamlarning markazlashishi, etnik va etnogenez masalalarini yangicha qarash va yondashuvlar asosida yoritish dolzarbligi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq ma'lum bo'lib qolgan edi. Mahalliy, arxeolog, etnograf olimlar uchun ibtidoiy jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan tarixiy jarayonlarni real manbalar asosida mushohada qilish uchun keng imkoniyat vujudga kelganini alohida ta'kidlash joiz. Shu ma'noda birinchi prezidentimiz "Bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baxolab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak deb xalqimiz tarixida echimini kutayotgan muammolarni to'g'ri qayd qilgan edilar"⁶⁰. Haqiqatan ham prezidentimizning fikr-mulohazalarida jon bor. Sho'ro davrida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan e'lon qilingan nashrlari mazmunini tashkil qilgan tarixiy ma'lumotlar tarixchi, etnograf olimlar tomonidan nazariy-qiyosiy taxlil qilingan tadqiqotni uchratmaymiz.

⁶⁰Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари /Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.7.

Masalan S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab”, “Oks va Yaksart qadimiy irmoqlari bo’ylab” asarlari, Xorazm etnografiyasiga bag’ishlangan maqolalarning mazmunining tahlili hanuzgacha tadqiqotchilar e’tiboridan 1998-yilgacha qolib kelganligi ma’lum. Negaki, shu qayd qilgan yilgacha mahalliy tarixchilar tamonidan tayyorlanib chop qilingan nashrlar, maqola, risolalarda Sho’ro davri nashrlarida o’rin olgan ma’lumotlar takrorlangan xolos. Masalan S.P.Tolstovning ilk monografiyasida⁶¹ qayd qilingan tarixiy ma’lumotlar aynan qaytadan qayd qilinadi. Yonbosh-4 makoni tarixiy davri iqlim sharoit, antropogen landshaft, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar makonning vujudga kelishiga kabi masalalarning yechimi batafsil yoritilishi zarur edi. Bunday taxlil yo‘q adabiyotlarni boshqa tarixiy viloyatlar aholisi tarixida ham uchratish mumkin edi. Shuning uchun ham Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov yuqorida qayd qilgan yilda ijtimoiy fanning ko‘zga ko‘ringan namoyondalari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvida xalqimiz tarixida to‘planib qolgan muammolarga urg‘u bergan edilar. Gap nima masalada ketgani ma’lum. O‘zbek xalqining etnik va etnogenez tarixini chuqur o‘rganish asosida o‘zbek davlatchiligi tarixini xaqqoniy yaratish kabi dolzarb masalani qo‘ydilar⁶². Shu uchrashuvdan keyin o‘zbek xalqi tarixi, shu jumladan voqea aholisi tarixshunosligi fanida yangi davr boshlandi.

Vatanimiz milliy mustaqillikka erishgandan keyin maxalliy tarixchilar, arxeologlar va geografiya fani tadqiqotchilari tomonidan tarixiy, geografik nashrlar e’lon qilindi. Mintaqalar tarixiga bag’ishlangan ilmiy-amaliy seminarlarda, Y. G‘ulomov nomidagi o‘zbek xalqi davlatchiligi mavzusida Respublika seminari materiallarida o‘z ma’nosini topmoqda. O‘zbek geograf olimlari vatanimiz geografiyasiga oid maxsus o‘quv qo‘llanmalar, maqolalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar nashr qildilar. Geograf olim P.Baratovning O‘zbekiston tabiiy geografiyasi o‘quv qo‘llanmasida alohida Xorazm geografiyasi bo‘limi ajratilgan. O‘quv qo‘llanmada Quyi Amudaryo havzasining vujudga kelishi, Xorazm –

⁶¹ Толстов С.П. Древний Хорезм. -М.: Наука, 1948. -С. 47.

⁶²Каримов И.А. Тарихий-хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998. - Б. 57-58.

Toshhovuz. Mustaqillik yillarida tadqiqotchilar asarlarida, oliy o'quv yurtlari (Universitet, Pedagogika institutlari), umumta'lim maktablari, maktab-litseylari O'zbekiston tarixida ibtidoiy jamiyat bo'limi mavjud bo'lib, unda Oqchadaryo havzasida kechgan jarayon qarab chiqiladi. Unda Yonbosh-4 makoni madaniy – qatlamidan olingan moddiy ashyolar, ularning ishlab chiqarilish texnologiyasi, kulolchilik, to'qimachilik, ovchilik mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar A.Asqarovning oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida o'z mazmunini topgan⁶³. O'quv qo'llanmaning vazifasi Xorazm vohasida neolit, eneolit va bronza davrlarida aholining xo'jalik yo'nalishlari, moddiy va ma'naviy sohasida erishgan yutuqlarini qayd qilishdan iborat bo'lgan xolos. O'quv qo'llanmada Yonbosh-4 makoni joylashgan xududning geografik va geologik holati, Yonboshqal'aliklar pasttekisligi yuzasi vujudga kelishi, rang-barangligi, Xorazm hududi ikki qismdan iboratligi, ya'ni qadimgi Pitnakdan Taxiatoshgacha, va undan sal yosh Nukus-Orolbo'yi hududi to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan⁶⁴. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqovlar tomonidan tayyorlangan o'quv qo'llanmada O'rta Osiyoning tabiiy geografiyasini tasvirlash jarayonida 12 ta tabiiy-geografik rayonlar qatorida Quyi Amudaryo havzasi alohida qayd qilingan. Shu bilan birga havzaga tabiiy ravishda ulanib ketgan Qizilqum va Ustyurt platosining tuzilishi, to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan⁶⁵. Qaysi hududdan kelgan yoki tub aholi vakillarimi, antropogen landshaft masalalari hamda etnik jarayon, Amudaryo suv sathi ko'tarilishi va pasayib ketishi natijasida Oqchadaryo havzasida suv havzalarining qurib qolishi yoki qaytadan paydo bo'lishi, aholining o'zgarib turgan suv havzalari tomon ko'chishi kabi masalalar o'z mazmunini topishi kerak edi.

A.Asqarovning umumta'lim maktablarining O'zbekiston tarixi kitobida Xorazmning Kaltaminor madaniyati tarixiga oid keng ma'lumotlari o'rin olgan. Bunda Yonbosh-4 manzili madaniy qatlamidan olingan moddiy ashyolar asosida urug' jamoalarining xo'jalik yo'nalishlari taxlil qilinib, ularni aloxida-aloxida

⁶³ Аскарлов А. Ўзбекистон халқлари тарихи. –Т.: Ўқтувчи, 1-қисм. 1992.

⁶⁴ Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Т.: Ўқитувчи, 1996. - Б 154-155.

⁶⁵ Баратов П, Маматқулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. –Т.: Ўқитувчи, 2002. –Б 53.

taxlil qilgani diqqatga sazovor. Chunonchi: A.Asqarov Yonboshliklar urug‘ jamoalari olib borgan xo‘jalik soxalarini uch tarmoqqa ajratgan.

1-tarmoq - kulolchilik sohasida aholi ijodi keng yoritilgan. Kaltaminorliklarning kichik xajmdagi idish-tavoqlar, ulardagi xilma-xil bezaklarga ega bo‘lishi, ularning vazifasiga oid ma’lumotlar

2-tarmoq termachilik mashg‘ulotining ahamiyati madaniy o‘simliklar mavjudligi, ulardan foydalanish, Nabobat o‘simligidan kundalik hayotida foydalanishi

3-tarmoq ovchilik - Kaltaminorliklar xayotida muhim o‘rin egallaganliklari kabi tarixiy ma’lumotlar o‘quv darsligida keng o‘rin olgan. Keramikaning paydo bo‘lishi neolit davrining ulkan kashfiyoti bo‘lib, ayrim arxeologlar hatto neolit davrini “keramika asri” deb atashni taklif qilganlar.

To‘qimachilik hunarmandchiligining vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Endi ibtidoiy jamoa a‘zolari faqat hayvon terilaridan yasalgan kiyim-kechak emas, balki uning yungidan hamda o‘simliklar tolasidan to‘qilgan matolardan ham kiyim-kechak to‘qib kiyadigan bo‘ldilar.

To‘qimachilik hunarmandchiligi mahsulotlari matriarxat jamoa a‘zolarini faqat kiyim-bosh bilan ta‘minlab qolmay, balki baliq ovi xo‘jaligida ham keskin o‘zgarishlarga olib keldi. Yig‘ilgan ipdan to‘r to‘qish, u yordamida baliq ovlash ovchilik xo‘jaligining keskin darajada rivojlanishiga olib keldi.

Bu davrda jamoaga ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, hali ibtidoiy urug‘chilik “kommunasi” hukmron bo‘lib, ishlab chiqarish tub ma’nodagi matriarxal urug‘chilik jamoasiniki edi. Bu davrda nikoh bobida, garchi ikki urug‘ jamoasi o‘rtasida guruhli nikoh hukmronlik qilgan bo‘lsada, ammo nikoh tub mohiyati bilan o‘zining dastlabki bosqichlaridagi holatidan farq qiladi. Endilikda matriarxal urug‘ jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oila vujudga keldi, ya’ni ayollar tug‘ilgan farzandlarining otalaridan o‘z urug‘ jamoasi manfaatiga ishlab berishni talab qiladigan bo‘ldilar.

Tosh xom ashyosining xususiyatini yaxshi bilgan sinchkov ustalar shakl va vazifa doirasi har xil bo‘lgan yangidan-yangi mehnat qurollari ishlashga jiddiy

e'tibor berdilar. Qurollarning turi kengaydi. Tosh qurollar orasida tosh boltalar, ponalar, tosh teshalar, uskanalar paydo bo'ldi.

O'troq turmush tarzi, o'troq xo'jalik janubiy subtropik rayonlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalarda, azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga olib keldi. O'troq xo'jalik yuritishning qaror topishi o'z navbatida chorvachilikning ham paydo bo'lishiga olib keldi.

Neolit davri yer kurrasining barcha mintaqalarida har xil vaqtda sodir bo'ldi. Masalan, bir qit'a aholisi jamiyat taraqqiyotining quldorlik davriga to'g'ri kelgan bo'lsa, ikkinchi mintaqada endigina dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari kashf etilib, ibtidoiy jamoalar tabiatning tayyor mahsulotlari hisobiga yashash qulligidan ozod etilgan edilar.

Ikkinchi ko'rinishga Xorazm vohasi aholisi xo'jaligi jalb qilingan Kaltaminorliklar madaniyatiga xos xo'jaliklar Quyi Zarafshonda mavjud bo'lgan Moxandaryo suvlari ko'llar hosil qilib, bahor oylarida Amudaryogacha yetib borgan. Bu ko'llar allaqachonlar suvsizlikdan sho'rlanib, hozir xalq orasida katta tuzkon, kichik tuzkon nomlari bilan atalib kelinadi. Ana shu qadimgi ko'l yoqalarida yuzlab neolit davri jamoalarining makonlari tarkib topgan. Mohandaryo bo'ylab arxeologik qidiruv ishlarini olib borilishi natijasida kichik va katta tuzkon sohillari bo'ylab 100 dan ortiq neolit davri manzilgohlari topildi.

Qidiruv jarayonida topilgan yuzlab manzilgohlar mavsumiy bo'lib, urug' jamoalarining tosh qurollar, sopol parchalari, hayvon va baliq suyaklari qum ustiga chiqib qolgan. Tosh qurollar ichida o'q-yoyning paykanlari, randalash, teshish asbob-uskunalar, qistirma top pichoq va pardozi berilgan toshbolta va boshqa mehnat qurollari topildi.

Termachilik xo'jaligi Zarafshon vodiysi aholisi hayotida bu tarmoq haqida mayda tosh yorg'uchoqlar dalolat beradi. Chunki deyarli ko'pchilik neolit davri makonlarida 2-3 va undan ortiq tosh yorg'uchoqlar uchratilgan. Kaltaminor madaniyatiga xos makonlar Qashqadaryo quyi oqimida ham topib o'rganilgan.

Zarafshonning o'rta havzasida Sazag'on qishlog'ida makonda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida tosh qurollar, hayvon suyaklari topilgan. Kaltaminor madaniyati jamoalari Qizilqum va Shimoliy Qoraqum cho'llarida, pasttekislik mintaqalarida, qadimgi ko'l yoqalarida yashab, asosan baliq ovi bilan shug'ullanganlar va ular ana shu xo'jalikka moslashgan tosh qurollar yasaganlar. Ko'l yoqalarida emas, balki tog' oldi soy bo'ylarida, tog' oldi buloq suvlarining yoqalarida makon topganlar. Ularning xo'jalik asosida birinchi navbatda ovchilik yotar edi.

Toshdan turli xil mehnat qurollari yasashda yuqori darajaga ko'tarilgan Zarafshon vodiysining neolit davri ustalari toshning xususiyatini o'rganishga katta e'tibor berganlar. Ular hech qachon quyosh ostida chanqab yotgan chaqmoqtoshdan istagan shakl va tipdagi qurol yasash mumkin emasligini yaxshi bilganlar.

Bunday taxlilli ma'lumotlar S.P.Tolstovning asarlarida, maqola va ilmiy-seminar materiallarida uchratilmaydi. Xatto, uning shogirdi A.V.Vinogradov tadqiqotlarida A.Asqarov fikr-muloahazalarga boy bo'lgan ma'lumotlar qayd qilinmaydi⁶⁶. O'zbekiston tarixi bo'yicha malakaviy tajribaga ega bo'lgan tarixchi, etnograf olimlar tamonidan o'zbek xalqi tarixini real manbalar asosida chuqur o'rganish, tarixiy jarayonga to'g'ri baxo berish va uni milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan tarzda tadqiqotlar yaratish uchun loyiha ishlab chiqildi. Ilmiy jamoatchilik e'tiboriga taqdim qilingan loyihada O'zbekistonning yangi tarixini yaratish vazifasi aks etgan. Bunda o'zbek xalqi tarixining tarixiy davr va uning bosqichlari alohida-alohida chuqur taxlil qilish belgilanib olingan. Shunday belgilab olingan bo'limlardan biri ibtidoiy jamiyat tarixi qayd qilingan. Loyihada kishilik jamiyatining bosib o'tgan yo'lining ilk bosqichi ibtidoiy jamiyat tarixini qamrab olgan jarayonlarning vujudga kelish sabablari va uning keyingi tarixiy davrlarda rivojlanish manbalarini qayd qilish masalasi o'rin olgan edi⁶⁷.

⁶⁶Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма –М.: Наука, 1962. –С 56.

⁶⁷Ўзбекистон тарихининг янги концепцияси -Т.:1996. –Б.154.

Konsepsiya loyihasida O'zbekiston hududida Sho'ro davrida qadimshunoslarning ibtidoiy odamlarning faoliyatlari qanday darajada yoritganlari masalasini taxlil qilish, birinchi navbatda, tabiiy-iqtisodiy makonlarning vujudga kelishiga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarni qarab chiqish nazarga olingan. Chunki, tarixiy-geografik viloyatlarning geografik joylashishi, iqlim sharoiti, antropogen landshaftining vujudga kelishi, rivojlanishi, aholining joylashishi bir tarixiy davr yoki bir tarixiy sanada kechmagan. Shu sababdan Turon zaminining tarixiy viloyatlarida ishlab chiqarish kuchlari va u bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari bir xil darajaga erishmagan. Har bir hududning o'ziga xos va mos geografik xususiyat va iqlim sharoiti bor. Lekin geografik kenglik yagona, okeanlar yoki yirik dengiz orqali ajralib qolgan emas. Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar hamkorligida Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanmalari rus tili va o'zbek tilida bir necha bor nashr qilindi. O'quv qo'llanmalarda O'zbekistonning ibtidoiy jamiyat tarixiga ajratilgan bo'limda Xorazmning ibtidoiy jamiyat tarixiga o'rin berilgan. Bunda Oqchadaryo havzasida neolit davri manzilgohlarining arxeologik jihatidan o'rganilishida Xorazm ekspeditsiyasi xodimlarining Xorazmda neolit davriga oid makonlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar yakunlariga oid ma'lumotlar qayd qilinadi. Shu bilan birga, Neolit davri jamiyatini qamrab olgan tarixiy jarayonga manba bo'lgan omillarni taxlil qilish masalalari o'rin olganligini qayd qilish lozim. Demak loyihada qayd qilingan dolzarb masalalar tarixchi, arxeolog olimlar zimmasiga yangi vazifalarini yuklaydi. Ta'kidlash lozim bo'ladiki Xorazmning ibtidoiy jamiyat tarixida kechgan jarayonlar yangicha qarashlar va yondashuvlarga asoslangan nashrlar 2000- yildan keyin ilmiy dunyo yuzini ko'ra boshladi deb fikr yuritsak to'g'ri bo'lar. Shuni ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarida maxalliy arxeolog olimlar (Xorazm ekspeditsiyasi o'z faoliyatini to'xtatgan). Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati hududida ilk ajdodlarimiz, turar-joylari arxeologik jihatidan o'rganilmasdan asosiy e'tiborni antik va ilk o'rta asr yodgorliklarida arxeologik qazishma ishlarini olib borishga qaratgan. Qadimshunos, tarixchi va etnograf olimlar asosiy urg'uni ibtidoiy jamiyat tarixida

kechgan jarayonlar to'g'risida ma'lumot olish uchun Xorazm ekspeditsiyasi hodimlarining nashrlariga qaratganlar.

Tadqiqotchi Qadimgi O'rta Osiyo tarixi bilimdoni A.Sagdullaev⁶⁸ neolit davri jamiyatining notekis rivojlanishi, unga bo'lgan omillar, bu borada Xorazm vohasida kechgan jarayonlar, ularning issiq mintaqalar aholisi xo'jaligidan farqlanish xususiyatlari to'g'risida fikr-mulohazalari o'quv qo'llanmada qayd qilgan. Tadqiqotchi o'quv qo'llanmada Xorazm vohasining so'nggi tosh, mezolit davri urug' jamoalari xo'jaligi hamda geografik xususiyat, iqlim sharoit masalalariga e'tiborni qaratmaganligi ko'zga tashlanadi.

O'quv qo'llanmada Yonboshqal'a atrofidagi suv havzalari sohili etagiga makon qurgan Kaltaminorliklar chaylasi hajmi, markaziy o'choq va 100ga yaqin mayda xajmli o'choqlar hamda sopol idishlar siniqlari, toshdan yasalgan qirg'ichlar, nukleuslar, nayza va kamon o'qlari to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan. Bu yerda Neolit davrida Sariqamishbo'yi havzasida arxeologik jixatidan o'rganilgan Tumekkijujik qabri materiallari asosida etnik jarayonni yoritish e'tibordan qolib ketgan. Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi faqat Kaltaminorliklar moddiy madaniyati haqida ma'lumot berishni afzal ko'rgan. Albatta kam tarixiy ma'lumotlar Xorazmga berilgani O'rta Osiyo misolida ko'rib chiqilsa mumkin tadqiqotchi haqdir. O'quv qo'llanma mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlarning ahamiyatli tomoni shundaki, xonakilashtirilgan xayvonlar va o'simliklarning dastlabki markazlari jadvali berilganligi hamda neolit davri tosh qurollari tarkibi qayd qilingan⁶⁹.

Tadqiqotchilar Q.Sobirov, S.Davletovlarning o'quv-uslubiy qo'llanmasida O'zbekistonda neolit urug' jamoalarining joylashishi, arxeologik jihatidan o'rganilish darajasi, O'rta Osiyoning ikki qutbga ajralishi, unga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, ularning jamiyati rivojlanishidagi notekislik xolati, turli geografik sharoit, lekin yagona geografik hudud masalalari batafsil yoritilgan. O'quv qo'llanmada Kaltaminor madaniyati tarixi yana bir marta esga olinadi,

⁶⁸ Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи (Ўқув қўлланма) . –Т.: Университет. 2004, -Б.18.

⁶⁹ Сагдуллаев А.С. Қўр.асар. -Б 19-20.

Yonbosh-4 makoni, moddiy ashyolari axoli soni 12-125 kishi ekanligi, urug' jamoasi faoliyat olib borayotganligi yoritilgan⁷⁰. Tadqiqotchilar quyidagi masalalarga e'tiborni qaratmaganlar. Yonbosh-4 makonida yashab turib, xo'jalik sohasini olib borgan urug' jamoalari uyushmalari davrida tabiiy sharoit, tabiiy-iqtisodiy manba mavjudligi, suv havzalari dinamikasi, etnik jarayon masalalari, aholining mavsumiy turar-joylari va ularni tashlab ketish kabi masalalarni ko'rsatib o'tish zarurmikan. Har holda Kaltaminorliklarning ilk avlodlari bo'lgan Yonboshliklar Oqchadaryo havzasiga uzoq yo'lni bosib behudaga kelmagan bo'lsa kerak. Tadqiqotchilar Q.Sobirov, R.Abdirimov, B.Abdirimovlarning Xorazmning ibtidoiy jamiyat tarixiga bag'ishlangan risolasi O'rta Osiyo, xususan voha neoliti tarixida kechgan jarayonlarni taxlil qilganlar. Ta'kidlash kerak, Xorazm neoliti jamiyati rivojida Kaltaminorliklarning tarixiy o'rni hamda o'sha tarixiy davrda paleoekonomika va paleodemografiya masalalari to'g'risidagi fikrlari diqqatga loyiq. Ta'kidlash lozim bo'ladiki, tadqiqotchilar tomonidan V.M.Massondan keyin (Joytun manzilgohi materiallari asosida urug' jamoalari paleoekonomika va paleodemografiya masalalari qarab chiqilgan). Xorazm neolit davri odamlarining mehnat kuni, mehnat qurollarini tayyorlashga sarflanadigan vaqt, oziq-ovqat maxsulotlarini iste'mol qilish darajasi va yil davomida qancha miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari zarurligini ishlab chiqqanlar. Albatta bu fikr-mulohazalar munozaraga olib keladi, shunday bo'lsa ham kundalik ehtiyojlarni qondirish to'g'risida fikr-mulohazalari tahsinga loyiq. Oddiy toshga (chaqmoqtosh) ishlov berish, uni silliqlash, ishlatish uchun qilingan xarakatlar ancha vaqtni olishi bor haqiqat. Bu jarayonda toshga ishlov bergan odamning hayotiy tajribasiga bog'liq bo'lishi hammaga ma'lum. Lekin risolada Kaltaminor madaniyatiga omil bo'lgan masalalar o'z mazmunini topgan emas. Bizning fikrimizcha, neolit davri odamlari Xorazmda tub aholini, yoki qaysi hududdan kelgan, tabiiy-iqtisodiy manbalar, suv xavzalarining iqtisodiy resurslari, ularning kelib joylashishiga sabab, suv havzalari faoliyatlari qanday darajada bo'lganligi to'g'risida fikr-mulohazalar yetishmaydi.

⁷⁰Собиров Қ, Давлетов С. Ўрта Осиё археологияси. -Урганч .2006, -Б.16.

Biz bu masala bo'yicha quyidagi fikrni qayd qilishni lozim topdik. Mantiqiy xulosaga ko'ra, o'rta tosh davrida Ustyurt xududida (Qoraqalpog'iston respublikasi xududi tarkibiga kirgan janubi-sharqiy xudud, Orol dengizi g'arbiy sohiliga tutashgan xududlar ovchilik bilan shug'ullangan odamlar). Ustyurt hududida hayotni davom ettirish bilan birga ular so'nggi tosh davriga kelganda oziq-ovqat muammosi va ekologik vaziyat qaltis bo'lganligi sababli ular Sulton Uvays tog'i shimoliy va g'arbiy etaklariga kelib joylashadilar. Vaqt o'tishi bilan Sulton Uvays tog'i odamlari mezolit, ilk neolit davrida yashab ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Albatta, Sulton Uvays tog'i baland bo'lmagani uchun urug' jamoalariga doimiy in'omni taqdim qilmagan. Chunki Sulton Uvays tog'i (473m) Tyan-Shan, Pomir, Hisor kabi tog'lardan muzlik qoplamagan, shuning uchun ham doimiy suv manbasiga ega emas. Faqat unda suv seroblighi bahor yomg'iri, kuzgi yomg'ir va qish qorlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ovchilar va termachilarning keyingi tarixiy bosqichida, ya'ni mil.avv-gi IV ming yillik boshlarida ular otabobolari vatanini abadiy tashlab ketadilar. O'sha tarixiy sanadan keyin urug' jamoalari vakillari orasidan ovni kasb-kor qilib olgan ovchilarning mavsumiy ovlanadigan makoni bo'lib qolgan. Tadqiqotchilar Q.Sobirov, B.Bobojonovlar Kaltaminor madaniyati to'g'risida qisqacha ma'lumot beradilar. Kaltaminor madaniyatining Tuyamo'yin hududiga tarqalganligi to'g'risida fikr-mulohazalarini qayd qilganlar⁷¹. Maqolada quyidagi masalalar yoritilmagan. Masalan Neolit davri tabiiy-sharoit, suv havzalari atroflari massivlar, ularning faoliyatlari, tabiiy-iqtisodiy manbalar va ularning mavjudligi, suv havzalarining mavsumiy sabablari ochib berilmagan. Bu xolat barcha tadqiqotchilar asarlarida uchraydi.

A.Asqarovning ilmiy o'quv yurtlari Tarix fakulteti bakalavriat talabalari uchun tayyorlangan o'quv qo'llanmasida Xorazmning ibtidoiy jamiyatining Neolit davriga Kaltaminor madaniyati, uning iqtisodiyoti ovchilik, termachilik-

⁷¹Собиров Қ, Бобожонов Б. Хоразм воҳасида антропоген ландшафт ва қадимги дехқончилик воҳаларининг вужудга келишига доир баъзи масалалар //История и материальная культура Каракалпакстана. Нукус, 2006, -Б.38.

o'zlashtiruvchi xo'jalik ekanligi qayd qilinadi⁷². Shu bilan bir qatorda olimning Xorazm tarixiga oid bir qator etnografik mazmunga xos maqolalari e'lon qilinib, unda umumiy ma'lumotlar, ziroatkor aholining Xilmend vodiysidan ko'chib kelib Xorazmga joylashganligi masalalari keng yoritilgan. Xolbuki, bu fikr-muloxazalar tadqiqotchilar tomonidan munozaraga olib kelinganligi ma'lum.

O'zbekistonning neolit davri tarixi tadqiqotchisi N.U.Xolmatov tadqiqotlarida Kaltaminor madaniyati va Zarafshon daryosi Quyi havzalari, Qizilqum makonlari misolida yangicha qarashlar va yondoshuvlar asosida tadqiqotlarni e'lon qildi. Masalan uning Zarafshon Quyi mezolit va neoliti. Monografiyasida Zarafshon neolit urug' jamoalari va Kaltaminor madaniyatida bir-biriga o'xshashlik masalalari yoritilgan. Shu bilan birga Zarafshon Quyi havzasida Kaltaminor madaniyati xronologiyasi ishlab chiqilgan.

Xuddi shunday fikr-mulohazalar tadqiqotchi ikkinchi monografiyasida qayd qiladi. Bunda A.V.Vinogradov monografiyasini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar nazariy-qiyosiy taxlil qilingan⁷³. O'Mavlonov monografiyasida Xorazmda Kaltaminor madaniyatining tarqalish geografiyasi haqida ma'lumotni qayd qilgan⁷⁴. Monografiyada Sulton Uvays tog'idagi chaqmoqtosh konlari, Kaltaminorliklarning tarqalish jarayoni yoritilgan. Lekin, Kaltaminorliklar ixtiro qilgan yo'llar tizimi to'g'risida ma'lumotlar ko'zga tashlanmaydi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, aloqa yo'llarining ilk yo'nalishlari Xorazmda so'nggi tosh davrida kechganligini ko'rsatish lozim har xolda, Oqchadaryo havzasiga ilk bor kelgan urug' jamoalari Sulton Uvays tog'i etaklarida quruqlik bilan ko'chib kelganlar. Albatta ularda ulov vositalari bo'lishi mumkin.

Keyinchalik Kaltaminorliklar Uzboy, Sariqamish, Orolbo'yi Janubiy hududlariga va Tuyamo'yin hududidagi suv xavzalari sohili etaklariga kelib, yangi-yangi muloqot yo'llarini ixtiro qilganlar.

⁷²Холматов Н.М. Мезолит и неолит нижнего Зарафшана. Т.: Фан, 2007, Б .124-128.

⁷³ Холматов Н.Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. Т.: Фан, 2008.

⁷⁴Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимий йўллари. -Т.: Академия, 2008. -Б.22-24.

Q.Sobirov, O‘.Abdullaevlar maqolasida Xorazm vohasi Neolit davri aholisining mashg‘uloti, etnik jarayoni to‘g‘risida ma’lumotlar o‘rin olgan⁷⁵.

H.Matyaqubov tadqiqotida Xorazm vohasida turmush tarzini olib borgan urug‘ jamoalarining davlatchiligimiz ilk bosqichlarida tarixiy o‘rni keng ma’noda yoritilgan⁷⁶. Tadqiqotchilar Q.Sobirov, M.Jumaniyazova maqolasida mil.avv. V-II ming yilliklarda Xorazm vohasi, Sariqamish va Uzboy hududlarida etnik jarayonlar tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar qayd qilingan⁷⁷.

Urganch davlat Universiteti geograflari maqolasida Xorazm viloyatining geografik joylashish holati, iqlim sharoiti davrida agroiklim resurslari va ularning qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga ta’siri qayd qilinadi. Bunda yer usti tuzilishining rang-barangligi, hududning geografik joylashishi, noqulay tomonlari (berk havza) va yil bo‘yi iqlim sharoiti, kundalik va yillik xavo harorati haqida ma’lumotlar qamrab olgan⁷⁸. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, mil.avv II ming yillik ikkinchi yarmi oxiri I ming yillik boshlarida Xorazmda ilk dehqonchilik markazlari vujudga kelgan⁷⁹.

I.Jabborovning ilmiy-ommabop kitobida Kaltaminorliklar faoliyat olib borgan tarixiy sharqiy, Oqchadaryo havzasining tabiiy-iqtisodiy manbalarga seroblighi, urug‘ jamoalari tarqalish hududlari, moddiy va ma’naviy madaniyat darajasi va xar yili 200 tonna loyqa qatlamlarini olib kelib yotqizgan Amudaryo faoliyati yaxshi yoritilgan⁸⁰. O‘zbek geograf olimi A.Soliyev esa Xorazm vohasining geografik joylashish xususiyati va bu xususiyatning voha rivojlanishiga ta’siri yoritilgan⁸¹.

Shu tariqa, yuqorida keltirilgan tarixiy ma’lumotlar mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin. Mahalliy tadqiqotchilar

⁷⁵ Собиров Қ, Абдуллаев Ў. Этномаданий муносабатлар: шаклланиш ва ривожланиш босқичлари.//Жамият ва бошқарув. -Т.: Академия, № 4, 2007.-Б.61.

⁷⁶ Матякубов Х. Ўзбек давлатчилигининг ilk босқичларида қадимги Хоразм. Авторев. Канд.дис. ист.наук. - Т.: 2012.

⁷⁷ Собиров Қ, Жуманиязова М. Амударё Қуйи хавзаси ва унга табиий равишда туташган Жанубий Мезолитдаги қадимги халқлар тарихига доир баъзи чизгилар (мил.авв-ги V-II минг йилликлар)//Хоразм воҳасида ижтимоий-гуманитар фанлар тараққиётининг минтақавий хусусиятлари” мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. -Урганч. 2010, Б 18-20.

⁷⁸ Авезов С.А, Абдуллаев О.А. Хоразм вилояти агроиклимий ресурслари ва уларнинг қишлоқ хўжалигига таъсири. Хоразм Маъмун ахборотномаси. Хива № 2 (31), 2014. -Б 61-62.

⁷⁹ Собиров Қ, Исламов Ш. Хоразм худудида ilk деhqончилик жамияти ва шаҳар типидagi аҳоли марказларининг шаклланиши /Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива, №4. (37). 2015.-Б 46-47.

⁸⁰ Жаббаров И. Юсак маданият ва ноёб маънавий маскани. -Т.: Ўзбекистон, 2012. -Б.45-48.

⁸¹ Солиев А.Ўзбекистон географияси. Т.: Университет. 2014, -Б 336.

Xorazmning Neolit davri tarixshunosligini yoritishda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari asarlaridan ma'lumotlardan inkor qilmasdan foydalanganlar. Neolit tarixiga oid yangi qarashlar va yondashuvlarga asoslangan fikr-mulohazalar qayd qilingan. Shunday bo'lsa ham, Kaltaminorliklar tarixi to'laqonli ilmiy asoslarga ega emas. Ayniqsa, Oqchadaryo havzasiga kelgan aholi mahalliy, yoki qaysi hududdan kelib joylashganlar. Vohaning o'ziga xos geografik xususiyati, shunga yarasha etnik jarayonlar, urf-odatlar masalalari o'z yechimini kutayotganday ko'rinadi. Xorazm ibtidoiy jamiyat tarixida kechgan jarayonlarning ilmiy salohiyati, uning Turon zaminida tutgan o'rnini masalalari yangi zamon tarixshunosligida o'z o'rnini topishi zarur.

II – BOB. BRONZA VA TEMIR DAVRI TABIIY – IQTISODIY MAKONLARI VA ULARNING JOYLASHISHI MASALASI.

2.1. Bronza va temir davri aholi turar – joylarida arxeologik izlanishlar.

Quyi Amudaryo gidrografiya tarixi Oqchadaryo, Sariqamishbo'yi (Dovdon, Daryoliq irmoqlari) va Orolbo'yi o'zanlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan.⁸²

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Orolbo'yi g'arbiy va sharqiy hududlarini inson qadimgi tosh davrida o'zlashtiradi. A.V.Vinogradov va Ye.B.Bijanov tomonidan Ustyurt chinki atroflarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida paleolit, mezolit va neolit davrlariga oid tosh qurollar topilgan.⁸³

Janubiy Oqchadaryo vohasida tekshirilgan neolit davriga oid yodgorliklar va arxeologik majmualar Kaltaminor madaniyati deb atalgan. Yuqori Uzboy va Sariqamishbo'yi sohillari yoqalarida topilgan neolit davri ovchilari va baliqchilarning makonlari mil. avv. IV–III ming yilliklar bilan sanalgan.⁸⁴

⁸² Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. – М.: 1960. Вып. 3. – С. 348.

⁸³ Виноградова А.В., Бижанов Е.Б. Первые палеолитические находки с юго-восточного Устюрта // АО 1977. – М.: Наука, 1978; Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники северо – западного Устюрта // Археология Приаралья. – Т.: Фан, 1982. Вып. 1- С. 14-17.

⁸⁴ Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1949–1953 гг. // Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1958. Т. II. – С. 66–67.

Mil. avv. III–II mingyilliklar chegarasida Amudaryo suvining Oqchadaryo oʻzaniga keng miqdorda kirib kelishi jarayoni boshlanishi natijasida Janubiy Oqchadaryo irmoqlari sohillarida bronza davri manzilgohlari paydo boʻladi.

Ilk temir davri boshlanishiga kelib (mil. avv. VII asr), Amudaryo suvining asosiy qismini Dovdon va Daryoliq oʻzanlari qamrab olishi natijasida Sariqamish koʻli suv sathi koʻtarilib, Uzboy oʻzanida suv oqimi vujudga keladi. Sariqamishboʻyi hududlarida chorvador qabilalar kelib oʻrnashadilar.⁸⁵ Shuningdek, qadimgi Xorazmda bosqichma-bosqich dehqonchilik madaniyati yangi asoslarda rivojlanadi.⁸⁶

1938 -yilda Amudaryoning oʻng sohil yerlaridagi oʻrta asrlarga oid Norinjon shahar xarobalari atroflarida qoʻlda ishlangan va sirti chizilgan geometrik naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar parchalari topilgan. Ushbu topilmalar S.P.Tolstov nashrlarida Tozabogʻyob madaniyati nomini oldi.⁸⁷

1940-yilda bronza davriga oid Angqaqalʼa 1 manzilgohi topilganidan soʻng, Tozabogʻyob madaniyati mil. avv. II mingyillikning oʻrtalari bilan belgilandi. Dastlabki tadqiqotlar asosida, S.P. Tolstov Tozabogʻyob madaniyatini Sharqiy Yevropa, Qozogʻiston va Sibir dasht hududlaridagi bronza davri madaniyatlari doirasi bilan bogʻlab, «u Kaltaminor madaniyatining bevosita davomidir», deb yozgan.

1939–1940 yillarda Amudaryoning oʻng sohilida Amirobod madaniyatiga oid yodgorliklar topib tekshirilgan. S.P.Tolstov tomonidan Amirobod madaniyati dastlab ilk temir davri bilan bogʻlanib, mil. avv. VIII–VII asrlar bilan sanalgan.

1945-yilda Ya.Gʻ. Gʻulomov tomonidan Suvyorgan madaniyatiga oid Jonbos 6 yodgorligida topilgan arxeologik materiallar soʻnggi bronza davri bilan bogʻlandi. Tadqiqotchining maʼlumotiga koʻra, Suvyorgan madaniyati Kaltaminor

⁸⁵ Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1975. Вып. 3. – С. 42–48.

⁸⁶ Матяубов Х.Х. Амударё кўйи ҳавзаларининг қадимги табиий-географик ҳолати ва антропоген ландшафтнинг шаклланиши // Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. – Самарқанд, 2011. № 1. – Б. 75–86.

⁸⁷ Толстов С.П. Древнехорезмийские памятники в Каракалпакии // ВДИ. – М., 1939. № 3. – С. 174–175; ўша муаллиф. Древний Хорезм... С. 66; ўша муаллиф. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964. –Б. 84.

madaniy an'analari asosida vujudga kelgan, shuningdek, Tozabog'yob madaniyati Janubiy Oqchadaryo vohasida tashqi migratsiyalar tufayli paydo bo'lishi ehtimoldan holi emas deb faraz qilindi.⁸⁸

Janubiy Orolbo'yi bronza davri yodgorliklarining keng o'rganilishi XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, Janubiy Oqchadaryo deltasi – o'zani atroflarida aniqlangan ko'pdan-ko'p yodgorliklar (hozirgi To'rtko'l va Beruniy tumanlari), ushbu hududlar bronza davrida aholi tomonidan zich o'zlashtirilganligini ko'rsatib berdi.⁸⁹ Tozabog'yob madaniyatiga oid Angqa 5 va Qavat 3 yodgorliklarida yarim yerto'lali usti chaylasimon bo'lgan uy-joylarning qoldiqlari tekshirilgan.⁹⁰ Shimoliy Oqchadaryo o'zani sohillarida Ko'kcha 3 bronza davri manzilgohi va qabristoni o'rganilgan.⁹¹

Shimoliy Oqchadaryo deltasining janubiy qismida bronza davriga oid Qamishli 1 va Qamishli 2 makonlarining kashf etilishi natijasida S.P.Tolstov Qamishli madaniyati to'g'risida savolni ro'yobga chiqardi. Ammo yangi tadqiqotlar asosida Qamishli Suvyorgan madaniyatining ilk bosqichi sifatida talqin qilindi.⁹² Suvyorgan madaniyatining rivojlanishi quyidagi bosqichlarga ajratildi: Qamishli – mil. avv. III–II mingyilliklar chegarasi – II mingyillikning birinchi yarmi, Bozorqal'a – mil. avv. XV–XII asrlar, Qovundi – mil. avv. XI–X asrlar.⁹³

⁸⁸ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т.: Фан, 1957. – С. 51–54; ўша муаллиф. Хоразмнинг сўюрилиш тарихи. – Т.: Фан, 1959. – Б. 55–56.

⁸⁹ Толстов С.П. Итоги работ Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1953 г. // ВДИ. – М., 1955. № 3. – С. 192; ўша муаллиф. Итоги двадцати лет работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции // СЭ. – М., 1957. № 4.

⁹⁰ Итина М.А. Новые стоянки Тазабагъябской культуры (работы 1956 г.) // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 52–150; ўша муаллиф. Раскопки стоянки Кават 3 в 1958 г. // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 103–106; ўша муаллиф. Раскопки стоянки Тазабагъябской культуры в 1957 г. // МХЭ. – М., 1960. Вып. 4. – С. 82–103.

⁹¹ Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954 г. // Советское востоковедения. – М., 1955. № 6. – С. 99–103.

⁹² Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954–1956 гг. // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 4–5; ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Востлит, 1962. – С. 42.

⁹³ Толстов С.П., Итина М.А. Проблема суярганской культуры // СА. – М., 1960. №; 1. – С. 14–35; Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой. История формирования и заселения // МХЭ. – М., 1960. Вып. 3. – С. 83.

1957-yilda B.V.Andrianov tomonidan Amirobod madaniyatiga oid Yakkaparson 2 yodgorligi kashf etilishi va arxeologik qazishmalarda topilgan materiallarning o'rganilishi natijasida Amirobod madaniyatining davrlashtirish sanasi qayta ko'rib chiqildi. Dastlab, S.P.Tolstov ushbu madaniyat xronologik jihatdan ilk temir davriga oid, deb yozgan edi. M.A.Itinaning nashrlarida Amirobod madaniyati so'nggi bronza davri bilan bog'lanib, mil. avv. IX–VIII yoki mil. avv. X–VIII asrlar bilan belgilangan.⁹⁴ Natijada, Janubiy Orolbo'yi Oqchadaryo irmoqlari sohillarida (Quyí Amudaryo o'ng sohili yerlari) bronza davrida Suvyorgan, Tozabog'yob (mil. avv. XV–XI asrlar) va Amirobod madaniyatlari rivojlanganligi qayd etildi.

Janubiy Orolbo'yi bronza davri arxeologik materiallari XX asrning 60-70-yillarida chop etilgan adabiyotlarda keng tahlil qilingan.⁹⁵ O'tgan asrning 70-80-yillarida bronza davri yodgorliklarining o'rganilishi davom etdi. Arxeologik qazishmalar Tozabog'yob madaniyatiga oid Ko'kcha 15, 16, 21, 22, Jonbos 33, 34 kabi manzilgohlarida amalga oshirildi.⁹⁶

1977-yilda chop etilgan M.A.Itinaning «Janubiy Orolbo'yi dasht qabilalarining tarixi (mil. avv. II – I mingyillikning boshlari)» deb nomlangan monografiyasida Suvyorgan madaniyati arxeologik manbalari haqida ma'lumotlar deyarli o'rin olmagan. Ular S.P.Tolstovning asarlarida tahlil qilingan. Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlarning qorishishi boshlanib, so'nggi Suvyorgan madaniyati Qovundi bosqichining madaniy an'analari asosida Amirobod madaniyati vujudga keladi.⁹⁷

Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan va 1966-yilda chop etilgan «O'rta Osiyo tosh va bronza davrida» nomli kitobda Suvyorgan madaniyati masalasi

⁹⁴ Итина М.А. Поселение Якке-Парсан 2 (раскопки 1958–1959 гг.) // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 107–129; ўша муаллиф. История степных племен... С. 22.

⁹⁵ Низовья Амударьи Сарыкамыш Узбой...; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарты...; Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья...

⁹⁶ Итина М.А. Раскопки на Акчадарье // АО 1976. – М.: Наука, 1977. – С. 527. Ушбу муаллифнинг юқорида қайд этилган сарлавхадаги бир қатор ахборот мақолаларини қаранг: АО, 1977, 1978, 1979, 1981.

⁹⁷ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., – Л.: АН СССР, 1948. – С. 78; ўша муаллиф. По древним дельтам Окса и Яксарты... С. 60–64; Низовья Амударьи, Сарыкамыш, Узбой... -С. 82–89.

ko'rib chiqilgan. Ushbu masalani yoritgan Yu.A. Zadneprovskiyning fikriga ko'ra, O'rta Osiyoning janubida bronza davrida dehqonchilik madaniyati rivojlanib, sopol idishlar kulolchilik charxida yasalgan, shuning uchun Suvyorgan madaniyati vakillarining janubdan ko'chib kelib, Xorazm vohasida, asosan, baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullanishi hamda sopollarning qo'lda yasash usulidan foydalanishi g'alati tuyuladi.⁹⁸

A.V. Vinogradov so'nggi Kaltaminor madaniyati arxeologik materiallarini Suvyorgan madaniyati Qamishli bosqichiga oid topilmalari bilan qiyoslab, ular o'rtasida mavjud o'xshashliklarni ko'rsatib berdi.⁹⁹

XX asr 50–60 yillaridagi bir qator nashrlarida, Xorazm vohasi bronza davri aholisining tirikchilik manbasi chorvachilik bo'lgan, deb qayd etib o'tilgan. Ushbu xulosaning tarafdorlari quyidagi fikrlarni keltirganlar:

- bronza davri qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lmagan;

- tozabog'yobliklar singari chorvachilik va ziroatchilik xo'jaligiga asoslangan qabilalar Yevrosiyo dashtlarida keng tarqalgan;

- O'rta Osiyo janubidagi bronza davri madaniyatlariga nisbatan, Tozabog'yob madaniyatiga yarim yerto'lalar va qo'lda ishlangan sopol idishlar xosdir;

- asosiy belgilarga ko'ra, tozabog'yobliklar dasht qabilalari bo'lib, Janubiy Orolbo'yi bronza davri madaniyatini Andronovo madaniyatining bir ko'rinishi, ya'ni varianti sifatida talqin qilish lozim.¹⁰⁰

XXI asrning boshlarida, Xorazm vohasi bronza davri sug'orilishi tarixi masalasi tadqiqotchilar tomonidan qayta ko'rib chiqildi. A.A. Asqarov, S.P. Tolstovning asarlarida ro'yobga chiqarilgan ilmiy farazlar va xulosalarni qiyosiy tahlil asosida o'rganib chiqib, S.P. Tolstovning ba'zi bir ilmiy farazlari va xulosalari yangi arxeologik ma'lumotlarga ko'ra eskirib qolganligi haqida o'z fikr-

⁹⁸ Заднепровский Ю.А. Памятники Андроновской культуры. К вопросу о суярганской культуре // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 213–215.

⁹⁹ Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма // МХЭ. – М., 1968. Вып. 8. – С. 172–177.

¹⁰⁰ Умумлаштирилган маълумотларга қўранг: Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.: Наука, 1966. – С. 208, 213.

mulohazalarini bildirdi. A.A.Asqarov Tozabog'yob madaniyatining chorvachilik va ibtidoiy ziroatchilik xo'jaligi asosida vujudga kelishini qayd etib, Xorazm zaminida bronza davri sug'orma dehqonchilik madaniyatining Marg'iyona va Baqtriya singari rivojlangan makoni bo'la olmadi, «Amudaryoning quyi havzalari, uning to'qayzor va qamishzor keng maydonlari, serunum yaylovlari chorvachilik xo'jaligining taraqqiy etishi uchun juda qulay edi» kabi xulosalar chiqardi.¹⁰¹

S.Baratovning ta'kidlashicha, Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlari xo'jaligining asosini chorvachilik tashkil etgan, Janubiy Orolbo'yi bronza davri sun'iy sug'orish inshootlarining mavjudligi to'g'risida taxmin qilish mushkuldir.¹⁰²

J.Bendezu – Sarmento va J.Lyuile «Ko'chmanchi va o'troq madaniyatlari o'rtasida: qadimiy Choch ilk temir asri madaniyatiga Xorazmning ta'siri bo'lganmi?» nomli maqolasida Choch vohasi Burganli madaniyatiga yarim ko'chmanchi yoki butunlay ko'chmanchi Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlarining ta'siri to'g'risida savolni ilgari surdilar.¹⁰³

Quyisoy madaniyati va ilk saklar yodgorliklarining o'rganilishi mil. avv. VIII – VII asrlar chegarasida Amudaryoning so'l sohil Dovdon o'zani suvi Sariqamish ko'liga kirib kelishi natijasida Sariqamishbo'yi va Yuqori Uzboy qirg'oqlari atroflarida chorvachilik xo'jaligini olib borgan amirobodliklar va keyinchalik Quyisoy madaniyati vakillari hamda ilk saklar joylashadilar. 1970 yili Quyi Dovdon o'zani sohilida (Shimoliy Turkmaniston) Qang'aqal'a 2 yodgorligi kashf etildi. Dastlab Qang'aqal'a 2 mil. avv. VII – VI asr o'rtalari bilan belgilanib,

¹⁰¹ Asqarov A. Ўқимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндошувлар. – Т., 2004. – Б. 76–84; ўша муаллиф. Новые подходы к изучению истории древнего Хорезма // O'zbekiston tarixi. 2007. 4-сон. – С. 12–14; ўша муаллиф. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – Б. 44.

¹⁰² Баратов С. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма // O'zbekiston tarixi. 2007. 4-сон. – С. 24–25.

¹⁰³ Benduzu – Sarminto J., Lhullier J. Entre nomadic me et sedentary tee: L'etude des cultures de l' Age du fer Ancien du Chach. Peuton parler d'une influence du Khorezm? // Ўзбекистон пойтахти Тошкент 2200 ёшда. – Т.: Фан, 2009. – Б. 40–45.

manzilgoh qadimgi forslar hujumi natijasida (Kir II ning yurishlari faraz qilingan) vayron bo'lgan deb xulosa chiqarilgan.¹⁰⁴

«Quyisoy madaniyati» tushunchasi, Ko'zaliqirdan 20 km janubi-g'arbida joylashgan ilk temir davriga oid Quyisoy 2 yodgorligi nomidan olingan. Arxeologik tadqiqotlarining dastlabki natijalari asosida, mil. avv. VII asrdan mil. avv. IV asrga qadar Sariqamishbo'yi atroflarida alohida etnik guruhga oid madaniyat rivojlanganligi haqida masala yuzaga keldi.¹⁰⁵

Quyisoy madaniyati yodgorliklari B.I.Vaynberg tomonidan kashf etilgan va o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalari bir qator ilmiy ishlarda tavsiflangan.¹⁰⁶

B.I.Vaynberg fikriga ko'ra, quyisoyliklar xo'jaligi asosini o'troq yoki yarim o'troq chorvachilik va lalmikor dehqonchilik tashkil etgan. Dastlabki tadqiqotlar natijalari asosida Quyisoy madaniyati umumiy ko'rinishida va yetakchi belgilariga ko'ra, saklar madaniyatiga mansubligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.¹⁰⁷

Bu holatga e'tibor bergan M.A.Itina, Quyisoy madaniyatida saklar madaniyati belgilari mavjud degan xulosa chiqargan.¹⁰⁸ L.T.Yablonskiy, quyisoyliklarning Shimoliy – sharqiy Eron dan kelib chiqishini, ular dastlab yashagan hududlarda, aynan ushbu «eroniy» chorvadorlarga mansub arxeologik ma'lumotlari bilan isbotlab berish kerak deb yozadi.¹⁰⁹

A.A.Asqarovning nuqtai nazariga ko'ra, Quyisoy qabilalari Xorazm vohasi mahalliy aholi vakillari bo'lgan. Ushbu xulosaga e'tibor bergan Q.Sobirovning ta'kidlashicha, quyisoyliklarni «Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Eron hududlarida Sariqamish havzasiga kelib joylashgan aholi bilan emas, balki

¹⁰⁴ Дурдыев Д. Археологические исследования на территории Ташаузской области в 1970–1972 гг. // Каракумские древности. – Ашхабад: Ылым, 1977. Вып. V. – С. 137–139.

¹⁰⁵ Вайнберг Б.И. Новые памятники Куюсайской культуры в Северной Туркмении. // АО. 1974. – М.: Наука, 1975. – С. 519.

¹⁰⁶ Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л. Наука, 1975. Вып. 3. – С. 47–48; ўша муаллиф. Памятник раннего железного века в Северной Туркмении. // Каракумские древности. – Ашхабад: Ылым, 1977. Вып. V. – С. 25–45; ўша муаллиф. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. Тр. ХАЭЭ. – М.: Наука, 1979. Т. II. – С. 7–76.

¹⁰⁷ Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л. Наука, 1975. Вып. 3. – С. 48.

¹⁰⁸ Итина М.А. От редактора // Кочевники на границах Хорезма. Тр. ХАЭЭ. – М., 1979. Т. XI. – С. 5–6.

¹⁰⁹ Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии РАН, 1996. – С. 81.

mahalliy aholi, qolaversa, ularni ko'plab amirobodliklar bilan bog'lash haqiqatga yaqin bo'lsa kerak».¹¹⁰

Bizning fikrimizcha, mil. avv. VII asrda Janubiy Orolbo'yi hududida murakkab etnik jarayonlar yuz bergan, bu masala maxsus tahlilni talab etadi. Kang'a 2 va Quisoy 2 yodgorliklarida topilgan chorvadorlar madaniyatiga oid sopol idishlari, bronzadan ishlangan o'q uchlari va asosiy uy-joy sifatida foydalanilgan yerto'lalar, aholi chorvachilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi.

1981-yilda Xorazm arxeologik-etnografiya ekspeditsiyasi xodimi L.T.Yablonskiy boshchiligida Sariqamishbo'yi Dovdon o'zani sohilidagi Sakarchaga qirlarida joylashgan ilk saklarning mozorqo'rg'onlarida qazishma ishlar boshlangan.¹¹¹ 1988-yilga qadar davom etgan tadqiqotlar orqali qadimshunoslar ilk saklar tarixiga oid yangi ma'lumotlarni olishga erishganlar. Mazkur tadqiqotlar natijalari turli nashrlarda tavsiflangan.¹¹²

Arxeologik tadqiqotlarning asosiy natijalarini umumlashtirib, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Ilk temir davri boshlanishiga kelib (mil. avv. VII asr), Quyi Amudaryo o'ng sohili hududlariga nisbatan (Oqchadaryo o'zani vohasi), so'l sohil yerlari (Sariqamishbo'yi Dovdon o'zani) aholi tomonidan zich o'zlashtiriladi.

2. Quyi Amudaryoning Sariqamish deltasi atroflarida Quisoy madaniyati vakillari va Quyi Sirdaryo yerlaridan ko'chib kelgan saklar joylashadilar. Ular tomonidan o'zlashtirilgan hududlarda murakkab etnik jarayonlar yuz bergan.

3. Arxeologik jihatdan, Quyi Sirdaryo (Inkardaryo o'zani) va Sariqamishbo'yi saklarning mozor qo'rg'onlari, dafn marosimlari, moddiy madaniyati yetarli darajada o'rganilgan. Ular saklarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

¹¹⁰ Собиров Қ. Хоразмнинг кишлок ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 136.

¹¹¹ Яблонский Л.Т. Исследование могильника Сакарчага I // АО 1981. – М.: Наука, 1983. – С. 482–483; ўша муаллифнинг ахборот маълумотларини қўранг: Раскопки курганов в Северной Туркмении // АО 1982. – М.: Наука, 1984. – С. 492; Раскопки курганов в Северной Туркмении // АО 1983. – М.: Наука, 1985. – С. 559.

¹¹² Яблонский Л.Т. К этногенезу населения Северной Туркмении // СЭ. – М., 1986. № 5; ўша муаллиф. Проблема формирования культуры саков Южного Приаралья // СА. – М., 1991, № 1.

1939-yilda Sariqamishbo'yi Dovdon o'zani o'rta qismi atroflarida Ko'zaliqir va Qal'aliqir shahar xarobalari kashf etildi. (Qal'aliqir Ko'zaliqirdan 20 km shimoli-sharqda joylashgan). Kulolchilik charxida yasalgan sopol idishlar parchalarning topilmalari asosida, S.P.Tolstov mazkur yodgorliklar mil. avv. VI – IV asrlarga oid deb xulosa chiqardi.¹¹³

Qazishmalar paytida ko'pdan-ko'p hayvon suyaklari topildi, mayda chorva suyaklariga nisbatan qoramol, ot va tuyalarning suyaklari ustunlik qilishi diqqatga sazovor bo'ldi. Ushbu dalillarga asoslanib, S.P.Tolstov Ko'zaliqir aholi hayotida chorvachilik muhim o'rin egallaganligi haqida xulosa chiqargan.

1970-1982-yillari mobaynida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiya xodimi O.A.Vishnevskaya Ko'zaliqirda arxeologik izlanishlarni davom ettirib, istehkomning barpo qilinishi, uning rivojlanishi tarixi va me'moriy tarkibiy qismlarining yetarli darajada o'rganishga imkon beradigan arxeologik ma'lumotlarni olishga muvassar bo'ldi.¹¹⁴

XX asrning o'rtalarida Quyi Amudaryo o'ng sohil Janubiy Oqchadaryo o'zani sharqiy qismida dehqonchilik uy-qo'rg'onlari topib tekshirilgan. Ular bir-biridan 50 – 120 m masofada alohida joylashgan. Uy-qo'rg'onlar qoldiqlarining asosiy qismi Dingilja vohasida topilgan bo'lib, mil. avv. V asrga oid Dingilja katta uy-qo'rg'oni shular jumlasidandir.¹¹⁵

XX asrning 50-yillari oxirlarida mil. avv. V – IV asrlarga oid madaniy qatlamning mavjudligi Janubiy Xorazmdagi Elxaras va Hazorasp shahar harobalarida aniqlangan.¹¹⁶ 1970-yillarda Xumbuztepada kulolchilik ustaxonalarining qoldiqlari topildi.¹¹⁷

¹¹³ Толстов С.П. Древности верхнего Хорезма // ВДИ – М., 1941. № 2. – С. 178.

¹¹⁴ Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзели-гыр // АО 1971. – М.: Наука, 1972. – С. 532–533; ўша муаллиф. Раскопки городища Кюзели-гыр // АО 1977. – М.: Наука, 1978. – С. 544–545.

¹¹⁵ Толстов С.П. Хорезмская археолого – этнографическая экспедиция 1955–1956 гг. // СА. – М., 1958. № 1. – С. 116–118; Воробьева М.Г. Раскопки архаического поселения близ Дингильдже. // МХЭ. – М., 1959. Вып. 1. – С. 70–80; Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта... – С. 101–106.

¹¹⁶ Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 197–200.

¹¹⁷ Мамбетуллаев М. Хумбуз-тепе – керамический центр Южного Хорезма // Археология Приаралья. – Ташкент, 1984. Вып. II – С. 21–38.

1996–1997-yillarda S.B.Bolelov Xumbuztepada qazishma ishlarni davom ettirib, yangi arxeologik ashyolarni olishga muyassar bo'ldi.¹¹⁸ Kulolchilik xumdonlar va charxda yasalgan sopol idishlarning topilishi natijasida, mil. avv. VII asr oxirlari – mil. avv. VI asrda Xumbuztepa yirik kulolchilik markaziga aylangan degan fikr o'rtaga tashlandi, shuningdek, Xumbuztepa atrofida arxaik davrga oid Qoratosh va Toshsaqa yodgorliklari topildi.¹¹⁹

O'tgan asrning 80-yillarida mil. avv. I mingyillikning o'rtalariga oid sopol idishlarning parchalari M.M.Mambetullaev va V.N.Yagodin tomonidan Xivaning quyi qatlamlarida aniqlandi.¹²⁰ Q.Sobirov va R.Abdirimov Hazorasp arxeologik materiallari asosida, Xorazmda o'troq dehqonchilik madaniyati rivojlanishi ilk bosqichlarning davrlashtirilishi masalasini ko'rib chiqqanlar.¹²¹

Mil. avv. VI – V asrlarga oid qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari masalasi G'.Ho'janiyozov va Q.Sobirov monografiyalarida yoritilgan.¹²² M.Mambetullaev Xorazmda shaharlarning vujudga kelishi omillari, ularning turlari va rivojlanishi xususiyatlari kabi muammolarni tahlil qilgan.¹²³

Mil. avv. VI – V asrlarga oid Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi tarixi N.Egamberdiyeva va Xalil Matyaqubov nomzodlik dissertatsiyalarida ko'rib chiqilgan.¹²⁴

¹¹⁸ Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе // ОНУ. 1999. № 9-10. – С. 85–90.

¹¹⁹ Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ... С. 86–89.

¹²⁰ Мамбетуллаев М.М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы // ОНУ. 1986. – С. 43–51.

¹²¹ Сабиров К., Абдиримов Р. Хазарасп и вопросы периодизации ранних этапов развития оседло – земледельческой культуры Хорезма // Цивилизации древнего Хорезма в контексте истории мировой культуры. – Нукус, 2000. – С. 35.

¹²² Ходжаниёзов Ф. Қудимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2007; Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқва шаҳрлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009.

¹²³ Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения IV в. до н.э. – IV в. н.э.): Автореф. дисс... докт. истор. наук. – Т.: Институт истории, АН РУз, 1994. – С. 25–30.

¹²⁴ Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI–IV вв. до н.э.): Автореф. дисс... канд. истор. наук. – Нукус: Институт истории археологии и этнографии ККО АН РУз, 2001. – С. 10–12; Матяқубов Х.Х. Ўзбек давлатчилигининг ilk босқичларида қудимги Хоразм: Тарих фан. номзоди. дисс... автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2011. – Б. 13–16.

2002 – 2003-yillar mobaynida S.R.Baratov rahbarligida arxeologik guruh xodimlari Hazoraspda qazishmalar olib borib, mil. avv. I-mingyillikning o'rtalariga oid arxeologik ashyolarni topishga erishganlar.¹²⁵

1996-yilda Hazoraspning shakllanishi davr sanasini aniqlash maqsadida qazishma ishlar boshlanib, olingan arxeologik ashyolar natijasida, Hazorasp mil. avv. V – IV asrlar chegarasida uncha yirik bo'lmagan aholi maskani sifatida barpo qilingan degan xulosa chiqarilgan.¹²⁶

Yangi tadqiqotlar tufayli, Hazoraspda mil. avv. I mingyillikning o'rtalariga oid, maydoni 11 gektarga yaqin to'rtburchak shaklidagi istehkomning qoldiqlari topildi. Mudofaa inshootning ikki qator paxsa devorlari bir-biridan kengligi 2,5 metr bilan ajratilib, tashqi devorda o'q otish uchun shinaklar joylashgan.¹²⁷

Quyi Amudaryo so'l sohil yerlarida Ustyurt chinkining janubi-sharqiy qismida joylashgan Katta Oybo'yirqal'ada maydoni 10 gektardan iborat, mudofaa devorlari xom g'ishtdan qurilgan istehkom o'rganilgan. Ushbu qal'a Hazorasp singari mil. avv. V – IV asrlarda bunyod etilgan.¹²⁸

«Arxaik davri» va «arxaik madaniyati» tushunchalarini S.P.Tolstov «ilk antik davri» mil. avv. VII – V asrlar bilan bog'lagan. Ushbu xulosa olimning XX asr 50–60 yillarining boshlaridagi nashrlarida bayon etilgan.

Bizningcha, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda Xorazm arxeologiyasi va tarixiga nisbatan «Arxaik davr», «Arxaik madaniyati» tushunchalarining qo'llanilishidan voz kechib, «Ko'zaliqir madaniyati», «Ilk temir davri» (tarixi, madaniyati) kabi atamalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

¹²⁵ Баратов С.Р., Матрасулов Ш. Археологические работы в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане. 2002 г. – Самарканд, 2003. – С. 43–44.

¹²⁶ Мамбетуллаев М.М., Абдиримов Р. Исследование Хазараспа // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 165–167.

¹²⁷ Собиров К., Рузимов С. Археологические работы в Хазараспе // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2003. № 3-4. – С. 108–109; Собиров Қ Хоразмнинг қишлоқва шаҳарлари мудофаа иншоотлари... Б. 37–38.

¹²⁸ Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма... С. 13–14; ўша муаллиф. Городище Большая Айбуийр-кала// Археология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1990. Вып. IV. – С. 91–131.

Qadimgi Xorazm tarixiga tegishli S.P. Tolstov va uning ilmiy izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan va ko'p yillar davomida fanda ustunlik qilgan ayrim konsepsiyalar va ilmiy qarashlar bugungi kunga kelib o'z isbotini topmadi.

Bunday g'oyalar vujudga kelgan davrda (XX asrning 40–50 yillari) mintaqaning turli viloyatlarida bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklar yetarli darajada o'rganilmagan (yoki umuman noma'lum) bo'lib, qiyosiy tahlil uchun ilmiy materiallar cheklangan edi. Keyingi davrlardagi ayniqsa, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyonada bronza va ilk temir davri arxeologiyasiga doir o'ta muhim kashfiyotlar mintaqqa qadimiy tarixini o'rganish jarayonida keskin o'zgarishlarga zamin yaratdi. Bu borada O'rta Osiyoda qadimiy madaniyatlarning notekis taraqqiy topishi, mintaqada birlamchi sivilizatsiyalarning shakllanishi xususiyatlari hamda ilg'or madaniy, iqtisodiy an'analar va yangi texnologik kashfiyotlarning dastlab vujudga kelgan markazlardan qo'shni hududlarga tarqalishi qonuniyatlari haqida aniq bir tizimli ilmiy qarashlar yuzaga keldi. Shu bois qadimgi Xorazm tarixining dolzarb muammolarini qayta ko'rib chiqish va yangicha yoritish vazifasi yuzaga keldi.

2.2. Bronza va temir davri massivlari va madaniy – xo'jalik markazlarining joylashishi va kartografiyasi masalalari.

Bronza davrida Janubiy Orolbo'yi jamoalari o'ziga xos xususiyatlardan iborat tabiiy sharoitga moslashgan mazkur geografik hududga tegishli moddiy madaniyat va xo'jalik shakllarini rivojlantirib, uy-joylar qurilishi an'analari, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarining turlari mahalliy aholining turmush tarziga mos kelgan. Bu jarayonda nafaqat tabiiy muhit xususiyatlarini, shuningdek, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va texnologik yangiliklardan foydalanish darajasini ham inobatga olish lozim.

Xorazm vohasi bronza davri tarixiga oid qishloq xo'jalik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi, jamoa hunarmandchiligi va mashg'ulotlarining xususiyatlari, xo'jalik va ijtimoiy tizimini arxeologik materiallar asosida tiklash masalasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu masalalar mavjud monografiyalarning ayrim boblarida va ilmiy maqolalarda qisqacha aksini topgan, xolos.

So'nggi yillarga qadar quyidagi muammolar yetarlicha o'rganilmagan va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan sabablar maxsus mavzu sifatida keng tahlil qilinmagan:

- Janubiy Orolbo'yi hududlarida juda uzoq muddat mobaynida (deyarli 3 ming yildan ortiq) uy-joylar sifatida sinch-ustunli kulbalar, yengil chaylalar va keyinchalik yarim yerto'lali kulbalardan foydalanilishi masalasi;
- moddiy madaniyat rivojlanishi darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lmish sopol idishlarni qo'lda yasash ibtidoiy usulining uzoq muddat davomida saqlanib, ustunlik qilishi;
- O'rta Osiyo janubiy viloyatlariga nisbatan Xorazm vohasida ziroatchilik va chorvachilikning xronologik jihatdan ancha kech vujudga kelishi hamda xo'jalikning mahalliy ishlab chiqaruvchi xo'jalikda ustunlik qilgan yetakchi shakli masalasi;

- qadimgi jamoalar o'rtasidagi aloqalarning xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, jamiyat tizimi va boshqaruv.

Arxeologlar bronza davri eng mashhur yodgorliklari sifatida Tozabog'yob va Amirobod madaniyati keltiradilar¹²⁹.

Tozabog'yob madaniyati yodgorliklarida bronzadan ishlangan buyumlar kam miqdorda topilgan. Ular asosan pichoq, o'roq, begiz, igna, kamon o'qi uchlari, bilaguzuk, zirak va uzuklardan iborat bo'lib, nodir qurollar va zebziynatlarni tashkil etadi¹³⁰. Amirobod madaniyatiga oid bronzadan yasalgan o'roqlar va o'q uchlarning turlari ko'payadi, shuningdek, bronza o'roq va o'q uchlari quyish uchun ishlatilgan tosh qoliplar topilgan¹³¹.

Janubiy Oqchadaryo havzasida aniqlangan bronza davri manzilgohlari mudofaa devorlari bilan o'ralmagan. Bu holat tashqi bosqinlardan himoyalaniş zarurati bo'lmaganidan dalolat beradi. Makonlar muayyan rejalarga ega emas, uy-joylar tarqoq holda joylashgan. M.A.Itinaning yozishicha, bronza davri jamoalari yarim yerto'lalardan uzoq muddat mobaynida foydalanmaganlar, daryo o'zani tarmoqlarida suv sathi pasayib borishi davrlarida ular turar joylarni o'zgartirib turganlar, shuningdek, yaylovlarda chorvani boqish xo'jalik shakli bilan bog'liq mavsumiy uy-joylar mavjud bo'lgan¹³².

Mil. avv. 2-ming yillikning o'rtalariga qadar Janubiy Orolbo'yi hududlarida dehqonchilik madaniyatiga oid arxeologik ma'lumotlar aniqlanmagan va tozabog'yobliklar eng qadimgi mahalliy ziroatchilar hisoblanadi. Bronza davrida Xorazm vohasida dehqonchilikning vujudga kelishi to'g'risida S.P.Tolstov va Ya.G'.G'ulomov ta'kidlab o'tganlar¹³³. B.V.Andrianov tadqiqotlari tufayli Jonbos-Ko'kcha vohasida qadimgi dala va ariqlar tarmoqlarining izlari topib tekshirilgan.

¹²⁹ Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. – М., 1977. Т. X. – С. 199, табл. V; –С.205

¹³⁰ Итина М.А. Раскопки могильника Тазабагыбской культуры Кокча 3 // МХЭ. – М., 1961. вып. V. – С. 72-75, рис. 23; Ўша муаллиф. История степных племен... С. 129, рис. 67.

¹³¹Итина М.А. Поселение Якке-Парсан 2 (раскопки 1958-1959 гг.) // МХЭ. – М., 1963. вып. 6. – С. 20-21, рис. 12; Ягодин В.Н. Поселение Амирабадской культуры Кават 2 // МХЭ. – М., 1963. вып. 6. – С. 139.

¹³² Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. – М., 1977. Т. X. – С. 203.

¹³³ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 67; Ёулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т.: Фан, 1957. – С. 59.

S.P.Tolstov, Amirobod madaniyatining so'nggi bosqichida (mil. avv. VIII–VII asr boshlari) tarmoqlari rivojlangan yirik sun'iy sug'orish tizimi vujudga keladi va ushbu tizimning mavjudligidan ibtidoiy jamiyat ichida quldorlik munosabatlarining paydo bo'lishini taxmin qilish mumkin, deb yozgan edi¹³⁴. M.A. Itina bu g'oyaning tarafdori bo'lib, Yakkaporson 2 yodgorligida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarning dastlabki natijalariga asoslanib, mil. avv. IX–VII asrlarda Amirobod jamoalarining madaniyati ibtidoiy jamiyat tizimining yemirilishi ostonasida “yangi ijtimoiy formatsiya – quldorlik tizimga o'tish bosqichi” yuzaga keladi, degan xulosaga kelgan. Biroq Oqchadaryo havzasidagi ekin dalalari maydoniga tegishli ko'rsatkichlar va tomorqalarga ishlov berish hajmi, sun'iy sug'oriladigan yerlardan qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish darajasi va boshqa omillar (aholining umumiy soni va hududiy joylashuvining zichligi) M.A. Itinaning xulosalariga asos bo'lib xizmat qilmaydi.

Janubiy Uraldagi Andronovo madaniyati qabilalari chorvachilik bilan shug'ullanganlar, daryo o'zanlarida vaqti-vaqti bilan hosil beradigan zax yerlarda olib borilgan qayir (liman) ziroatchiligi ular hayotida yordamchi vazifani bajargan¹³⁵.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Tozabog'yob madaniyati manzilgohlarida topilgan uy hayvonlari suyaklaridan 60 tasi qoramol, 349 tasi mayda chorva, 17 tasi ot, 2 tasi tuya suyaklaridir. Amirobod davri uy hayvonlarining suyaklari foiz jihatidan – 28,5 qoramollar, 50 – mayda chorva, 18,5 foizi ot suyaklarini tashkil etadi. O'rta Osiyoning janubida tuyachilik (mil.avv. 3-ming yillikning ikkinchi yarmi) va yilqichlik (mil. avv. 2-ming yillik) qishloq xo'jaligining alohida sohalari sifatida rivojlanadi¹³⁶.

Oila va jamiyat tizimi, ijtimoiy munosabatlar jarayonlarini o'rganishda uy-joylar va yodgorliklarda topilgan arxeologik materiallar muhim ahamiyatga ega. Xorazm vohasida kulbasimon yarim yerto'lalar va yengil chaylalar mahalliy uy-

¹³⁴ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 75.


¹³⁵ Сальников К.В. Очерки древней истории Южного Урала. –М.: 1967. – С. 148-149.

¹³⁶Ермолова Н.М. Остатки млекопитающих эпохи бронзы из городища Алтын-депе // Новые археологические открытия в Туркменистане. – Ашхабад.: 1982. – С. 148-149.

joylarning asosiy shakli bo'lib xizmat qilgan, ya'ni dasht chorvador qabilalariga mansub uy-joylardan foydalanish odati saqlangan.

XX asrning 70-yillarida V.M. Masson ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganishda arxeologik ma'lumotlardan foydalanishning nazariy-uslubiy ahamiyati masalasini tahlil qilib¹³⁷ tabiiy va ijtimoiy omillarning binokorlikdagi aksini quyidagi jadvalda tasvirlagan:

Tabiiy va ijtimoiy belgilarning binokorlikda aks ettirilishi



Bizningcha, ushbu jadval ma'lumotlaridan foydalanishda barcha omillarni (ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik) bir-biri bilan bog'lash maqsadga muvofiq bo'lardi, uy-joyning katta-kichikligi ko'p hollarda rejani amalga oshirishdan (umuman, rejalashtirish jarayonidan) kelib chiqadi.

Xorazm vohasida ham bronza davrida uy-joylarning qurilishi xususiyatlariga ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar ta'sir qilgan. Uy-joylarning funktsiyalari, xo'jalik shakllari, aholining turmush tarzi (o'troq, yarim o'troq, ko'chmanchi) va tabiiy muhit bilan bog'liq bo'lib, uy-joylarning katta-kichikligi oila a'zolari soni bilan belgilangan.

¹³⁷Массон В.М. Экономика и социальный строй древних обществ (в свете данных археологии). – Л.: Наука, 1976. – С. 111.

V.M.Masson, G.N.Lisitsyna va A.A.Asqarovning fikrlariga ko'ra, neolit, eneolit va bronza davri oila tarkibini o'rtacha 4-5-6 kishi bilan belgilash mumkin¹³⁸.

Janubiy Orolbo'yi bronza davri katta oila tarkibi 35-40 kishidan iborat bo'lganligi to'g'risida bildirilgan fikrlar biroz bahslidir. Qadimiy davrlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va hayot darajasini inobatga olgan holda, katta oila 3-4 kichik oiladan iborat bo'lishi mumkin edi. Amirobod madaniyati Yakkaporson 2 yodgorligida o'rganilgan uy-joylarda ham katta oilalardan iborat alohida urug' jamoalari vakillari istiqomat qilgan. M.A.Itina tomonidan taxmin qilingan 500-550 kishidan iborat aholining umumiy sonini inobatga olganda, Yakkaporson qabila markaziga o'xshab ketadi. Aholi soniga tegishli yuqorida keltirilgan miqdoriy ko'rsatkichlar ma'lum darajada nisbiydir. Maydoni o'lchamlari bo'yicha Yakkaporson makonidan nisbatan katta, eneolit davriga oid Geoksur 1 manzilgohida (Janubiy Turkmaniston, Kopetdog'oldi) o'rtacha 1700-2400 kishi istiqomat qilgan, deb hisoblanadi.

Tozabog'yob va Amirobod madaniyatlari rivojlangan bosqichlarda bir necha kichik oilalardan iborat katta patriarxal oilalar alohida yarim yerto'lali uy-joylar, xususiy mulk, tomorqa, chorva, oziq-ovqat zaxiralari va ishlab chiqarish qurollarga ega bo'lganlar. Etnografiya ma'lumotlari bilan solishtirilgan holda, bunday oilalar ibtidoiy jamiyatning urug'chilik an'analarini davom ettirgan. Ularni umumiy mehnat, oila farovonligi uchun hamma barobar ishlashi qonuniyati, umumiy mulk, mehnat qurollari va oziq-ovqat zaxiralari, umumiy uy-joy va turmush tarzi birlashtirgan¹³⁹. Shu bilan birga, Xorazm vohasida o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bronza davri katta oila jamoalarining vujudga kelganini ta'kidlab o'tish lozim.

“Avesto” ma'lumotlariga ko'ra, katta oilani uy egasi – katta yoshdagi ota boshqarib turgan, bunday oilalar urug' jamoasiga birlashgan, urug' oqsoqoli “urug'

¹³⁸Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. – М., 1971. – № 183. – С. 101; Лисицына Г.Н. Становление и развитие орошаемого земледелия... –С. 69; Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы... С. 150.

¹³⁹ Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Т.: Akademiya, 2009. – Б. 83.

egasi”, “vispati” deb atalgan¹⁴⁰. Janubiy Orolbo’yi bronza davri katta oila jamoalarining ijtimoiy munosabatlari urug’chilik tuzumi xususiyatlari bilan belgilanishini yana bir bor qayd etib o’tish o’rinlidir. Qadimgi jamoalar vakillari o’z ichki va tashqi munosabatlaridan kelib chiqadigan muammolarini yechish maqsadida birlashishga intilganlarini taxmin qilish mumkin. Jamoaning ichki munosabatlarini nazorat qilish va tartibga solish katta oilalar boshliqlari va urug’ oqsoqollarining vazifasiga aylangan. Xo’jalik ishlarini amalga oshirish tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga asoslangan¹⁴¹.

Qadimgi jamiyat tizimi va ijtimoiy munosabatlar muammolarini arxeologik ma’lumotlarga asoslanib o’rganish o’ta murakkab vazifadir. Lekin yozma manbalarning yo’qligi bu yondashuvdan foydalanishni taqozo etadi. Mavjud ma’lumotlar quyidagi fikrlarni bildirishga tayanch bo’ladi:

- Xorazm vohasi bronza davri makonlari mudofaa devorlari bilan o’ralmagan. Bunday holat tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniş zaruriyati darajasi yuqori bo’lmaganligini ko’rsatadi;
- e’tiqod va urf-odatlarini bajarish bilan bog’liq jamoatchilik inshootlari va ibodatxonalar topilmagan;
- o’rganilgan qadimgi qabrlar oddiy chuqurlardan iborat bo’lib, ular ichidan olingan dafn buyumlari, ijtimoiy tenglik haqida xulosa chiqarishga asos bo’ladi;
- qishloq xo’jalik mahsulotlari, oziq-ovqat zaxiralarini saqlashga mo’ljallangan maxsus inshootlar topilmagan;
- xonaki hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi, asosan, urug’ jamoalarining ichki ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan.

Ma’lumki, turli mintaqalarda ortiqcha mahsulotning paydo bo’lishiga ishlab chiqaruvchi xo’jaliklar, mis va bronza metallurgiyasining vujudga kelishi sabab bo’lgan¹⁴². Bizningcha, Janubiy Orolbo’yida bronza davri ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi yuqori darajaga ega bo’lmagani sababli, mahalliy katta

¹⁴⁰Массон В.М. К вопросу об общественном строе древней Средней Азии // История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 92-93.

¹⁴¹Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Т.: Академија, 2009. – Б. 85-86.

¹⁴²Первобытное общество. Основные проблемы развития. –М.: Наука, 1975. – С. 88.

oilalar va urug'-jamoalarining qishloq xo'jalik mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlarini orttirishlari uchun qulay vaziyat yaratilmagan. Bu borada bronza davri tarixiga oid ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qabilalarning notekis rivojlanishi holatini yana bir bor qayd etib o'tish lozim.

So'nggi yillarda, O'rta Osiyoda iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy boshqaruvning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayonlarining o'rganilishi masalasi O'.I.Abdullaev tomonidan ko'rib chiqilgan. Tadqiqotchi tarixiy adabiyotlar, etnografiya va arxeologiya ma'lumotlariga tayanib, o'zlashtiruvchi va ishlab chiqaruvchi xo'jaliklarga asoslangan ibtidoiy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining o'rganilishi natijalarini keng tahlil qilgan. Adabiyotlarda mavjud yondashuvlar va ilmiy qarashlarni inobatga olib, Xorazm vohasi bronza davri tarixida urug'chilik tizimining an'analari va urf-odatlar ustunlik qilgani tufayli, ibtidoiy jamiyat talablariga asoslangan ijtimoiy boshqaruv rivojlangan, deb taxmin qilish mumkin. Jamiyat hayoti va ijtimoiy boshqaruv tartibida katta oilalar boshliqlari va urug' oqsoqollari muhim tashkiliy ishlarni amalga oshirganlar. Qadimgi jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabi vazifalar hamda jamoalardagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish va munozarali masalalarni hal qilish hayotiy dolzarb zaruriyat bo'lib kelgan¹⁴³.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mil. avv. VII asrga qadar Xorazm vohasi aholisiga xos urug'chilik jamiyatida muayyan lavozimni egallab turgan va boshqaruv funksiyalarini bajargan shaxslar hamda maxsus ommaviy hokimiyat ma'lum bo'lmagan. Jamiyatda jamoa a'zolarining hayotiy zarur manfaatlarini amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiy boshqaruv ustunlik qilgan. Eng muhim masalalar urug' vakillarining umumiy yig'ilishida hal etilgan. Urug' boshliqlari va qabila yo'l boshchilari katta oilalar va urug' jamoalarining vakillari yig'inida saylangan.

¹⁴³ Сагдуллаев А. Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Т.: Akademiya, 2006. – Б. 34-35.

Urug'-qabila tizimida yo'lboshchilarning saralanishi ularning shaxsiy axloqiy xislatlari va amaliy bilimlari bilan bog'liq bo'lgan. Tadqiqotchilar (S.P.Tolstov, M.A.Itina) tomonidan ilgari surilgan, mil. avv. IX–VIII asrlar Xorazm vohasi tarixida “yangi ijtimoiy formatsiya–quldorlik tuzumiga o'tish bosqichi”, degan g'oya o'z tasdig'ini topmadi. Shuningdek, Xorazm vohasida paxsa-xom g'isht binokorligi usullari va me'morchiligining vujudga kelishi masalasiga qisqacha ta'rif berish lozim.

Xorazmda paxsa va xom g'isht binokorligi usullari hamda me'morchilikning vujudga kelishi masalasi ilmiy adabiyotlarda bahs-munozaralarga aylangan. O'rta Osiyo janubiy viloyatlariga nisbatan Xorazm vohasida paxsa va xom g'isht binokorligi ancha kech vujudga kelishining sabablari neolit davrida boshlangan qadimgi qabilalarning iqtisodiy va madaniy jixatdan notekis rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Vohada paxsa-xom g'isht me'morchiligining taraqqiy topishi chuqur mahalliy ildizlarga ega binokorlikning tadrijiy rivojlanishi natijasi bo'lmagan va tashqi migratsiyalar Marg'iyona-Baqtriya aholisining ilk temir davrida Xorazmga ko'chib kelishi - migratsiyasi oqibatida yuzaga kelgan¹⁴⁴.

Mil. avv. VII asrda Quyi Amudaryoning so'l sohili yerlarida (Dovdon o'zani) Quysisoy, ilk saklarning madaniyati va mil. avv. VI asrga kelib, Ko'zaliqir madaniyati rivojlanadi.

Quysisoy 2 manzilgohi Amirobod aholi maskanlari singari mudofaa devorlari bilan o'ralmagan, uy-joylar (yerto'lalar va kulbalar) tarqoq holda joylashgan bo'lib, quysisoyliklar muayyan me'morchilik rejasiga amal qilmaganlar¹⁴⁵. Quysisoy 2 atrofida sun'iy sug'orish inshootlari topilmagan. Mazkur voqea quysisoyliklar qayir yoki lalmikor ziroatchilik bilan shug'ullanganlar, deb yozishga asos bo'ldi.

¹⁴⁴Ушбу масаланинг тарихшунослиги ва ёритилишининг ҳлатига тегишли қаранг: Сағдуллаев А.С., Матякубов Х. К проблеме происхождения глинобитно-сырцово́й архитектуры в Хорезме // Вестник Национального Университета Узбекистана. – Ташкент, 2013. Специальный выпуск. – С. 59-64.

¹⁴⁵ Вайнберг Б.И. Куюсайская культура раннего железного века в Присарыкамышской дельте Амударьи // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1975. – С.43.

Yodgorliklarda topilgan uy hayvonlarining suyaklariga ko'ra, quyisoyliklar qoramol va mayda chorva boqqanlar, yilqichilik va tuyachilik bilan shug'ullanganlar¹⁴⁶.

Arxeologik qazish ishlari paytida Sakarchaga mozor-qo'rg'onlaridan olingan uy hayvonlari suyaklari ham Sariqamishbo'yi hududlarida qoramol boqish va yilqichilikning ustunlik qilganligini ko'rsatadi.

Quyisoy 2 va Sakarchaga yodgorliklarida topilgan sopol idishlar, bronza va temirdan ishlangan buyumlar o'xshashlikka ega bo'lib, umumiy moddiy madaniyat belgilaridan iboratdir. Shu sababli, mil. avv. VII–VI asrlarga oid mahalliy chorvador qabilalar madaniyatini “Sariqamishbo'yi saklar madaniyati”, deb atash taklif qilingan¹⁴⁷. Bizningcha, mazkur madaniyatga xos moddiy ashyolarning Janubiy Xorazm va Quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi Oqchadaryo havzasida (Yakkaporson 14 makoni) aniqlanishini inobatga olib, umuman, Janubiy Orolbo'yi, ya'ni Xorazm vohasi ilk saklarning madaniyati to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Sakarchaga mozor qo'rg'onida temirdan ishlangan ikkita bilaguzuk topilgan. Xuddi shunday bilaguzuk Quyi Sirdaryodagi Uygarak mozor qo'rg'onida bronza va kumushdan yasalgan bilaguzuklar bilan birga topilgan¹⁴⁸.

Ilk temir davri Xorazm vohasida murakkab etnik jarayonlar sodir bo'lib, turli qabilalarning yoyilishi bilan izohlanadi. Antropologik tadqiqotlarga ko'ra, bronza davrida Janubiy Orolbo'yi hududlarida yevropeoid irqi Andronovo madaniyatiga oid qabilalar yashagan bo'lsa, mil. avv. VII–VI asrlarda, saklar qabrlaridan olingan marhumlarning bosh suyaklari tahliliga ko'ra, yevropeoid qiyofali va mo'g'ul – “mongoloid” irqiga mansub odamlar antropologik belgilarining qo'shilishi kuzatiladi¹⁴⁹.

¹⁴⁶ Вайнберг Б.И. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. Тр. ХАЭЭ. – М., 1979. Т. IX. – С. 23.

¹⁴⁷ Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). –М.: Институт археологии РАН, 1996. – С. 82.

¹⁴⁸ Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII–VI вв. до н. э. // Тр. ХАЭЭ. – М., 1973. Т. VIII. – С. 81.

¹⁴⁹ Трофимова Т.А. Приаральские саки (Краниологический очерк) // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 234.

Ko'zaliqir madaniyatiga oid qabrlar topilmagan. SHu sababli bu madaniyatni yaratgan odamlarning antropologik qiyofasini aniqlash mushkuldir. Ko'zaliqir mahalliy Amirobod, Quysisoy va saklar madaniyatlaridan keskin farqlanib, Xorazmda ko'pdan-ko'p asrlar mobaynida ma'lum bo'lmagan madaniy an'analarning yoyilishi va rivojlanishi bilan izohlanadi. Ushbu an'analarning asosiy belgilari madaniy yangiliklar sifatida, mazkur tadqiqotning oldingi paragrafida ta'riflandi.

Ko'zaliqir madaniyatining mazmun-mohiyati va mil. avv. VI asrda Xorazmda yuzaga kelgan tarixiy jarayonlarning xususiyatlari O.A.Vishnevskaya va Yu.A.Rapoport tomonidan ko'rib chiqilgan¹⁵⁰.

Qadimgi xorazmliklar elati turli etnik guruhlar (quysisoyliklar, baqtriyaliklar, saklar va boshqalar) assimilyatsiyasi – qorishishi natijasida shakllangan. Yozma manbalarda hamda dostonlarda o'z aksini topgan, Balx va Marvda, ya'ni Baqtriya va Marg'iyonada yashagan janubiy Xorasmiylar – xorazmliklarga tegishli hikoyalar¹⁵¹, aslida Quyi Amudaryo yerlarida mahalliy aholi bilan qorishib ketgan va xorazmliklar elati tarkibini tashkil qilgan baqtriyaliklar va marg'iyonaliklarning janubiy yurti, vatani haqidagi tarixiy xotiradan kelib chiqqan.

Ilk temir davri Xorazm vohasi ijtimoiy tuzilishini "Avesto" ma'lumotlari bilan solishtirgan holda, quyidagi to'rt qismga bo'lish mumkin: oila, urug', qabila, qabilalar ittifoqi ("nmana", "vis", "zantu", "dahiyu"). Turli tadqiqotlarda Xorazmning qadimgi ijtimoiy tarkibini "Avesto" jamiyati bilan qiyoslash muhim ahamiyat kasb etgan¹⁵². Mavjud arxeologik ma'lumotlar jamiyatning turli guruhlarga va toifalarga bo'linganligidan guvohlik beradi. Quysisoy va Ko'zaliqir madaniyati belgilariga ko'ra, mil. avv. VII–VI asrlarga oid Xorazm vohasi ijtimoiy tizimini chorvadorlar-ziroatchilar jamiyati sifatida ta'riflash mumkin.

¹⁵⁰ Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ. – М., 1997. – № 2. – С. 150-173.

¹⁵¹ Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984. – С. 136.

¹⁵² Собиров Қ, Абдиримов Р. Авесто жамиятида Хоразм воҳси: шаҳарсозлик ва давлатчилик негизлари // "Авесто" китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи. – Т., 2000. – Б. 54-57; Ягодин В.Н. Древнейшая государственность и проблема «Большого Хорезма» (2 цикл) // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2007. – № 2. – С. 73-74.

O'z paytida S.P.Tolstov tomonidan mil. avv. VIII–VII asrlarda “Xorazmning buyuk irrigatsiya tarmog'i bunyod etiladi”, degan xulosa chiqarilgan edi¹⁵³. Ammo yuqorida qayd etilgan asrlarga oid yirik sug'orish inshootlarining qoldiqlari Janubiy Xorazmda va Sariqamishbo'yi Dovdon o'zani havzasida hozirgi kunga qadar topilmaganligi holatiga ilmiy adabiyotlarda e'tibor qaratilgan va bunday sug'orish inshootlari Xorazmda mil. avv. VI asrning so'nggi choragida paydo bo'lgan, deb fikr bildirilgan¹⁵⁴.

Xorazm vohasida ilk temir davri madaniy taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar muammolarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda Janubiy va Sharqiy Orolbo'yi keng hududlarida chorva qadimgi jamoalarning asosiy boyligiga aylangan.

2. Ilgari chop etilgan adabiyotlardan o'rin olgan Xorazm vohasida ilk temir davri boshlanishidan yirik sun'iy sug'orish inshootlarining vujudga kelishi va dehqonchilikning yetakchi xo'jalik shakliga aylanishi haqidagi ilmiy farazlar o'z isbotini topmadi.

3. Yuqori mahsuldor chorvachilik jamoa a'zolarini, ziroatchilikka nisbatan, tez sur'atda oziq-ovqat va xom ashyo mahsulotlari bilan ta'minlash hamda ulardan ayirboshlashda foydalanishga qulay imkoniyatlar yaratgan. Bu oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, jun, teri va charmdan ehtiyojlarni qondirish jarayonida muhim, hayotiy zarur omil bo'lgan.

4. Xorazmda bronza va ilk temir davri dehqonchilikning rivojlanishi Oqchadaryo va Dovdon o'zanlarining yon irmoqlaridagi suv sathining goh pasayib, goh ko'tarilib turishiga bog'liq bo'lgan. Amudaryoning asosiy o'zanidan kanallarga suv chiqarish ishlarini amalga oshirish uchun mazkur davrlarning ziroatchilarida kerakli bilimlar va tajriba bo'lmagan. Shuning uchun ham, bronza davridan boshlab, Janubiy Orolbo'yi hududlarida kichik sug'orish inshootlariga

¹⁵³ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948. – С. 341.

¹⁵⁴ Аскарлов А. Новые подходы к изучению истории древнего Хорезма // O'zbekiston tarixi. – 2007. – № 4. – С. 14.

asoslangan dehqonchilik taraqqiy topgan chorvachilik va ziroatchilik chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turgan.

5. Mil. avv. VII–VI asrlarda Xorazm vohasida murakkab etnik jarayonlar sodir bo'lib, bu voha hududlarida turli etnik guruhlarining yoyilishi bilan izohlanadi.

III – BOB. ANTIK DAVR MADANIY – XO`JALIK MARKAZLARINING JOYLASHISHI VA KARTOGRAFIYASI.

3.1. Antik davr madaniy – xo`jalik markazlarining joylashishi xususiyatlari.

XX asrning 30-yillari o`rtalariga qadar Xorazm vohasida antik davrga oid tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlari olib borilmasdan asosan yodgorliklarning o`rta asr madaniy qatlamlari o`rganilgan xolos (Mizdahqan, Zamaxshar, Ko`hna Urganch). Xorazm vohasi hududidagi arxeologik obidalarni ilmiy jihatdan ro`yxatga olish, ularni memoriy – topografik tuzilishi va rejalashtirilishini tasvirlab Xorazm arxeologiya xaritasiga joylashtirish ishini A. I. Terenojkin boshlab berdi. 1937-yil A.I. Terenojkin Amudaryoning o`ng sohilida Beruniy va To`rtko`l tumanlari hududida arxeologik qidiruv ishlarini Yonboshqal`a, Pilqal`a, Qizilqal`alarning antik davrga oid ekanligini aniqlab Teshikqal`a, Norinjon va Bo`rgutqal`ada olib borib, o`rta asrga oid madaniy qatlamlarni o`rgandi¹⁵⁵. 1937-1940-yillarda S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspeditsiya xodimlarining Xorazm vohasidagi tarixiy obidalarni ro`yxatga olish va ularda arxeologik tadqiqotlar olib borishi natijasida 400 dan ziyod arxeologik yodgorliklar ro`yxatga olinib, arxeologik xaritaga joylashtirildi. Afsuski, Sho`rolar hokimiyatining paxtachilikni rivojlantirish sohasidagi siyosati natijasida yangi yerlarning o`zlashtirilishi natijasida bu esa ko`p sonli tarixiy obidalarning yo`q qilinishiga olib keldi. Xorazm vohasida antik davr shahar va qishloqlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida to`plangan va olingan yangi ashyolarning asosida qishloq va shaharlarning mudofaa inshootlarini o`rganilish tarixini arxeologik ashyolar asosida ko`rib chiqamiz.

Arxeologik ashyolar va yozma manbalardagi ma`lumotlar mil.av.IV-milodiy III asrlarga kelib, Xorazm vohasi ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jixatidan yuksak darajada rivojlanish davri bo`lgan. Ishlab chiqarish kuchlarining

¹⁵⁵ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. М.: Наука. 1940, -С .165-216.

taraqqiyoti yangi hududlarni qamrab olishi natijasida dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Bu tarixiy davrda quyidagi o'zgarishlarni kuzatish mumkin¹⁵⁶.

I. Siyosiy sohada:

- 1.Siyosiy birlashmaning mavjudligi;
- 2.Tarixiy-siyosiy vaziyat barqarorligi;
- 3.Manfaatlari bir-biriga zid bo'lgan kuchlar mavjudligi tufayli jamiyat mazmunining belgilanishi.

II.Iqtisodiy sohada:

- 1.Ishlab chiqarish kuchlarini yanada taraqqiy etishi;
- 2.Yangi yerlarning o'zlashtirilishi;
- 3.Xilma-xil o'zoq muddatga chidamli mexnat qurollarining xo'jalikda keng qo'llanilishining davom etishi;
- 4.Mexnat unumdorligini oshishi, oziq –ovqat maxsulotlari zaxirasini yanada ko'payishi, uning ma'lum hududga markazlashishi;
- 5.Hunarmandchilik sohasida turli bilimlarning taraqqiyoti.

III.Madaniy sohada:

- 1.Mahalliy Xorazmiy yozuvini kashf etilishi;
- 2.Haykaltaroshlik, tasviriy san'at va mozaika bilimlarining taraqqiyoti;
- 3.Ibodatxonalarning paydo bo'lishi.

IV.Me'moriy- topagrafik va qurilish sohasida:

- 1.Puxta ishlangan rejalashtirish uslubi mavjudligi;
- 2.Yirik shahar va qishloqlarning qurilishi;
- 3.Xorazm mudofaa maktabining takomillashishi.

V.Harbiy sohada:

- 1.O'troq aholi va chorvador qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi;
- 2.Shahar va qishloqlarning mudofaa devor bilan o'rab olinishi;
- 3.Harbiy bilimlarning takomillashishi;
- 4.Qurol-aslaxa va harbiy texnikaning takomillashishi;

¹⁵⁶ Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. -Т.: Янги аср авлоди. 2012, -Б.23-24.

5. Harbiy -texnika va strategiya bilimlarining ravnaqi;

6. Qo'shni hududlardan o'troq dehqonchilik vohalariga harbiy xavfning kuchayishi;

Mil.avv.IV asrga kelib, Amudaryoning o'ng va so'l sohilidagi hududlarda ko'p sonli shaharlarning va kichik hajmdagi qishloqlarning qurilishi amalga oshirilgan. Yuksak darajada mudofaa tizimiga ega bo'lgan shahar va qishloqlar qurilishi siyosiy birlashmaning mavjudligi, uning qurilish sohasida faoliyatini belgilab beradi. Bu hududda shahar madaniyatining ravnaqiga unumdor dehqonchilik dalalarini suv bilan ta'minlanishining yaxshilanishi sabab bo'lgan. Amudaryoning o'ng sohilida mil.av. IV asrga kelib qal'alarning jadal paydo bo'lishi kuzatiladi¹⁵⁷. Ko'pchilik hollarda to'g'riburchak, ba'zan kvadrat yoki aylana shaklda amalga oshirilgan. Antik davrda qurilgan qal'alar sug'orma dehqonchilikning madaniy xo'jalik markazlarining, shahar-davlatlarining markazlari bo'lib, ular o'z xo'jalik faoliyatini mustaqil olib borganlar. Har-bir shahar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-diniy va qurilish sohasida mustaqil tadbirlar olib borgan. Qal'alar o'zining me'moriy tuzilishi, mudofaa tizimi, qurilish uslubining bajarilishi jihatidan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasini, aholining ma'naviy -ma'rifiy dunyoqarashi yuksak saviyada ekanligini namoyon etgan. Bu tarixiy davrda qishloq va shaharlarning rejalashtirilishi turli xo'jalik bilimlarini o'zida aks ettirib, tarixiy taraqqiyotga mos bo'lgan. Antik davrda qal'alar va qishloqlar avvaldan puxta o'ylab ishlab chiqilgan reja asosida qurilgan (tabiiy sharoit, geografik muhit va boshqa omillar hisobga olingan). Avvaldan puxta o'ylanib ishlab chiqilgan rejalashtirish Jonbosqa'la, Tuproqqa'la, Qo'rg'oshinqal'a, Bozorqal'a, Hazorasp, Katqal'a, shaharlarida namoyon bo'lgan. Jonbosqal'aning rejalashtirilishi antik davr me'moriy topografik bilimni yorqin tasvirlaydi. Bu qal'ada darvozadan to'g'ri yo'nalgan keng ko'cha shahar ichki tuzilishini ikki qismga ajratgan. Keng ko'chalar uning ikki yon tomoni bo'ylab, tor ko'cha ketgan va ular mahallalarni bir-biridan ajratgan. Qal'a qurilish tarhida bronza davrining rejalashtirish uslubining ta'siri katta bo'lgan. Qal'a

¹⁵⁷ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. –Т.: 1964. –Б. 127-128; 172; 371.

devori burjga ega emas, lekin shaxmat uslubda joylashgan shinaklarga ega. Shaharda yagona darvoza mavjud bo'lib, bir necha aylanma yo'lakka ega bo'lgan to'g'riburchakli murakkab inshootga ega. Puxta ishlangan rejalashtirish, murakkab darvozaoldi inshooti, ikki qatorli shinak va handakka qarab xulosa qiladigan bo'lsak shahar uzoq muddatli mudofaaga moslab qurilgan. Shaharda ark va uning devorida burjlarning mavjud emasligi mudofaani kuchsizlantirgan. Jonbosqal'a hajmi jihatdan katta bo'lmay (3,5 ga), agar umumiy maydonning 70% ida aholi yashagan bo'lsa, 1 ga maydonga 200 kishi to'g'ri kelgan taqdirda bu yerda hammasi bo'lib, 1400 kishi istiqomat qilgan. Shahar aholisining barchasi mudofaada qatnashgan. Darhaqiqat, ko'p sonli shinaklar mavjudligi ancha miqdordagi himoyachilarni talab qiladi, ammo oz sonli himoyachilar uzoq muddatli himoyani olib borolmaydi. Ya.G'.G'ulomov Jonbosqal'a mudofaasida qo'shni hududlar aholisi ham qatnashgan degan fikrni ilgari suradi, biz ham shu fikrni qo'llab quvvatlaymiz. Jonbosqal'aning hajmi kichik, aholi soni kamligini nazarga olsak, bu maskan qishloq shaklidagi aholi istiqomat qiladigan uy-joydir. Lekin uning mudofa tizimi ancha mukammal. Shahar ko'chmanchilar bilan chegarada joylashib, harbiy chegara punkti vazifasini bajargan. Qo'yqirilganqal'a me'moriy va harbiy jihatdan mudofaa xarakterida bo'lib, bu yerda istiqomat qilgan aholi osmon jismlarini kuzatish ishlarini olib borayotgan munajjimlarni ko'chmanchilar hujumidan himoya qilgan. Markazda ikki qavatli aylana shakldagi inshoot mavjud bo'lib, qal'aning me'moriy tarxi va qurilish jixatidan o'ziga xos xususiyatini tasvirlaydi. Qal'adan juda ko'p ostodonlar topilib, Zardushtiylar tomonidan ulug'langan joyga aylangan. Qal'a kichik hajmda bo'lsa xam, takomillashgan, harbiy-me'moriy tomondan to'la javob beradigan mudofaa tizimga ega. Devor yarim aylana va nayza o'qi uchli shinaklarga, darvoza esa murakkab inshootga ega. Qal'aning me'moriy rejalashtirilishi, qurilishi va harbiy jihatdan to'la mukammal bo'lib, shu davrning mudofaa tizimi elementlarini o'zida mujassamlantirgan. Amudaryoning so'l soxilida esa mil.av.IV asrda Xiva , Tuproqqal'a (Xiva), Tuproqqal'a (Yangiariq), Tuproqqal'a (Shovot) , Katqal'a(Shovot), Voyangan, Ko'hnaqal'a, Qalajiq, Xazorasp,Oлмаотishgan-1,

Darg'on, Davkasgan, Mizdaxqon, Balandi-1, Sadvar, Kaparas, Zamaxshar. Shohsanam mavjud bo'lgan.

Mil.av.IV milodiy I asrlarda Xorazm Qanqa nomi bilan ma'lum bo'lgan. Mil.av.II asrga oid Xitoy yozma manbalarida Kanguy nomi bilan ma'lum. Mil.av.V asr oxirida Xorazm mustaqil davlat sifatida mavjud bo'ldi. Mir.av.I asrning boshlarida Xorazm podsholari o'z tangalarini chiqarishni boshlagan. Milodiy II asr oxiri-III asr boshlarida Xorazm podshosi Arsamux-1 Afrig'iylar sulolasini boshlab beradi. Vazamar davrida Xorazmning poytaxti Beruniy tumanidagi Aqshaxan qal'asi doimiy poytaxti, Tuproqqa'la yozgi qarorgoxi bo'lgan. Ba'zi qal'alar Xorazm vohasining harbiy chegara punktlari bo'lgan. Amudaryoning o'ng sohilida: Katta Guldursun, Qizilqal'a, Ayozqal'a I, Gaurqal'a, Qublondiqal'a, Qo'yukqal'a. Amudaryoning so'l sohilida: Xiva, Qalajiq, Xazorasp, Voyangan, Zamaxshar, Shohsanam, Davkasgan, Darg'on, Sadvar, Jigarband kabi mustahkam qala mavjud bo'lgan¹⁵⁸.

Mil.av.IV milodiy II asrdalarda Amudaryoning o'ng va so'l sohilidagi shaharlarda madaniy hayot ravnaq topdi. Hunarmandchilik, savdo-sotiq o'sdi, qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar keng suratda taraqqiy etdi. Shu bilan birga, milodiy I-II asrlarga kelib ba'zi shaharlarning mudofaa tizimida keng suratda ta'mir ishlari olib borildi. Masalan, Katta Guldursun, Qizilqal'a, Ayozqal'a I, Gaurqal'a, Qublondiqal'a, Qo'yukqal'a. Amudaryoning so'l sohilida: Xiva, Qalajiq, Xazorasp, Voyangan, Zamaxshar, Shohsanam, Davkasgan, Darg'on, Sadvar, Jigarband. Ba'zi shaharlarda madaniy hayot ichki va tashqi qismlarida taraqqiy etdi. Shahar hududini kengayishi ro'y berdi. (Xiva, Xazorasp, Voyangan, Davkasgan, Darg'on, Qatqal'a, Sho'raxon, To'qqal'a). Amudaryoning o'ng va so'l sohilida shaharlarning qurilishi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, qishloq xo'jalik maxsulotlarining ko'payishi, yirik sug'orish kanallarining mavjudligi markazlashgan davlatning faoliyati bilan bog'liq. Amudaryoning o'ng sohilida Amirobod, Kaltaminor, Amudaryoning so'l sohilida esa Chamanyop, Gavxari, Daryoliq, Daudan, Xazorasp, Povonyop, Savkan

¹⁵⁸ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофа иншоотлари. -Т.: Ўзбекистон. 2007, - Б. 68-69.

sug'orish kanallari dehqonchilik vohalarini suv bilan ta'minlib to'rgan. Milodning I-II asrlarida Xorazm vohasida yangi shaharlarni qurilishi amalga oshirilgan(Qo'rg'oshinqal'a, Qizilkal'a,Oлмаотishgan –II, Ayozaal'a-III). Bu qal'alar ham takomillashgan madofaa tazimiga ega bo'lgan¹⁵⁹.

Bu tarixiy davrda Xorazm qal'alarining umumiy tuzilishida to'g'riburchakli rejalashtirilishi hukmron edi.Kvadrat, aylana, uchburchak holdagi rejalashtirilish keng tarqalgan. Shaharlarda aholining ko'pchilik qismi istiqomat qilgan, ba'zi qal'alarda faqat harbiy qismlar bo'lgan, (Katta Guldursun, Qizilqal'a, Qalajiq, Ayozaal'a-1), ba'zilar diniy markaz bo'lgan (Tuproqqal'a (Shovot), Chirpiq). Xorazm qal'alarida ikki qatorli mudofaa devor bilan o'rab olinib, ularning saqlanib qolinishi turlicha bo'lib, 1.5sm-14m. Devorlar dastlab paxsadan, keyin to'rt tomoni teng g'ishtdan tiklangan.Ularning mudofaa devorlari 4-5 m balandlikda saqlangan bo'lib, uning kengiligi 6-8 m. Xorazm qal'alarining birinchi qurilish davridagi devori shinaklarga ega emas edi. Ikkinchi qurilish davriga kelib, devorlarda to'riburchakli va nayza o'qi uchli shinaklar paydo bo'ldi.Demak, mudofaa devor birinchi qurilish davrida oddiy madofaa vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchi qurilish davrida mudofaa va hujum qilishni tashkil etgan. Bu davrda devor va burjga yopishtirilib, qo'shimcha devorlar qurish keng tus olgan. Bu esa devorni buzadigan mashinalarni yaqinlashishini og'irlashtirgan (Aqshaxan,Oybug'irqal'a, Xazorasp, Tuproqqal'a (Shovot), Tuproqqal'a (Xiva), Qalajiq). Ayrim qal'alarining mudofaa zanjiri asosiy dehqonchilik vohalaridagi aholini ko'chmanchilar hujumidan saqlagan. Xorazm vohasining keng hududini uzun devorlar bilan o'rab olinmasligiga sabab, mahalliy aholining qo'shni qabalalar bilan teng asosda iqtisodiy aloqalari olib borishi sabab bo'lgan. Xorazm shahar va qishloqlarining devor va burjlari turli shakldagi shinaklarga ega bo'lgan,mudofaa devori yarim aylana, to'g'riburchakli, aylana, tuxumsimon, kvadrat burjlar qurish udumi bo'lgan. Ba'zi shaharlari burchaklari aylana, kvadrat, «qaldirg'och dumi» shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Burjning ichki qismida to'g'riburchakli shaklda xona bo'lib unda himoyachilar turgan.

¹⁵⁹ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 45-46

Amudaryoning o'ng sohilidagi to'g'riburchakli qal'alar: Jonbosqal'a, Kattaqirqqizqal'a, Kichikqirqqizqal'a, Qirqqizqal'a, Uyqal'a, Bo'rgutqal'a, Elliqqal'a. Dumanqal'a, Qumbosganqal'a, Tuproqqal'a, Pilqal'a, Ayoqal'a I,III, Qizilqal'a, Qo'rg'oshinqal'alardir. To'rt tomoni teng rejalashtirilgan qal'alar: Anqaqal'a, Bozoqal'a. Aylana yoki trapetsiya shaklida qurilgan qal'alar: Qo'yqirilganqal'a, To'qqal'a.

Amudaryoning so'l sohilidagi to'g'riburchakli qal'alar: Xiva, Voyangan, Tuproqqal'a, Olmaotishgan-II, Darg'on. Sadvar, Kaparas. To'rt tomoni teng rejaga ega bo'lgan qal'alar: Xazorasp, Olmaotishgan, Toshqal'a II. Gaur-II.

Aylana yoki trapetsiya shaklida qurilgan qal'alar: Tuproqqal'a(Shovot). Qalajiq, Katqal'a (Shovot).

Xorazm qal'alrini barchasi xandak bilan o'rab olingan bo'lib, ularning kengligi 10-40 m, chuqurligi 5-10 m. Mil.av. IV milodiy IV asrlarda Xorazm vohasidagi qal'alarning mudofaa tizimi va rejalashtirilishiga qarab ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1 .Katta hajmdagi shaharlar: 70-200 ga

1-guruh: 150-200 ga,

2-guruh: 20-150 ga hajmga,

2 .O'rta hajmdagi shaharlarni ham ikki guruhga ajratish mumkin.

1-guruh: 10-20 ga,

2-guruh: 5-10 ga,

3. Kichik hajmdagi ikki guruhga bo'lish mumkin:

1-guruh: 1-5 ga, .

2-guruh:0,5-1 ga,

Antik davrda Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa tizimining tasvirlanishi quyidagi shaklda bo'lgan¹⁶⁰:

1.To'g'riburchakli, kvadrat rejalashtirish, yo'lakli devor, arkka ega, burj va devorlari to'g'riburchakli va uchi o'tkir shakldagi shinaklarga ega.

¹⁶⁰ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофа иншоотлари. -Т.: Ўзбекистон. 2007, - Б. 69-70.

2.To'g'riburchakli rejalashtirish, ark, burj yo'q, lekin yo'lak, shinak mavjud. Ikki qatorli devor yarim aylana burjga ega, ichki qismida aholi zich joylashgan.

3.Aylana shaklda rejalashtirish, ikki qatorli devor, yarim aylana burjlarga ega. Ark yo'q, ichki qismda aholi zich joylashmagan.

4.Trapetsiya shaklda rejalashtirish, ikki qatoli devor, yarim aylana burjga ega, ark mavjud.

Milodiy IV-V asrlarga kelib Xorazm vohasida avvalgi ravnaq topgan dehqonchilik markazlari inqirozga uchraydi, yirik sug'orish inshootlari tashlandiq holatga, shaharlar esa xarobaga aylanadi.Ayniqsa bu holat Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan yodgorliklarda sezilarli bo'ldi, shunday bo'lsa ham ba'zi shaharlarda qisman madaniy hayot davom etgan (Tuproqqal'a arkida, Qumbosganqal'a, Katta Guldursun, Qirqqizqal'a, Burgutqal'a, Uyqal'a, Qizilqal'a, To'qqal'a, Kuyukqal'a). Amudaryoning so'l sohilidagi shaharlarda madaniy hayot davom etgan(Xazorasp,Voyangan, Darg'on, Jigarband, Sadvar, Zamaxshar, Davkasgan, Shaxrlik, Yarbekir,Katqal'a(Shovot), Olmaotishgan-II)¹⁶¹.

Milodiy IV-Vasrlarda Xorazm jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir qilgan jarayonlar:

1. Tarixiy va siyosiy vaziyatning notinchligi;
2. Uzluksiz urushlar natijasida sug'orish inshootlarining xaroba holga aylanishi natijasida sug'oriladigan dehqonchilik markazlarining keskin qisqarishi;
3. Hunarmandchilik, savdo-sotiq, ishlab chiqarishning keskin kamayishi;
4. Iqtisodiy-madaniy markazlar bo'lgan ko'p sonli shaharlarning inqirozga yuz tutishi;
5. Daryo, kanal sohili va uning oxirgi qismida joylashgan qishloq va shaharlarda madaniy hayot qisman davom etishi;
- 6.Shaharlar qurilishi amalga oshirilmagan, ammo devor va burjlarda ta'mir ishlari olib borilmagan;
7. Shuning natijasida mudofaa tizim avvalgi vazifasini bajarmay qolishi;

¹⁶¹ Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофа иншоотлари. Т.: Ўзбекистон. 2007, -Б. 112.

8.Xorazm mudofaa maktabi inqirozi¹⁶².

Shunday qilib, Xorazm mudofaa inshoti taraqqiyoti mil.av.IV-milodiy II-III asrlar bilan bog'liq bo'lib, yuksak rivojlanish darajasiga o'tgan.Bu tarixiy davrda ko'p sonli yirik sug'orish inshootlari, hajmi katta va kichik shaharlar qurilishi amalga oshirilib,ularning barchasi murakkab mudofaa tuzilishiga ega.Bu tarixiy davrda turli uslubdagi rejalashtirish, mudofaa elementlari namoyon bo'lgan. Bu tarixiy davrlarda Xorazm fortifikatsiyasi takomillashgan bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga, harbiy texnika taraqqiyotiga mos kelgan. Turli shakldagi burj shinaklar puxta o'ylab bajarilgan. Rejalashtirish me'moriy bilimlar, turli mudofaa uslubining namoyon bo'lishi, qadimgi Xorazmliklar mudofaa bilimlarining yuksak darajada taraqqiy ettirishganini isbotlaydi. Shu bilan birga, har bir shahar alohida boshqarish tizimiga ega bo'lib, shahar-davlatlar shaklida faoliyat olib borgan. Katta va kichik hajmdagi shahar va qishloqlardan olingan ashyolar ularda aholining taxminiy sonini aniqlash imkonini beradi. E.E.Nerazik tomonidan e'lon qilingan asarlarda Xorazm antik davr shaharlarida 1 gektarga 200 kishidan to'g'ri kelishini talqin qilgan edi. Mil.av.IV-milodiy III asrgacha Amudaryoning o'ng va so'l sohilaridagi shaharlarda aholi soning o'sishi ko'zatilgan, hududni 70% ni egallagan. Bizningcha shaharlar aholisining miqdori quyidagicha bo'lgan¹⁶³.

Aqshaxan- $55 \text{ ga} \times 70 \% - 38,5 \text{ ga} \times 200 = 7700$ kishi.

Bozorqal'a - $31 \text{ ga} \times 70 \% - 21 \text{ ga} \times 200 = 4200$ kishi.

Tuproqqal'a - $17 \text{ ga} \times 70 \% - 12 \text{ ga} \times 200 = 2400$ kishi.

Eresqal'a- $10 \text{ ga} \times 70 \% - 7 \text{ ga} \times 200 = 1400$ kishi.

Kunauaz- $9 \text{ ga} \times 70 \% - 6 \text{ ga} \times 200 = 1200$ kishi.

Yonboshqal'a- $3,5 \text{ ga} \times 70 \% - 2,5 \text{ ga} \times 200 = 500$ kishi.

Amudaryoning so'l sohilidagi shaharlar aholisining miqdori:

Ko'xna Urganch- $200 \text{ ga} \times 70 \% - 140 \times 200 = 280000$ kishi.

Ichanoqal'a- $26 \text{ ga} \times 70 \% - 18 \text{ ga} \times 200 = 3600$ kishi.

Voyangan- $6 \text{ ga} \times 70 \% - 4,5 \text{ ga} \times 200 = 800$ kishi.

¹⁶² Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 45-46

¹⁶³ Неразик Е.Е. Проблемы исследования Хорезмских городов античного периода- древней город Средней Азии. Л.-Д. 1973. –С. 34-37.

Katqal'a-8 ga x 70%-6 ga x 200 =1200 kishi.

Hazorasp- 10 ga x 70%-7 ga x 200=1400 kishi.

Zamaxshar-10 ga x 70%- 7 ga x200=1400 kishi.

Mizdaxqon- 6ga x70 %- 4 ga x200= 800 kishi.

Katta Guldursun, Gaurqal'a (Sulton Uvays tog'i), Qalajiq, Ayozaqal'a –I, Qizilqal'a. Darg'on, Zamaxshar qal'alari harbiy sohaga mo'ljallangan bo'lib, ularda harbiy askarlar saqlangan. Ko'chmanchi qabilalar xujumi davrida bu qal'alarga atrofdagi zirotchilar ham qo'shilib, mudofaa ishlarini olib borgan. Shu jihatdan, bu qal'alarning doimiy o'troq aholisi sonini aniqlash imkoni mavjud emas.

Shunday qilib, mil.avv. IV–III asrlarda Xorazm vohasi jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-etnik va harbiy yuksak darajada ravnaq topganligini kichik va katta hajmdagi ko'psonli qal'alar isbotlaydi.

3.2. Xorazm ekspeditsiyasi tadqiqotchilari asarlarida antik davr yodgorliklarining kartografiyasi ishlanmalari tahlili.

Xorazm viloyatida antik davr shaharlari tarixi va uning moddiy madaniyati masalasini, topografik jihatdan tuzilishini o'rganish shu kungacha ilmiy jihatdan to'la-to'kis tadqiq qilinmagan muammolardan sanaladi. Bu muammo doirasida, ayniqsa kattaligi jihatdan o'rtacha hajmdagi shahar tiplariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bizga ma'lumki bunday tipdagi shaharlarning moddiy madaniyati, topografik tuzilishi haqida antik davrga oid yozma manbalar yo'q, lekin arxeologik jihatdan ham bu borada hali ko'p ish qilinmagan. To'g'ri, sobiq sho'rolar davrida Xorazm arxeologiya – etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan ancha ishlar qilingan, biroq asosan yirik hajmdagi shaharlarda hamda Hazoraspni¹⁶⁴ hisobga olmaganda, asosan Xorazm viloyatidan tashqaridagi hududlarda tadqiqotlar olib borilgan. Xorazm viloyati hududidagi antik davr yodgorliklarini o'rganishda O'zR FA Qoraqalpoq filiali arxeologiya bo'limi tadqiqotchilarining izlanishlarini alohida qayd qilish lozim. 1973-1974-yillarda- mazkur bo'lim arxeologlari tomonidan Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklarning xaritasini tuzish asnosida antik va o'rta asrlarga oid barcha yodgorliklarda arxeologik qidiruv ishlari olib borildi. Jumladan, 20 ga yaqin antik davr shaharlari va manzilgohlari tadqiq qilindi. Shulardan ba'zilari fanda hali aniqlanmagan yangi yodgorliklar edi (Xumbuztepa, Qirqqiztepa, Tuzlak, Qoratosh, Yakka – chig'ir – I, - II)¹⁶⁵.

1976–1980, 1984–1985, 1987–1991-yillarda Xiva, Voyangan, Shovot Katqal'asi, Shovot Tuproqqal'asi va Xiva Tuproqqal'asida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Bu yodgorliklarni o'rganishda qulayligi uchun asosan mudofaa tizimi bilan bog'liq obyektlar ko'proq tadqiq qilingan¹⁶⁶.

1986–1988-yillarda Shovot Katqal'asini Toshkent madaniy yodgorliklarni koservatsiya va restavratsiya qilish ilmiy tadqiqot va ilmiy-loyihalashtirish instituti

¹⁶⁴ Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг., МХЭ, вып. VI. 1963. -С. 157-200

¹⁶⁵ Мамбетуллаев М. Отчет об археолого-топографических изысканиях на территории Хорезмской области. 1973 г. Нукус 1973. А 3611/М-22. Архив ГлавНПУ, Ташкент.

¹⁶⁶ Мамбетуллаев М., Абдиримов Р. Основные этапы развития города Хивы. ОНУ. 1997, №7–8. -С 3-9.

odimlarining D. Chunixin boshchiligidagi arxeologiya otryadi tomonidan shahar devorlarida va shaharning janubi-sharqiy burchagida izlanishlar olib borilgan ¹⁶⁷.

1991-yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi Tarix va moddiy madaniyat instituti ekspeditsiyasining V.Y. Zavyalov boshchiligidagi a'zolari Qalajiq qal'asining mudofaa devorida tadqiqotlar olib bordilar¹⁶⁸ (Zavyalov, 1991). Ko'rib turganimizdek yuqorida qayd qilingan antik davr shaharlaridagi tadqiqotlar, asosan mudofaa devorlari o'rganilgan stratigrafik shurflar orqali yodgorliklarning xronologik chegarasini aniqlash bilan cheklanilgan. Ularning o'rganilishi jarayonida shaharning antik davrdagi ichki tuzilishini to'la yoritish uchun imkoniyat bo'lmagan. Chunki bu yodgorliklarning asosiy qismida (Xiva, Xazorasp) hozirgi kungacha ham aholi istiqomat qilsa, aksariyatida (Voyangan, Olmaotishgan – I) esa katta qabristonlar mavjud, ba'zilar (Xiva Tuproqqal'asi, Yangiariq Tuproqqalasi) sobiq Sho'rolar tuzumi davrida ekin maydonlarining kengaytirilishi oqibatida yo'q bo'lib ketgan. Hozirgi kunda shahar ichki tuzilishini o'rganish uchun Kat-qal'a, Qalajiq va Olmaotishgan – 2 yodgorliklarida keng qamrovli arxeologik qazish ishlari olib borish imkoniyati juda yaxshi saqlangan. Mustaqillikka erishgach mazkur yodgorliklarda arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi. Ayniqsa, Shovot tumanida joylashgan Katqal'a yodgorligida so'nggi 10 yillik ichida tadqiqotlar deyarli har yili davom etib kelmoqda. 8,5 ga ega bo'lgan trapetsiya shaklidagi bu yodgorlik M. Mambetullayev rahbarligida 1973-1974 - yillarda olib borilgan dastlabki arxeologik qidiruv ishlari natijasidayoq mil. av. IV–III asrlarga taalluqli ekanligi aniqlangan edi¹⁶⁹.

1994, 2002–2009-yillarda Arxeologiya instituti Xorazm mintaqaviy bo'limi va Urganch davlat Universiteti tadqiqotchilari hamkorligida yodgorlikning shimoliy va g'arbiy qismlari mudofaa devorlarining bir qismi o'rganilib, uning qurilish davrlari aniqlandi. Shuningdek qal'aning shimoliy-sharqiy qismida II–III

¹⁶⁷ Чунихин Д.В. Отчет по археологическим исследованиям городища Кят-кала в Шаватском районе Хорезмской области в 1987 г. Т.: 1988. Архив Института археологии АН РУз.

¹⁶⁸ Завьялов В.Я. Отчет о работах Багатской экспедиции ИИМК РАН в крепости Каладжик в 1991 г. А 9351/3-13. Архив ГлавНПУ, Т.: 1991, -С.86.

¹⁶⁹ Мамбетуллаев М. Городище Кят (левобережный) и Зарлыкишан-бобо // Археологические исследования в Каракалпакии. Т.: 1981. -С. 65-73.


asrlarga mansub uy xonalari ¹⁷⁰ hamda markaziy qismida XII–XIII asrlarda barpo etilgan va XVII asr – XX asr boshlarigacha qaytadan ikkinchi marta foydalanilgan masjid qoldiqlari topildi. Lekin shaharning antik davrdagi ichki tuzilishi hali to‘liq o‘rganilgani yo‘q. Shuningdek, Olmaotishgan–2 yodgorligi dastlab akademik Ya. G‘ulomov tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, undagi hayot izlari I–XIII asrlarga tegishli ekanligini aniqlangan. M.Mambetullayev rahbarligida 1973–1974-yillarda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida asosan VII–XIII asrlarga taalluqli materiallar topilgan. 1994–1996-yillarda Arxeologiya instituti Xorazm mintaqaviy bo‘limi va Urganch davlat Universiteti tadqiqotchilari yodgorlikning asosan mudofaa tizimini o‘rganib akademik Ya. G‘ulomov ko‘rsatgan sanani yana bir bor tasdiqladilar. Qal’a o‘rta asr manbalaridagi Savkan nomi bilan qiyoslanadi. Yuqorida keltirilgan yodgorliklarda hali o‘rganilmagan muammolar talaygina. Bu qal’alarni o‘rganish orqali Xorazm tarixida ma’lum bo‘lmagan qirralarni ochish, Xorazm antik davr shaharlarining shakllanishi va rivojlanishning tarixiy sharoitlarini o‘rganish, ularning moddiy madaniyati masalalari va topografik tuzilishi hamda o‘ziga xos an’analari aniqlanadi. Xorazm shaharlarining tarixi, moddiy madaniyati, ularning sharq va g‘arb mamlakatlari orasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixi ko‘pgina tadqiqotchilar merosidan o‘rin egallagan. Ammo tadqiqotchilarning bir necha avlodlari bu mavzuni yoritish uchun bebaho ma’lumotlarni to‘plaganini e’tirof etish bilan bir qatorda, izlanuvchilarning hech biri antik davr shaharlari tarixini to‘laqonli yorita olmagan. Xorazm antik davr shaharlarining topografik tuzilishini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlarga ko‘proq e’tibor bergan holda etnograf, numizmat, lingvist olimlarning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari natijasida to‘plangan noyob ma’lumotlar va ular asosida chiqarilgan xulosalarni hisobga olib borish o‘ta muhim masalalardan hisoblanadi. Quyida Xorazm viloyati antik davr shaharlarini o‘rganish jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy masalalarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Xorazm antik davr shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy

¹⁷⁰ Мамбетуллаев М. Городище Кят (левобережный) и Зарлыкишан-бобо // Археологические исследования в Каракалпакии. Т.: 1981. -С. 98-100.

shart-sharoitlari yetilishidagi iqtisodiy va siyosiy omillarni aniqlash. Xorazm shaharlari taraqqiyotiga Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari shaharsozlik madaniyatining ta'sirini, o'zaro aloqadorligini moddiy madaniyat manbalari orqali aniqlash va o'rganish. Xorazm vohasi antik davr shaharlarining topografik tuzilishi (monumental arxitektura inshootlari, mahallalar va b.) va rivojlanish xususiyatlarini Xorazm viloyati yodgorliklari misolida o'rganish uchun arxeologik, etnografik, numizmatik tadqiqotlar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ochilgan har bir inshootni restavratsiya va konservatsiya qilib borish va tarixiy yodgorliklarda ochiq muzeylarni tashkil etishga asosiy e'tibor qaratish.

Arxeologik yodgorliklarning yangi turistik marshrutlar xaritasini ishlab chiqish va mamlakatimizda turizmni yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltirish. Yuqoridagi masalalarni hal qilishda Xorazm vohasida, shu jumladan Xorazm viloyatida joylashgan ko'pgina qal'alar (Kat-qal'a, Olmaotishgan-2, Qal'ajiq), yodgorliklarda keng qamrovli statsionar arxeologik tadqiqotlarni olib borish va ularning tarixini topilgan ashyoviy dalillar asosida chuqur ilmiy o'rganishni taqozo etadi hamda bu izlanishlar orqali Xorazm antik davr shaharlarining moddiy madaniyat tarixini dunyoga tanitish uchun katta imkoniyatlar yuzaga keladi

1. Xiva – Ayoqzala mashruti (150 km, yo'l bo'ylab Fil qala va boshqa yodgorliklar mavjud)



Xiva – Ayozqala mashruti bo'ylab mavjud yodgorliklar biri Xiva hisoblanib, Xiva joylashuv jihatdan Urganch shaxridan 25 km uzoqlikda Qoraqum chegarasida, Polvonyop kanalining oxirgi qismida past tekislikda joylashgan. Xiva (Ichan qal'a) qadimda to'g'ri to'rtbo'rchak shaklda qurilgan, uning maydoni 650x450 m, ya'ni 26 ga. Qal'a qadimda ikki qatorli devor bilan o'rab olingan. Devor o'z navbatida yarim burjlarga ega. G'arbiy devor markazida ark joylashgan, uning maydoni 170x120 m, ya'ni 2 ga. bo'lib, alohida kirish darvozasiga ega. Ichanqal'a va ark devorining saqlanib qolgan balandligi 8-10 m, qalinligi 10 m. 1985 -yildan M.Mambetullaev rahbarligidagi arxeologik guruh shaharning vujudga kelishi va rivojlanish tarixini o'rganish maqsadida arxeologik qazish ishlarini olib bordi, natijada yetti qurilish davri mavjudligi aniqlandi¹⁷¹.

I qurilish davri qadimgi davrga oid bo'lib, qal'a paxsa devor bilan o'rab olingan. Bizgacha saqlangan balandligi 0,85 m, devor o'rtasida yo'lak o'tgan, uning kengligi 2 m. Bu qurilish davrida tashqi devorga yon tomondan 4-6,5 m uzoqlikda qo'shimcha devor qurilgan, qalinligi 1,5 m atrofidan xandak o'tgan.

Yodgorlikda mil.av.IV asrda shaharning ichki qismida madaniy hayot davom etgan xajmida o'zgarish sezilmaydi, maydoni 650x450 m, ya'ni 26 ga. Antik davrda shahar paxsa devori ustiga to'rt tomoni teng xom g'ishtdan devor quriladi. Devorning tashqi tomonidan qo'shimcha devor qurilib uning qalinligi 8-10 m.ni hosil qilgan.G'arbiy qismidagi devor markazida ark joylashib alohida devor bilan o'rab olingan, uning qalinligi 5-6m. M.Mambetullaev rahbarligidagi arxeologik guruh shaharning vujudga kelishini va rivojlanishi tarixini o'rganish maqsadida qazish ishlarini olib bordi, natijada 10 ta qurilish davri mavjudligi aniqlandi¹⁷².

¹⁷¹ Фафоров Ш.С. ва бошқалар Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари тарихи- Т.:Самарканд, 2011. -Б. 151.

¹⁷² Мамбетуллаев М., Юсупов Н. Археологические работы в Хорезмской области. – Археологические открытия. -1973., М., 1974. -С-421

1-qurilish davri mil.av. V asrga oid bo'lib paxsa devor qurilgan, uning balandligi 0.85 m. Devor o'rtasidan yo'lak kengligi 2 m.. Bu qurilish davrida devor qalinligi 2.10 m., balandligi 1.5 m. Ichki devor qalinligi 1.70 m, balandligi 1.5 m. g'isht devor bilan qurilgan. Ichki devorda ham to'rt tomoni teng xom g'isht ishlatilgan bo'lib, uning balandligi 1,5 m. Demak, bu davrda Xiva mudofaa devori balandligi 1,80-2 m, kengligi esa 7-8 m bo'lgan. Burj devori ham xom g'ishtdan tiklangan bo'lib, devorda ishlatilgan xom g'isht hajmiga o'xshaydi. Bu esa devor va burj bir vaqtda qurilganligini ko'rsatadi. Mil.avv II asrdan boshlab, shaharda madaniy hayot inqirozi yuz berib, miloddan I asrigacha davom etgan. Uchinchi qurilish davri, Xiva shahrida miloldiy I asrdan boshlab, yuksalishi seziladi. Xivada hunarmandchilik va savdo o'sadi. G'arbiy devor markazida ark yanada qad ko'taradi. Shaharda madaniy hayot milodiy IV asrgacha davom etgan. Bu davrda shahar mudofaa devorida va burjida keng ta'mirlash ishlari olib borilib, natijada devorning pastki qismi qalinligi 9 m.bo'lgan. Mudofaa devor va burjga tashqi tomondan qo'shimcha devor qurilishi amalga oshirilgan. Burj to'g'riburchak shaklidan aylana holatga kelib qolgan. Shu bilan birga, mudofaa devor va burj oldinida 3,20 m. uzoqlikda qo'shimcha devor qurilgan. Bu albatta devorni buzadigan mashinalarga qarshi mo'ljallangan. Yodgorlikda IV asrning oxirida iqtisodiy-madaniy hayot inqirozi yuz bergan.

Milodning IV asr o'rtalaridan boshlab, shaharda yana madaniy hayot davom etib, mudofaa devor va burjga qo'shimcha devor qurilishi davom etgan. Ayniqsa, devorning tashqi tamondan qalinligi 0,42-0,52 m paxsa devor qurilgan. Bu qurilish davrida Dishanqal'a vujudga kelgan. Xivaning ichki qismida «Ko'shk»lar paydo bo'lgan. Beshinchi qurilish davri IX-X asrlar davrida devorda ta'mir ishlari olib boriladi. Devor qurilishida xom g'isht ishlatilgan (23x26x23-3-5sm). Devor qalinligi 1,5-2,5m, balandligi 0,37-0,86 m. Shu bilan birga, devor va burjlar bo'ylab qo'shimcha devor qurilgan bo'lib, uning burjdan uzoqligi 10-20 m. Dishanqal'a Xorazmshoxlar davrida uzil-kesil shakllandi. Bu qurilish davri. shunday qilib, Xiva mudofaa devori va burji ilk o'rta asrlarga tegishli bo'lib uning balandligi 6-7 m, qalinligi 6 m. Ilk o'rta asrda antik davrdagi qaridor qum bilan

to'ldirilgan. Natijada yo'lak mudofaa vazifasini butunlay yo'qotgan, devor yanada qalinlashgan. Devorning ustki qismida esa ochiq yo'lak paydo bo'lgan. Bu yo'lak keyingi tarixiy davrlarda ham mavjud bo'lgan¹⁷³.

Xiva – Ayozaqala mashruti bo'ylab mavjud yodgorliklar yana biri Ayozaqal'a 1 dir. Ayozaqal'a 1 - Ellikqal'a tumanidagi Sulton Uvays tog'i tizmasida 60 m balandlikda to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uning hajmi 182x152 m. Yodgorlikning uch tomoni chuqur jarlik bilan himoyalangan. Qadimda ikki qatorli devor o'rab olinib, uning saqlanib qolgan balandligi 5-10 metr. Tashqi devor qalinligi 2-4 m, ichki devor esa 2,1m. Tashqi va ichki devor o'rtasida 2,5 m yo'lak bo'lgan¹⁷⁴. Paxsa devor yopiq yo'lak 1.87 m. balandlikda svod shaklida g'ishtlar bilan berkitilgan. Darvoza janubiy devorda joylashib, to'g'riburchakli labirint inshooti bilan mustahkamlanib, balandligi 5-8 m., uning tashqi devordan yon tomonga chiqishi 37 m., sharqiy tomonga burilishi 27 m. Murakkab labirintga kirish sharqiy devorda bo'lib, kengligi 4 m. Tashqi devor bo'ylab yarim aylanali burjlar qurilgan. Ularning soni 35. Yodgorlik darvozasini himoya qilgan labirint ham yarim aylanali burjlarga ega bo'lib jami -3. Devordagi burjlar orasidagi maydon hajmi turlicha. Sharqiy va g'arbiy devordagi burjlar orasidagi oraliq 13.8 m., shimoliy tomonda 11.5 m., janubda esa 9-15 m. Devor burchaklarida «qaldirg'och dumi» shaklida yarim aylanali burjlar joylashib yon tomonga devordan chiqishida oraliq maydoni 1.50 sm., oxirgi qismidagi chiqishida 3,5 m., devordan umumiy chiqish uzunligi 6-8 m., burjlarning devordan yon tomonga chiqishi 8-10 m, kengligi 6-8 m. Paxsa va burj devorlariga to'rt tomoni teng g'ishtlar ishlatilgan. G'isht devorlar shaxmat uslubda joylashgan nayza o'qli shaklda shinaklar joylashgan bo'lib, ularning kengligi 13-20 sm, kirish qismi balandligi 0,48 sm., chiqishi esa 2.9-3.5 m., ular o'rtasida oraliq 1.5 m. Burjlarda 7 ta shinak joylashib, ularning to'rttasi qiyshiq yo'nalishga ega bo'lgan¹⁷⁵.


¹⁷³ Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа.-Т: 2012, -Б.67.

¹⁷⁴ Манилов Ю.П. Городище Аёзкалы – Уникальный памятник раннесредне векового Хорезма. Кн Археология Приаралья. Вып 2, Т.: фан, 1984.

¹⁷⁵ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948, - С. 67.

Yana bir arxeologik yodgorlik Ayozaqal'a-3-rejasi to'g'ri to'rtburchak shaklida 250x180 m, ya'ni 4,5 ga ikki qatorli devor bilan o'rab olingan yo'lak kengligi – 3m. o'z navbatida yarim aylanali burjlarga, kengligi 7.5 m. Devor balandligi 4-6 m, burjlar xajmi 7-8 m, 6-8 m, 9,5-8 m. Burjlar o'rtasidagi masofaa 22-25 m. Devor va burjlarining pastki qismi paxsadan tiklangan.(bloklardan) 64x65 sm, 90x70 sm, 70 60x80 sm keyinchalik devor va burjlar xom g'ishtdan tiklangan (38x42x10 sm). Darvoza janubiy qismida joylashgan bo'lib, murakkab inshoot bilan kuchaytirilgan, uning balandligi- 5 m¹⁷⁶.

2. Xiva-Xazorasp (Hazorasp) marshruti (95 km bo'lib, 36- kmida mashxur Qalajiq qalasiga burilish bor).



Xiva-Xadonis (Hazorasp) marshruti bo'yida joylashgan yodgorliklardan Hazorasp yodgorligi - Xorazm vohasining janubiy qismida, Baktriya, So'g'd yo'lida, Urganch shaxridan 70 km uzoqlikda pasttekislikda joylashgan. Yodgorlik kvadrat shaklda (340x320m, yani 10,8 ga). Qal'ani qadimgi davrda mudofaa devori bilan o'rab olingan, uning saqlanib qolgan balandligi o'rtacha

¹⁷⁶ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Наука, 1948. – С. 70.

4-5m. Yodgorlikning janubi-sharqiy tomonida ark joylashgan bo'lib, mahalliy aholi o'rtasida Devsolgan nomi bilan ma'lum, uning maydoni kvadrat shaklda: 40x40 m. Hazorasp mudofaa devorida ma'lum masofada joylashgan yarim aylanali burjlar mavjud. Burjlarning saqlanib qolishi turlicha, ya'ni shimoliy devorda – 7, g'arbiy tomonda – 6, sharqiy devorda – 4, janubida esa – 1 burj saqlangan. Burjlar o'rtasidagi masofa turlicha, burchak burj va unga yaqin burjlar o'rtasidagi masofa – 10 m, asosiy devordagi burjlar o'rtasidagi oraliq esa 55 m. Qal'aning kirish qismi janubiy devor markazida joylashgan bo'lib, uning kengligi 8 m. Darvozadan to'g'ri ko'cha o'tgan bo'lib, uning chap tomonida masjid joylashgan. Yodgorlikni sharqiy tomonidan keng xandak o'rab olingan. Yodgorlikning qurilishi va undagi madaniy qatlamlarni o'rganish ishlari dastlab Ya.G'.G'ulomov tomonidan olib borilib, uning qurilish davrini mil. avv. V-IV asrlarga oidligi to'g'risida xulosaga kelgan. 1958- 1960- yillarda arxeologlar M.G.Vorobeva, M.Yu.Lapirova-Skoblo, Ye.E.Neraziklar Hazoraspning bir necha joyida arxeologik izlanish ishlarini olib bordilar va qo'lga kiritilgan arxeologik materiallarga asoslanib, uni mil. avv. IV asrga mansub degan xulosaga keldilar. Afsuski, Hazoraspda avval olib borilgan arxeologik tadqiqotlar uning eng qadimgi qatlamlargacha olib borilmagan. Shu sababdan bo'lsa kerak, shaharning vujudga kelishi uning rivojlanishi tarixi masalasi bir necha o'n yilliklar davomida munozarali bo'lib kelmoqda¹⁷⁷.

1997-1998-yillarda Xorazm Ma'mun akademiyasi va Urganch Davlat Universitetining arxeologiya guruhi hodimlari tomonidan Hazoraspning Masjid yaqinida arxeologik tadqiqotlar olib bordi, ammo uning quyi qatlamgacha qazish ishlari yetkazilmagan. 2002- yilda Hazoraspning qadimiy qatlamlarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar Xorazm Ma'mun Akademiyasi, Ya.G'.G'ulomov nomidagi arxeologiya institutining birlashgan arxeologik guruhi tomonidan davom ettirildi. Hazoraspning, shimoliy devori markazida va shimoli-g'arbiy burchagining ichki qismida paxsadan tiklangan qadimiy devor topildi. Devor to'rtburchakli burj yoki pilyastr bo'lib, uning markazida nayza o'qi uchli shinak joylashgan, kengligi 18

Ахмедов М. Мозийдан садо. "Ҳозарасп" қалъаси ҳақида. 1.(61).2014, -Б.40-41.

sm, balandligi 40 sm. Shinakning ichki qismi devori somon loy bilan suvalgan. Hazoraspning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida qazish paytida olingan sopol buyumlar qurilish tarixini mil. avv. VI-V asr bilan aniqlash imkonini berdi.


Mil.av. IV asrda yodgorlikning rejalashtirilishida o'zgarish yuz bermaydi, ya'ni (340x320) umumiy maydoni 10,8 ga.. 1996-yilda M.M.Mambetullaev rahbarligidagi arxeologik guruhi shaharning ichki qismida arxeologik qazish ishlarini olib bordi, natijada uzunligi 15 m. Paxsa devor o'rganildi, uning balandligi 2m., devor bo'ylab ichki tomonidan yo'lak o'tgan, kengligi 2.4m. Ichki devor qalinligi 1,5 m, balandligi 2 m paxsadan tiklangan tashqi tomonidan qalinligi 1,50 m, paxsa devor qurilgan natijada tashki tomonidan devor qalinligi 3,50m. Devsolgan devorining pastki qismida ichki tomonidan 30 sm balandlikda paxsa devor topildi. Mudofaa devor pastki poydevorigacha tadqiqot ishlari yetkazilmagan. Masjid ichkarisida olib borilgan arxeologik shurf olti metr chuqurlikkacha olib borildi. Pastki madaniy qatlamdan olingan arxeologik ashyolar shaharning vujudga kelishini mil.avv V asrlarga oid ekanligini isbotlamoqda¹⁷⁸.

Antik davrga oid yana bir yodgorlik Qalajiq (Daudqal'a) - Bog'ot tumanidan janub g'arbida Hazoraspdan 25 km uzoqlikda Qoraqumning qum barxanlari chegarasida joylashgan. Yodgorlikning rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'riburchakli bo'lib, janubiy devor uzunligi –221m, shimoldagi devor 184 m, g'arbda 72m, sharqda 114 m, tashkil etgan. Mudofaa devorlarining saqlanib qolgan balandligi 12-14m, kengligi 2,5m. Qadimda ikki qatorli mudofaa devor bilan o'rab olingan, devor qurilishida to'rt tomoni teng g'isht ishlatilgan(45x45x14sm). Mudofaa devor shinaklarga ega. Ichki va tashqi devor o'rtasidagi masofa 2,45-2,75m. Tashqi devor balandligi 1,5 m, undan 3,6 m uzoqlikda to'siq devor qurilgan qalinligi 0,75 m. Tashqi mudofaa devor nayza o'qi uchli shinaklarga ega, ular o'rtasidagi masofaa 1,1-1,1.5sm, kengligi 0,76 sm, tashki tomonidagi uzunligi 1,5 m. Shinak yo'lak sathidan 68-70sm balandlikda joylashgan. Yodgorlikda mil. avv. IV-II asrlarda hayot bo'lgan.

¹⁷⁸ Нуржанов К. Хоразм ва жахон цивилизацияси. - Урганч. Олтин мерос. 2006, - Б.52-53.

1991-yilda Sankt-Peterburglik arxeolog V.A. Zavyalov rahbarligidagi arxeologik guruh Qalajiqda qazish ishlarini olib bordi. Yodgorlikning mudofaa tizimini o'rganish maqsadida shimoliy qismida tadqiqot ishlari olib borildi (r-1). Mudofaa devor (ichki va tashqi) avval paxsadan tiklangan bo'lib, balandligi 1 m, qalinligi 75-80sm, ba'zi hollarda 1m. Paxsa devor ustida to'rt tomoni teng xom g'ishtdan devor qurilgan (40x40x12, 44x44x13sm). Tashqi devorda nayza o'qi uchli shakldagi shinaklar joylashib, shinaklar o'rtasidagi masofa turlicha, yani 1.34 –1.35 m, ba'zi hollarda 1.05 m. Shinaklar hajmi yuqori qismi 40 sm, pastki 20 sm, balandligi 60-70 sm. Tashqi devordan 5 m uzoqlikda to'siq devor qurilib. uning balandligi sharqiy tomonidan 0.80 sm, g'arbiy tomonida esa balandligi 1.20 m. Bu to'siq devor ham asosiy mudofaa devorlar singari qumga qurilgan¹⁷⁹. Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan materiallar asosida yodgorlik mil.avv IV asrga oid ekanligini tasdiqlab, S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomovlar tomonidan ilgari surilgan xronologik davrlarni qo'llab quvvatlaydi. O'rta asrlarga kelib Qal'ajiqning rejalashtirilishi to'g'ri burchak shaklga ega bo'lib, maydoni, 68x50 m. Qal'a mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, balandligi 0,5, kengligi 2,2-2,5 m. Janubi –sharq tomonida darvoza joylashgan. Darvoza oldida murakkab inshoot qurilmagan, ark yo'q. Yodgorlikda keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan.

Xiva-Kat-Chilpiq qala marshruti 163 kmni tashkil etib bu yo'nalish bo'yicha quyida to'xtalib to'tamiz:



Xiva-Kat-Chilpiq qala marshruti bo'yida joylashgan Katqal'a - Urganch shaxridan 21 km g'arbda Katqishloq hududidagi tekislikka joylashgan, rejalashtirilishi to'g'riburchakka yaqin. 300-281 m, 8,5 ga. Yodgorlikning sharqiy devorida darvoza joylashgan bo'lib, to'g'riburchak shakldagi darvoza oldi murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Qadimda ikki qatorli muofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, saqlanib qolgan balandligi 1,5-7m. Mudofaa devor yarim aylana burjlar bilan mustahkamlangan, ular o'rtasidagi oraliq hajmi 27m. 1993-1994 yillarda Q.Sobirov rahbarligidagi arxeologik guruh yodgorlikning janubiy - g'arbiy tomonida qazish ishlarini olib bordi. Shahar mudofaa tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi davrlarini o'rganish maqsadida devorni kesish ishlari olib borildi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida mudofaa devor va burjlarida 3 qurilish davri mavjudligi aniqlandi. Birinchi qurilish davrida devor va burjning pastki qismi paxsadan tiklangan, balandligi 1,5m. Tashqi devor qalinligi 2m, ichki devor qalinligi 1,5m, yo'lak kengligi 2m. Bu tarixiy davrda mudofaa devor qalinligi 5m. Ikkinchi qurilish davrida paxsa devor ustiga har xil tamg'alarga ega bo'lgan to'rt tomoni teng xom g'ishtdan devor qurilgan(41x41x10, 42x42x12sm). Uchinchi qurilish davrida tashqi va ichki devor qalinligida o'zgarish bo'lmaydi, ya'ni 5m. Burjlar devordan yon tomonga o'sib chiqishi 5m. Shaharning qurilishi mil.av. V asrga oid bo'lib, unda hayot XX asrning 40 yillarigacha davom etgan¹⁸⁰.

Xiva-Kat-Chilpiq qala marshruti bo'yida joylashgan To'proqqal'a-Xiva shahridan 17 km shimoliy-g'arbda joylashgan. 1958-1960-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan topilgan va arxeologik

¹⁸⁰ Мамбетуллаев М. Городище Кят (левобережный) и Зарлыкишан-бобо // Археологические исследования в Каракалпакии. Т.: 1981. -С. 65-73

xaritada joylashtirilgan. Keyinchalik M.S.Lapirov –Skoblo tomonidan Tuproqqal’ada qisman qazish ishlari olib borilgan. 1973-1974 -yillarda M.Mambetullaev rahbarligida guruh yodgorlikda arxeologik tadqiqot ishlari olib borgan. Yodgorlikning rejasi (167-170) to’rt tomoni teng. Qadimda ikki qatorli devor bilan o’rab olingan, saqlanib qolgan balandligi 3m. Janubiy-g’arbiy devorida burjlar qolgan devorlarda 4tadan to’rtburchakli burj mavjud. Burjlarning devordan yon tomonga o’sib chiqishi 5,2 m, kengligi 7 m. Burjlarning xona hajmi 1,75-1.99 m, 2,4-2,6 m. Burjlar o’rtasidagi masofaa 36 m, shimoli-sharq tomonidan burjlar o’rtasidagi masofaa esa 22-38m. Qal’a darvozasi janubiy -g’arbiy devor markazida joylashgan. Darvoza oldi to’g’riburchakli labirint bilan mustahkamlangan bo’lib, darvozadan yon tomonga o’sib chiqishi 11,5 m. Mudofaa devor yaqinidan xandak o’tgan kengligi 23-27m. Yodgorlikning mudofaa devori va burjlarning tuzilishini aniqlash maqsadida qazish ishlari olib borilishi natijasida shu narsa aniqlandiki, qal’ani ikki qatorli devor o’rab olgan. Devor o’rtasidagi yo’lak kengligi 1.65-1.70m. Mudofaa devori xom g’isht bilan tiklangan(40x43x40-45x10-16sm) balandligi 3,3-3,5m. Ichki devor qalinligi 2,5 m. Tashqi devor esa 2,9 m. Ular o’rtasidagi kenglik 1,65-1,70 m. Mudofaa devor va burj tashqi tomonidan qo’shimcha devor bilan qoplangan. Uning balandligi 2,2-3m. Shaharning darvozasida burj mavjud emas, balki murakkab labirint bilan mustahkamlanib, bir aylanma yo’lak orqali shaharga dushmanning kirib kelishini osonlashtiradi.⁵

Xiva-Kat-Chilpiq qala marshruti bo’yida joylashgan To’proqqal’a (Shovot)-Anbar-Manoqqishlog’idagi Xorazm fermer xo’jaligi hududida tekislikka joylashgan. Yodgorlikning tarxi aylana shaklda,umumiy maydoni-4ga. Yodgorlik qadimda mudofaa devor bilan o’rab olinib, yarim aylana burjlarga ega bo’lgan. Shaharning ichki qismida jamoat binolari qoldiqlari sezilmaydi,ark-qal’a mavjud emas.Shahar shimoliy va janubiy tomonidan darvozalarga ega. 1999-2000-yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasi arxeologiya, tarix va falsafa bo’limining arxeologiya guruxi Tuproqqal’ada qazish ishlarini olib bordi. Yodgorlikning mudofaa tizimi tarixini o’rganish maqsadida shimoli-sharqiy qismidagi devorda qazish ishlari amalga oshirildi, natijada mudofaa devorining ustki qismi to’rt

tomoni teng xom g'ishtdan qurilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, devorning tashqi tomonidagi yarim aylanali burjlar oralig'ida tozalash ishlari olib borildi, natijada mudofaa maydoni 22 m, burjning devordan yon tomonga chiqishi 5,25-6,25 m uning ichki qismida to'g'ri burchakli xonaga ega bo'lib, hajmi 2,21-2,62x7,07-7,22 m. Devor va burj avval paxsadan keyinchalik to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. (40x40x10sm,41x41x12sm)¹⁸¹.

Arxeologik ashyolar Tuproqqal'aning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi uch qurilish davridan iborat ekanligini yorqin tasvirlaydi. Qurilish davrida qal'a paxsa devor bilan o'rab olingan bo'lib, yo'lak va yarim aylanali burjlarga ega bo'lgan.

II qurilish davri paxsa devor ustiga to'rt tomoni teng xom g'ishtli devor qurilgan. Bunday hajmdagi g'isht burj qurilishida ham ishlatilgan. Qal'aning ichki qismida devor bo'ylab uy xonalari qurilgan.

III qurilish davri. Bu qurilish davrida g'isht devor ustiga xom g'isht aralash paxsa devor qurilgan. Milodiy IV asrga kelib, qal'ada madaniy hayot barham topgan.

Voyangan - Shovot tumanidagi Manoq qishlogidagi Xorazm fermer xo'jaligi hududida joylashgan. Rejalashtirilishi jihatdan to'g'riburchak shaklida, yer sathidan 2-3 m balandlikka qurilgan. Uning hajmi 280x360 m. Yodgorlikning ichki tuzilishi jihatidan ikki qismga ajralganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Qadimda devor bilan o'rab olingan bo'lib, uning saqlanib qolishi turlicha 2-6 m. Ayniqsa janubiy qismda devor yaxshi saqlanib qolgan va devor yarim aylanali burjlar qoldig'i ko'zga tashlanadi. Burchakda yarim aylanali burjlar mavjud. Devor avval paxsadan keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan(40x41x9-11sm). Sharqiy tomonda yodgorlikning ikkinchi qismi joylashgan uning hajmi 320x220 m. Devor qalinligi 9-11m. Shahar antik davrda 10 ga tashkil etgan. 1949-1950-yillarda Ya.Ya.G'ulomov yodgorlikni ko'zdan kechirib, Kushon davri (I-IV asr) va IX-XII asrlarda mavjudligini qayd etgan.

¹⁸¹ Кдырниязов О.Ш. Хоразм воҳаси урбанистик цивилизация тарихи. – Нукус. 2015, -Б. 41.

1973-1974-yillarda M.Mambetullaev, M.Sh.Kadiriyoziyovlar Vohanganda qazish ishlarini olib borgan, afsuski mudofaa tizimi o'rganilmagan. Yodgorlikning ichki qismida arxeologik tadqiqotlarni olib borishning imkoniyati yo'q, chunki mahalliy aholi tomonidan qabristonga aylantirilgan¹⁸². Yodgorlikning g'arbiy qismidagi devorni kesish ishlari olib borildi, natijada ikki qurilish davri aniqlangan: 1-qurilish davri-devor paxsadan qurilgan, balandligi 2,94 m, yo'lak kengligi 2,5 m, devor qalinligi 4,5 m. 2- qurilish davri-paxsa devor ustiga xom g'ishtli kvadrat shaklda devor qurilgan(40x40x10)¹⁸³.

V-IX asrlarda mudofaa devorining yuqori qismi, ya'ni uchinchi qurilish davrida paxsa devor qurilgan. Antik davrdagi yo'lak paxsa devor bilan to'ldirilgan. Bu davrda paxsa devor balandligi 1m, qalinligi esa 4m. Mudofaa devor tashqi va ichki tamondan qo'shimcha devor qurilmagan. Bunday holatni devor burjida ham ko'rish mumkin. Ilk o'rta asrlarda yodgorlikning g'arbiy va sharqiy qismlarida madaniy hayot davom etgan. Shahar hududi sharqiy tomon kengayib IX-X asrlarga kelib umumiy maydoni 17 ga bo'lgan.


Xiva-Kat-Chilpiq qala marshruti bo'yida joylashgan Chilpiqqala – qadimiy zardushtiylik diniy e'tiqod davrlarida qurilgan dahma maqbarasi. Qurilma mahsus cho'qqi ustida barpo qilingan bo'lib, zardushtiylik qonunlariga mos ravishda aholi manzilidan uzoqda joylashgan dafn marosimlari ob'ektidir. Shu ma'noda Chilpiq noyob tarixiy yodgorlik sifatida turistik ob'ekt bo'lishi maqsadga muvofiq¹⁸⁴.

3. Xiva-Qo'y Qirilgan qala marshruti (235 Km).

¹⁸² Мамбатуллаев М, Кидирниёзов М.Ш. Городище Воянган. Кн. Археология Приаралья. Вып 11, -Т.: Фан. 1982, -С .90-91.

¹⁸³ Кдырниязов О.Ш. Хоразм воҳаси урбанистик цивилизация тарихи. – Нукус. 2015, -Б. 56-57

¹⁸⁴ Толстов С. П., Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования. - Москва: Издание МГУ, 1948, с. 71; Ёломов Я. Ё, Хоразмнинг суюрилиш тарихи: ёдимги замонлардан ҳзиргача. – Т.: ЁзФАН, 1959,-Б 138.



Ushbu yo'nalish bo'yicha mavjud yodgorliklardan Qo'yqirilganqal'a–To'rtko'l shahridan 12 km shimoli sharqda joylashgan. Rejalashtirilishi aylana shaklda, devor bilan o'rab olingan, umumiy hajmi – 86,5 m² 0,6 ga. Yodgorlikning markaziy qismida ikki qavatli inshoot qurilgan, aylana holda, 44.4 m, inshootdan 14,5 m uzoqlikda ikki qatorli mudofaa devor qurilgan. Devor o'z navbatida to'qqizta burjga ega, kirish qismi sharqiy devorda joylashgan. Darvoza bir necha aylanma yo'laklarga ega bo'lib, "Labirint"ga ega to'g'riburchak shaklda yon tomonga o'sib chiqishi 18 m, ikki yon tomoni yarim aylanali burj bilan kuchaytirilgan umumiy hajmi 0,3 ga. Qal'a xandak bilan o'rab olinib, kengligi 15 m, chuqurligi 3 m. Markaziy inshootning birinchi qavati 8 xonadan iborat bo'lib, uning balandligi 8,5 m. Tashqi devor avval paxsadan, keyin to'rt tomoni teng xom g'ishtdan tiklangan, qalinligi 7,2 m¹⁸⁵.

Yodgorlik S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari tomonidan topilib, 1951 – 1957-yillarda qazish ishlari olib borildi va olingan ashyolarga qarab, birinchi qavat mil. avv IV asrlarga oidligi aniqlangan. Devor

¹⁸⁵ Qo'yqirilganqal'a. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/450>

yaqinidan kengiligi 10 metr keladigan xandak o'tgan. Yodgorlikda madaniy hayot milodiy IV asrda barham topgan.

Xiva - Qo'y Qirilgan qala marshruti bo'yida joylashgan Katta Guldursin qalasi – Qirqqiz kanali sug'orish tizimida joylashgan bo'lib, rejalashtirilishi noto'g'ri to'rtburchak shaklda tekislikka qurilgan, umumiy maydon 620-500 m ya'ni 31 ga. Yodgorlik ikki qator mudofaa devor bilan o'rab olinib, avval paxsadan, keyinchalik to'rt tomoni teng xom g'ishtdan qurilgan. Shaharda ark-a'lo sezilmaydi, ichki tuzilishida jamoat binolari qolidiqlari tepalik sifatida mavjud emas. Darvoza janubi-sharqiy qismidagi devor o'rtasida joylashgan, murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Devor o'rtasidan 2,10 m yo'lak o'tgan. Milodiy I-II asrlarda tashqi devor yaqinidan qo'shimcha devor qurilgan. Devorda yarim aylana burjlar bo'lib ular o'rtasidagi masofa 55 m. Yodgorlik miloddan avvalgi IV asrda qurilgan bo'lib milodiy IV-V asrgacha hayot davom etgan. Yodgorlikning qadimgi devoriga ilk o'rta asrda paxsa devor qurilgan, uning rejalashtirilishida o'zgarish sezilmaydi. Yodgorlik IX-XIII asr boshlarida iqtisodiy, madaniy va xarbiy- diniy markaz bo'lgan. Mudofaa devori va burjlarda ta'mir ishlari olib borilgan.¹⁸⁶

Ushbu yo'nalishda Burgutqal'a joylashgan bo'lib, bu yodgorlik hozirda Ellikqal'a tumanidagi Qirgizobod xo'jalik hududida joylashgan. Rejalashtirilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, 200-150m Qadimda devor bilan o'rab olingan. Devorda mavjud bo'lgan burjlarning saqlanib qolishi turlichadir. Yodgorlikning shimoli-g'arbiy qismidagi paxsa devor o'rganildi.

Xiva - Qo'y Qirilgan qala marshruti bo'yida joylashgan Uyqal'a hozirda Ellikqal'a hududidagi Qirqqiz fermer xo'jaligi hududida joylashgan. Yodgorlik to'rtburchakli shaklda bo'lib mudofaa devorining xar bir tomonida 3 tadan burjlar joylashgan. Qal'a darvozasi murakkab inshoot bilan mustahkamlangan. Qal'a atrofida mil. av. IV asrga oid materiallar topilgan. Yodgorlikda kushonlar va ilk o'rta asrlarda madaniy hayot davom etgan.

¹⁸⁶ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 45-46.

Yana bir yodgorlik Qumbosganqal'a - Ellikqal'a tumani hududida Guldursun-Qirqqiz sug'orish inshooti tizimida joylashgan. To'rt tomoni teng bo'lib, 110x115m. Yodgorlik ikki qatorli devor bilan o'rab olinib, uning balandligi 10 m, pastki qismining kengligi 10 m, devorning xar tomonida 5 tadan iborat to'g'ri burchakli ikki qavatli burjlar mavjud. Mudofaa devori va burjlarning pastki qismi paxsadan, yuqori qismi esa xom g'ishtdan tiklangan (37x37x 9 m). Devor va burjda kengligi 12-15 sm, balandligi 60 sm bo'lgan shinaklar joylashgan. Darvoza ikki tomoni burjlar bilan kuchaytirilgan. Burjlar o'rtasidagi oraliq maydoni 27m. Yodgorlikning qurilishi mil.av IV asrda amalga oshirilib, milodning II-III asrlarida hayot ravnaq topgan¹⁸⁷.

XULOSA

Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya masalalari Xorazm tarixining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xorazm vohasi tarixiy yodgorliklarining o'rganilish darajasining o'zi bizning mavzuimizning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xorazm vohasi hududida XX asrning 30 – yillaridan boshlab arxeologik tadqiqotlar uzluksiz ravishda olib borilgan. Shu bilan birga mazkur tadqiqotlar davomida, o'tkazilgan arxeologik izlanishlarning natijalari hisobot sifatida Arxeologiya bo'limiga topshirilgan. Ammo, bu tadqiqotlarning natijalarini uzviy, lozim bo'lsa, eng muhim natijasi bo'lgan yodgorliklarning joylashuvi xaritasi, Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya muammolari to'laqonli, tugal yakunlangan tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

¹⁸⁷ Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 49.

Mavzuimiz doirasida biz quyidagi muammolarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratishimizni lozim topdik:

- Xorazm vohasining tosh asridan to antik davrgacha bo'lgan tarixini xronologik jihatdan bir-biri bilan bog'lab, umumlashtirilgan mavzu sifatida alohida tadqiq etish.

- Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini ilmiy jihatdan keng miqyosda tahlil qilish, Xorazm arxeologik xartasiga joylashtirish va ilmiy muomalaga kiritish.

- Bu borada Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya muammolarini tahlil qilish.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Xorazm vohasida ko'plagan arxeologik tadqiqotlar o'tkazilgan va shu asosda vohaning umumiy arxeologik xartasi shakllantirilgan.

2. Ammo, Xorazmning arxeologik xartasi alohida mikrovohalar miqyosida yaratilmagan. Zero, Xorazmda miloddan avvalgi 10 ming yilliklardan to milodiy IV asrgacha bo'lgan davr mobaynida kichik mikrovohalar, yoki, kichik – kichik xo'jalik zonalari shakllanganligi arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z aksini topgan.

3. Xorazm vohasi tarixiy yodgorliklarini kartografiya qilish bugungi kunning eng dolzarb tarixiy muammosi hisoblanadi.

4. Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya qilish kabi muhim muammolarni hal qilish Xorazm tarixining boshqa muammolarini hal qilishda ham katta ahamiyatga egaligi mazkur mavzuni zaruriyatga aylantirgan.

5. Xorazm vohasi arxeologik yodgorliklarini rejalashtirish va kartografiya qilishda ham ho'jalik markazlari nuqtai – nazaridan, ham davriy nuqtai – nazaridan kelib chiqilsa muhim ahamiyatga molik ish bo'lgan bo'lardi.

Tadqiqot natijalari quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

- O'zbekiston tarixi fani bo'yicha o'rta maktab o'quvchilari va oliygohlar talabalari uchun darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni Xorazm vohasi

qadimgi davri tarixiga doir yangi ma'lumotlar bilan boyitish muhim ahamiyatga ega;

- O'rta Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning vujudga kelishi, etnik kartografiyasi va geografiyasi masalalarini tadqiq etish, Janubiy Orolbo'yi hududlarida turizmni rivojlantirish jarayonida, Xorazm vohasi tarixiga oid ilmiy axborot doirasi va tarixshunoslik ma'lumotlardan keng foydalanish tavsiya etiladi;

- Orolbo'yidagi ekologik sharoitning keskin o'zgarishini inobatga olgan holda, qadimgi yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va o'rganish ishlarini davom ettirish maqsadida ham ularning kartografiyasini yaratish juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va boshqa mamlakatlar olimlarining ishtirokida qo'shma mintaqaviy fundamental ilmiy tadqiqot loyihasi rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.

2. [Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намоёндалари билан учрашувдаги нутқи // Халқ сўзи. – 2016. – 31 дек.](#)

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб – интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши

керак. Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017-йил 14- январь – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Аскарлов А. Ўзбек халқи этногенези ва этник тарихи Т. "Университет", 2007.
2. Авезов С.А, Абдуллаев О.А. Хоразм вилояти агроиклимий ресурслари ва уларнинг кишлок хўжалигига таъсири. Хоразм Маъмун ахборотномаси. Хива № 2 (31), 2014.
3. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. М. «Наука», 1969.
4. Архангельский А.Д. Геологические исследования в Низовьях Амударьи.//Труды главного геологического управления ВСНХ. Вып 12. Л-д, 1931.
5. Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси. Тошкент "Ўқитувчи", 2002.
6. Богданов М.Н. Очерки природы Хивинского оазиса и пустыни Кызылкум. Т.1891.
7. Барбот Де. Марни Н.П. О геологических исследованиях Амударьинском крае /ЗКРГО Т.9. Вып 6, Спб, 1875.
8. Баратов П, Маматкулов М, Рафиков А. Ўрта Осиё табиий географияси.
9. Бижанов Е.Б. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте//Вестник ККОАНРУз, ; 3//.Нукус, 1979.
10. Бижанов Е.Б. О находках памятников каменного века в районе впадины Шахпахты на Устюрте/Вестник ККО АН Уз.//Вып № 1, Нукус, 1983.
11. Бижанов Е.Б. К вопросу о хронологии Неолита Устюрта.\ Археологические исследования в Каракалпакии. Т.Фан, 1981 .
12. Бабаев А.Г. Фрейлик З.Г. Пустыня СССР вчера,сегодня, завтра М.1977.
13. Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Т."Ўқитувчи", 1996 .

14. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта \Археология Приаралья. Т.Фан, № 1, 1982.
15. Бижанов Е.Б. Новые данные о Неолите юго-западного Устюрта. [\Вестник](#) КК АНРУз Вып-3, Нукус, 1980.
16. Виноградов А.В. Раскопки стоянки Жанбос-31. /АО,1976. М.1977.
17. Виноградов А.В. Исследование стоянки Толстова /АО, 1980. М. «Наука», 1981.
18. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья М.Наука, 1981.
19. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма //МХЭ, Вып. № 8//1968.
20. Вамбери А. Очерки Средней Азии.М.1968.
21. ГеогриевскийБ.М. Геополитические и гидрогеологические исследования 1925-1935 гг. Южный Хорезм. Часть 1. Т. 1937.
22. Геродот IX.П. 10.
23. Димо Н.А. Почвенные исследования в бассейне вАмударьи//Ежегодник отдела земельных уличшений за 1913 г. Часть-2, Спб, 1914.
24. Древности Южного Хорезма. М «Наука». 1991.
25. Жаббаров И. Юксак маданият ва ноёб маънавият маскани. “Ўзбекистон”, 2012.
26. Курбониязов Р. Хоразм географияси. Урганч, 1998.
27. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефааллювиально дельтовых равнин Амударьи //Культура и искусство древнего Хорезма. М. «Наука», 1981, рис.4.
28. Кесь А.С. Причины изменения уровня Арала в Голоцене //Известия Ан СССР. Серия географическая . М, 1978, № 1.
29. Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустынях Средней Азии /КСИЭ, вып.30, 1958.
30. Кесь А.С., А.В.Виноградов, М.А.Итина. Палеогеография района возвышенности ДЖанбас и история его древнейшего освоения.

31. Кесь А.С. К вопросу верхнечетвертичной истории системы Амударь-Сарыкамыш. Тр комиссии по изучению четвертичного периода Ан СССР Т.13, 1957.
32. Кун.А.П. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г./Зирго Т-Х . Спб, 1874.
33. Ўзбекистон тарихининг янги концепцияси Т.1996.
34. Пьянков И.В. ХорасмийГекатея Милетского ВДИ № 2, М. «Наука», 1972.
35. Россикова А.Е. По Амударье от Петро-Александровска до Нукуса /Исторический вестник Т 28, Спб, 1902.
36. Иванин М.И. Хива и река Амударья. Спб, 1873. 37-39.
37. Сорокина Р.Я. Ягодин В.Н. Развитие гидрографической сети Приаральской дельты в голоцене //Колебания увлажненности Аралы-Каспийского региона в Голоцене М, 1980 .
38. Собиров Қ, Хоразмнинг кишлок ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. Тошкент “Фан”, 2009.
39. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Т.”Университет”, 2004.
40. Собиров Қ, Жуманиязова М. Амударё Қуйи хавзаси ва унга табиий равишда туташган Жанубий Мезолитдаги қадимги халқлар тарихига доир баъзи чизгилар (мил.авв V-II минг йилликлар)//Хоразм воҳасида ижтимоий-гуманитар фанлар тараққиётининг минтақавий хусусиятлари” мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. Урганч, 2010.
41. Собиров Қ, Исламов Ш. Хоразм ҳудудида илк дехқончилик жамияти ва шаҳар типига аҳоли марказларининг шаклланиши /Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива, №4. (37). 2015.
42. Солиев А.Ўзбекистон географияси. Т “Университет” 2014, б 336.
43. Собиров Қ., Абдуллаев Ў. Этномаданий муносабатлар: шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. /Жамият ва бошқарув. Т. Академия. № 4, 2007.
44. Собиров Қ, Атамуратова Д. Қадимги Хоразм воҳасининг этногенези ва этник тарихига доир баъзи чизгилар. Термез.2011.
45. Собиров Қ, Ш.Нуруллаева. Матчанов Ж. Ибтидоий жамият тарихи. Урганч.2014.

46. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимий йўллари. Т. “Академия”, 2008.
47. Марков К.К. Высыкает ли Средняя и Центральная Азия /Очерки по географии четвертичного периода. М.1955.
48. Массон В.М. Культура генез и этногенез Средней Азии и Казахстан //Проблемы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии и Казахстана. М. Вып.1. 1990.
49. Матякубов Х. Ўзбек давлатчилигининг илк босқичларида қадимги Хоразм. Авторев. Канд.дис. ист.наук. Т.2012.
50. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.«Наука» 1948.
51. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М-Л «Наука», 1948.
52. Холматов Н.Ўзбекистон неолит даври жамоаларининг моддий маданияти. Т.Фан, 2008.
53. Гуломов Я.Ғ., Исломов У., Асқаров А., Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Т.: «Фан», 1966.
54. Щукин И.С. Очерки физической географии Средней Азии. 2.1. МГУ М. 1956.